

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**«IQTISODIYOT» FAKULTETI**

**AYUBJONOV A.H.**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASI  
(O'quv qo'llanma)**

**300000 – Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq**

**340000 – «Biznes va boshqaruv» ta'lif sohaning**

**5460200 – “Statistika” ta'lif yo'nalishi bakalavriat yo'nalishi talabalar uchun**

**TOSHKENT – 2007**

Ayubjonov A.H. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi: O'quv qo'llanma – T.: TDIU, 2007, 180 bet.

O'zbekiston Respublikasining uchyon va statistika sohasida xalqaro me'yorlarga o'tishini umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish jahon nazariy hamda metodologik tamoyillarini o'rganishni taqozo etadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi tashqi savdo, eksport, import, mehnat resurslari, ishlab chiqarish omillari, aholining xalqaro migratsiyasi, tashqi savdo baholari va boshqa bir qancha savollarga javob beradi.

O'quv qo'llanmadan oliv o'quv yurtlarining talabalari, magistrantlari, aspirantlari va tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi amaliyot xodimlari ham foydalanishlari mumkin.

Переход Республики Узбекистан в области учета и статистики к международным стандартам расчета обобщающих экономических показателей и их анализа требует изучения теоретических а также методологических принципов.

Статистики внешнеэкономической деятельности рассматривает вопросы внешней торговли, экспорта, импорта, турдовых ресурсов, факторы производства, международная миграция населения, цены внешней торговли и т.д.

Учебное пособие предназначено для студентов высших учебных заведений, магистров, аспирантов а также практических работников занимающихся вопросами внешнеэкономической деятельности.

With transformation of the accounting and statistics of the Republic of Uzbekistan to international standards it is required to learn the world theoretical and methodological principles in order to account and forecast the generalized economic indexes.

External economic activity statistics responds to the questions of external trade, export, import, labour resources, factors of production, international migration of population, external trade costs and many other questions.

Text lectures can be used by the students, bachelors and masters, who are currently studying in the higher institutions and the practical workers, who are dealing with the external economic activity.

Mas'ul muharrir: TDIU "Iqtisodiyot" fakulteti dekani,  
i.f.n., dos. Hayitov A.B.

Taqrizchilar: TDIU "Statistika" kafedrası professorı,  
i.f.d. Nabiev X.; Iqtisodiyot vazirligi  
bo'lim boshlig'i, dosent, i.f.n.  
Maxmudov B.M.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>9</b>
<b>I BOB. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASINING PREDMETI VA METODI.....</b>	<b>11</b>
1.1. TIF statistikasining predmeti.....	11
1.2. TIF statistikasi metodologiyasi.....	12
1.3. TIF statistikasining vazifalari.....	14
Qisqacha xulosalar.....	14
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	14
Asosiy adabiyotlar.....	15
<b>II BOB. XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR VA CHET EL MAMLAKATLARIDA STATISTIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHI.....</b>	<b>16</b>
2.1. BMTning statistik tashkilotlari.....	16
2.2. Chet el mamlakatlarda statistik xizmatni tashkil etilishining asosiy tamoyil.....	24
2.3. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi.....	24
Qisqacha xulosalar.....	26
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	26
Asosiy adabiyotlar.....	26
<b>III BOB. XALQARO STATISTIKADA QO'LLANILADIGAN MUHIM TASNIFLAR VA GURUHLASHLAR.....</b>	<b>27</b>
3.1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi.....	27
3.2. Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi.....	28
3.3. Xalqaro savdo tasnifi.....	29
Qisqacha xulosalar.....	30
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	30
Asosiy adabiyotlar.....	30
<b>IV BOB. XALQARO AHOI STATISTIKASI.....</b>	<b>31</b>
1.1. Chet ellarda aholi soni statistikasi.....	31
4.2. Aholining harakat ko'rsatkichlari.....	36
4.3. Chet elda aholi tarkibini o'rganish.....	42
4.4. Aholining kelajakdagi sonini aniqlash.....	49
Qisqacha xulosalar.....	53
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	53
Asosiy adabiyotlar.....	53
<b>V BOB. XALQARO MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI.....</b>	<b>54</b>
5.1. Xalqaro mehnat resurslari haqida tushuncha, ularning tarkibi va taqsimlanishi.....	54
5.2. Xalqaro mehnat bozori va mehnat bozorining xalqaro migratsiyasi statistikasi.....	56
5.3. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar tahlili.....	56

5.4. Mehnat resurslarini mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishini statistik o'rganish.....	64
5.5. Zamonaviy jahon mehnat bozorining iqtisodiy-statistik tahlili.....	67
Qisqacha xulosalar.....	69
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	69
Asosiy adabiyotlar.....	70
<b>VI BOB. XALQARO AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI.....</b>	<b>71</b>
6.1. Aholi turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari.....	71
6.2. Aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar.....	72
6.3. Aholi moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	77
6.4. Aholi madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	82
6.5. Aholi ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	83
Qisqacha xulosalar.....	84
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	84
Asosiy adabiyotlar.....	84
<b>VII BOB. TASHQI SAVDO BAHOLARI STATISTIKASI.....</b>	<b>85</b>
7.1. Tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari.....	85
7.2. Tashqi savdoda tovarlar importi va eksporti, uni statistik o'rganish.....	86
7.3. Tashqi savdoda baholarning shakllanish xususiyatlari.....	88
Qisqacha xulosalar.....	89
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	89
Asosiy adabiyotlar.....	90
<b>VIII BOB. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA «TASHQI DUNYO» SEKTORI.....</b>	<b>91</b>
8.1. «Tashqi dunyo» sektori tushunchasi, vazifasi va asosiy hisoblari.....	91
8.2. Joriy operatsiyalar hisobi.....	93
8.3. Kapital harajatlar hisobi.....	94
8.4. Moliyaviy hisob va uning asosiy ko'rsatkichlari.....	95
Qisqacha xulosalar.....	97
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	97
Asosiy adabiyotlar.....	97
<b>IX BOB. TASHQI SAVDO DINAMIKASINI VA TUZILMASINI O'RGANISH.....</b>	<b>98</b>
9.1. Tashqi savdoni o'rganishning statistik metodlari.....	98
9.2. Tovaraylanmasi dinamikasini o'rganish.....	100
9.3. Tashqi savdo tuzilmasini o'rganish.....	106
Qisqacha xulosalar.....	112
Nazorat va muhokama uchun savollar.....	112
Asosiy adabiyotlar.....	112
<b>ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>119</b>

## СОДЕРЖАНИЕ

<b>ВВЕДЕНИЕ.....</b>	<b>9</b>
<b>I ГЛАВА. ПРЕДМЕТ И МЕТОД СТАТИСТИКИ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....</b>	<b>11</b>
1.1. Предмет статистики ВЭД.....	11
1.2. Методология статистики ВЭД.....	12
1.3. Задачи статистики ВЭД.....	14
Краткие выводы.....	14
Вопросы для проверки и обсуждения.....	14
Основная литература.....	15
<b>II ГЛАВА. МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАТИСТИЧЕСКИЕ ОРГАНИЗАЦИИ И ОРГАНИЗАЦИЯ СТАТИСТИЧЕСКИХ РАБОТ В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ.....</b>	<b>16</b>
2.1. Статистические организации ООН.....	16
2.2. Основные принципы организации статистической работы в зарубежных странах.....	24
2.3. Организация статистической службы в других международных организациях.....	24
Краткие выводы.....	26
Вопросы для проверки и обсуждения.....	26
Основная литература.....	26
<b>III ГЛАВА. ВАЖНЕЙШИЕ ГРУППИРОВКИ И КЛАССИФИКАЦИИ ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В МЕЖДУНАРОДНОЙ СТАТИСТИКЕ...</b>	<b>27</b>
3.1. Международная классификация отраслей экономической деятельности.....	27
3.2. Международная классификация видов деятельности.....	29
3.3. Международная торговая классификация.....	30
Краткие выводы.....	30
Вопросы для проверки и обсуждения.....	30
Основная литература.....	31
<b>IV ГЛАВА. МЕЖДУНАРОДНАЯ СТАТИСТИКА НАСЕЛЕНИЯ....</b>	<b>31</b>
4.1. Статистика численности населения в зарубежных странах.....	36
4.2. Показатели движения населения.....	42
4.3. Изучение состава населения в зарубежных странах.....	49
4.4. Определение численности населения в будущем.....	53
Краткие выводы.....	53
Вопросы для проверки и обсуждения.....	53
Основная литература.....	53
<b>V ГЛАВА. МЕЖДУНАРОДНАЯ СТАТИСТИКА ТРУДОВЫХ РЕСУРСОВ.....</b>	<b>54</b>
5.1. Понятие о международных трудовых ресурсах, их состав и распределение.....	54
5.2. Международный рынок труда и статистика миграции международного рынка труда.....	56
5.3. Анализ экономических факторов влияющих на международный	

рынок труда .....	56
5.4. Статистическое изучение распределения трудовых ресурсов по территориим и странам .....	64
5.5. Экономико-статистический анализ современного рынка труда .....	67
Краткие выводы.....	69
Вопросы для проверки и обсуждения.....	69
Основная литература.....	70
<b>VI ГЛАВА. МЕЖДУНАРОДНАЯ СТАТИСТИКА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ.....</b>	71
6.1. Понятие об уровне жизни и задачи статистики.....	71
6.2. Обобщающие показатели уровня жизни населения.....	72
6.3. Показатели характеризующие удовлетворения материальных потребностей населения .....	77
6.4. Показатели характеризующие удовлетворения материальных благ и услуг населения .....	82
6.5. Показатели характеризующие социальное положение населения .....	83
Краткие выводы.....	84
Вопросы для проверки и обсуждения.....	84
Основная литература.....	84
<b>VII ГЛАВА. СТАТИСТИКА ЦЕН ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ.....</b>	85
7.1. Понятие и задачи статистики внешней торговли.....	85
7.2. Импорт и экспорт товаров во внешней торговле, их статистическое изучение .....	86
7.3. Принципы формирования цен во внешней торговле.....	88
Краткие выводы.....	89
Вопросы для проверки и обсуждения.....	89
Основная литература.....	90
<b>VIII ГЛАВА. СЕКТОР «ВНЕШНИЙ МИР» В СИСТЕМЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЧЕТОВ.....</b>	91
8.1. Понятие сектора “внешний мир”, задачи и основные счета.....	91
8.2. Счет текущих операций.....	93
8.3. Счет капитальных затрат.....	94
8.4. Финансовый счет и его основные показатели.....	95
Краткие выводы.....	97
Вопросы для проверки и обсуждения.....	97
Основная литература.....	97
<b>IX ГЛАВА. ИЗУЧЕНИЕ ДИНАМИКИ И СТРУКТУРЫ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ.....</b>	98
9.1. Статистические методы изучения внешней торговли .....	98
9.2. Изучение динамики товарооборота.....	100
9.3. Изучение структуры внешней торговли.....	106
Краткие выводы.....	112
Вопросы для проверки и обсуждения.....	112
Основная литература.....	112
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....</b>	119

## CONTENTS

<b>INTRODUCTION.....</b>	<b>9</b>
<b>CHAPTER I. SUBJECT AND METHOD OF EXTERNAL ECONOMIC ACTIVITY OF STATISTICS.....</b>	<b>11</b>
1.1.Subject of EEA Statistics.....	11
1.2.Methodology of EEA Statistics.....	12
1.3.Basics of EEA Statistics.....	14
Summary.....	14
Questions for discussion.....	14
Used Literature.....	15
<b>CHAPTER II. INTERNATIONAL STATISTICIAN ORGANIZATIONS AND STATISTICIAN INSTITUTIONS IN ABROAD.....</b>	<b>16</b>
2.1. UN statistician institutions.....	16
2.2. The main principals of organizing statistician institutions in abroad.....	24
2.3. Statistician institutions in the other international organizations.....	24
Summary.....	26
Questions for discussion.....	26
Used Literature.....	26
<b>CHAPTER III. GROUPINGS AND CLASSIFICATIONS WHICH ARE APPLIED IN INTERNATIONAL STATISTICS.....</b>	<b>27</b>
3.1. International classification of economic activity sections.....	27
3.2. International classification of job activities.....	28
3.3. Classification of International Trade.....	29
Summary.....	30
Questions for discussion.....	30
Used Literature.....	30
<b>CHAPTER IV. STATISTIC OF INTERNATIONAL POPULATION....</b>	<b>31</b>
4.1. Statistic number of population in abroad.....	31
4.2. Population migration.....	36
4.3. Learning consistency of population in abroad.....	42
4.4. Defining the number of Future population.....	49
Summary.....	53
Questions for discussion.....	53
Used Literature.....	53
<b>CHAPTER V. STATISTIC OF INTERNATIONAL LABOUR RESOURCES.....</b>	<b>54</b>
5.1. Meaning structure and distribution of International Labour Resources.....	54
5.2. International Labour Market and Statistics of International Labour Market migration.....	56
5.3. Economic Influence to Development of World Labour Market.....	56
5.4. Statistical Analysis of Regional and country distribution of Labour Resources.....	64

5.5. Economic and Statistic Analysis of Global Labour Market.....	67
Summary.....	69
Questions for discussion.....	69
Used Literature.....	70
<b>CHAPTER VI. STATISTIC OF WORLD POPULATION LIFE.....</b>	<b>71</b>
6.1. Information of world population life and tasks statistics.....	71
6.2. Index of general population life.....	72
6.3. Index of population of financial needs.....	77
6.4. Index of population of cultural needs.....	82
6.5. Index of population of social needs.....	83
Summary.....	84
Questions for discussion.....	84
Used Literature.....	84
<b>CHAPTER VII. STATISTICS OF EXTERNAL TRADE COSTS.....</b>	<b>85</b>
7.1. Statistics of External Trade goals and objectives.....	85
7.2. Statistics of External Trade import and export, and its statistical analysis.....	86
7.3. Statistics of External Trade Forming Costs.....	88
Summary.....	89
Questions for discussion.....	89
Used Literature.....	90
<b>CHAPTER VIII. NATIONAL CALCULATION OF “EXTERNAL WORLD” SECTION.....</b>	<b>91</b>
8.1. “External World” section and its responsibilities.....	91
8.2. Annual calculation of operation activities.....	93
8.3. Capital expenditure calculation.....	94
8.4. Fiscal accounting and its main index.....	95
Summary.....	97
Questions for discussion.....	97
Used Literature.....	97
<b>CHAPTER IX. DYNAMICS OF EXTERNAL TRADE AND STRUCTURE ANALYSIS.....</b>	<b>98</b>
9.1. Statistical methods of External trade.....	98
9.2. Dynamics of Commodity circulation.....	100
9.3. Structure analysis of External trade.....	106
Summary.....	112
Questions for discussion.....	112
Used Literature.....	112
<b>USED LITERATURE.....</b>	<b>119</b>

## KIRISH

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgandan so‘ng iqtisodiyotni ma’muriy boshqarishdan bozor munosabatlari asosidagi boshqaruvgaga o‘tkazish asosiy vazifa bo‘lib qoldi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish ob’ektiv zarurat edi.

Bozor iqtisodiyoti – umumbashariy hodisa bo‘lib, jahon sivilizasiyasini rivojlanishi yo‘lidagi muqarrar bosqichdir. Tartibli asosda qurilgan bozor xalqning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga, tashabbuskorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Faqat bozor munosabatlarigina respublika ishlab chiqaruvchi kuchlari zaminidagi ulkan imkoniyatlardan biri bo‘lib, u xalq baxt-saodati yo‘lida aholining turmush darajasini oshirish maqsadida samarali foydalanishni ta’minlashi mumkin.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov 2006 yil 10 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvori yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma’ruzasi: “Beshinchu ustuvori yo‘nalish eksportni har tomonlama rag‘batlantirish va valyuta zaxiralarini tejash, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta’minlashdan iborat”<sup>1</sup> – deb tashqi faoliyatni, jumladan tashqi savdoni yanada rivojlantirish hozirgi kunda naqadar dolzarb masala ekanini yana bir bor eslatib o‘tdi.

O‘zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o‘tkazishda davlat statistika organlarining roli katta. Hozirgi kunda O‘zbekistonda amal qilinayotgan statistika va hisobot tizimi iqtisodiyotni ma’muriy buyruqbozlik bilan boshqarish sharoitida vujudga kelgan bo‘lib, markazlashgan rejallashtirish metodologiyasiga va yalpi statistik kuzatishga asoslangan edi.

Statistik ko‘rsatkichlar tizimi vazirliklar va ma’muriyatlarini boshqarish zaruriyatidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, bozor munosabatlari talablariga javob bera olmas edi. Amaldagi hisobot va statistika tizimi jahon talablari darajasida emas, bu o‘z navbatida O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishi hamda xalqaro hamjamiyatlar bilan birikishida to‘sqinlik qilar edi.

Bozor munosabatlari sharoitida statistika sohasidagi yangi muammolarni hal etish uning nazariy asosini qayta ko‘rib chiqishni, mavjud statistika amaliyotida keskin o‘zgarishlar bo‘lishini talab etadi.

Mamlakatimizdagi ko‘plab korxona va tashkilotlarning tashqi bozorga chiqishi hamda ularda faoliyat ko‘rsata oladigan tashqi iqtisodiy aloqalar bo‘yicha mutaxassislarining zarurligi iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida «Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi» fani o‘qitilishini taqozo etadi.

Korxona va tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyati ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida alohida ahamiyatga ega.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Эришилган ютукларни мустажкамлаб, янги марралар сари изчил харакат қилишимиз лозим.  
– Халқ сўзи, 2006 йил 11 февраль.

Ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan sharoitda korxona va tashkilotlar bevosita chet elga chiqa olmas edilar. Buning natijasida yangi sharoitda chet el iqtisodiyotini mukammal biladigan iqtisodchi – mutaxassislariga jiddiy ehtiyoj sezildi.

«Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi» fanini o'rganish, talabalardan o'qish jarayonida statistika nazariyasi, makroiqtisodiy statistika, tashqi iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy nazariya va boshqa fanlarni chuqur va mukammal bilishlarini taqozo etadi.

Har bir bob bo'yicha qisqacha xulosalar, tayanch iboralar, talabalar bilimini nazorat qilish savollari va adabiyotlar ro'yxati bayon etilgan bo'lib, ular ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchi hamda talabalarga qo'l keladi deb o'ylaymiz.

# I bob. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASINING PREDMETI VA METODI

(bob yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida olib boriladi)<sup>1</sup>

- 1.1. TIF statistikasining predmeti
- 1.2. TIF statistikasi metodologiyasi
- 1.3. TIF statistikasining vazifalari

## 1.1.TIF statistikasining predmeti

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasining asoschisi deb haqli ravishda belgiyalik olim Adolf Ketleni (1796-1874) hisoblash mumkin. Chunki u birinchilardan bo‘lib to‘plangan statistik ma’lumotlarga statistik usullar yordamida ishlov berishni qo‘lladi. U, shuningdek, ilk bor Belgiyada Markaziy statistik komissiyani tashkil qilishda taniqli matematik olimlar bilan hamkorlik qildi. A. Ketleni matematik bo‘lgani uchun u o‘z tahlillarida matematik tamoyillariga suyanadi. Ushbu holat statistika vujudga kelishida, boshqa mamlakatlarda statistik tashkilotlarning shakllanishida o‘z ifodasini topdi. Chet el mamlakatlarida hozirgi kunda TIF statistikasi matematikaning alohida qismi sifatida tashkil topdi.

XX asr boshiga qadar chet el mamlakatlarida statistik tashkilotlarning yagona va shakllangan muassasa shakli mavjud emas edi. Statistika aksariyat hollarda sug‘urta tashkilotlarida nisbatan rivoj topgan. Ular o‘z ish faoliyatlarida mijozlarning sug‘urta stavkalarini aniqlashda, asosan vafot etish jadvallaridan keng foydalanishgan. Turli davlat va xususiy tashkilotlar iqtisodiy, hududiy, demografik, boshqaruv, tijorat to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plash uchun statistik kuzatishlar o‘tkazib turganlar. Bunday ishlarni amalga oshirish markazlashtirilmagan edi. Statistik tahlillar olib boriluvchi ob‘ektlar, ko‘rsatkichlar, to‘plash usullari va ma’lumotlarga ishlov berish ham bir yagona reja asosida amalga oshirilmasdi. Shu sababli, muayyan vaziyatda qulay va oson bo‘lgan statistika usullaridan foydalanish keng quloch yozgan edi. Natijada to‘plangan ma’lumotlarga ishlov berish, ularni o‘zaro taqqoslashda bir qancha muammolar paydo bo‘lar edi.

TIF statistikasi sohasida ayrim olimlar olib borgan ishlari tahsinga va e’tiborga loyiq. Masalan, Buyuk Britaniyalik Florens Naytingeyl (1820-1910) o‘zining tibbiyot sohasidagi ishlarida statistika usullaridan keng ko‘lamda foydalandi va ulardan foydalanishni siyosatchilar, huquqshunoslar va ishbilarmonlar o‘rtasida targ‘ib qilishga e’tibor berdi.

Statistika rivojiga ingliz olimi Karl Pirson (1857-1936) ham ma’lum darajada hissasini qo‘shdi. Uni biz «Pirson mezoni» bo‘yicha yaxshi bilamiz.

Statistikada korrelyatsion usulning ravnaqida ingliz Frengs Galtonning (1822-1911) xizmatlari kattadir.

Keyinchalik statistika rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan olimlardan biri Ronald Fisher (1890-1962) bo‘ldi.

<sup>1</sup> Методик ишланманинг қисқача варианти 169-бетда 1-иловада келтирилган.

## **1.2. TIF statistikasi metodologiyasi**

Har qanday fan o‘z o‘rganish ob’ektini ma’lum usullar yordamida o‘rganadi.

TIF statistikasi ham o‘z ob’ektini xususiy metodlari yordamida o‘rganadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ommaviy statistik kuzatish metodi;
2. Kuzatish ma’lumotlarini jamlash va guruhlash;
3. Turli umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarni (masalan, mutlaq va nisbiy miqdor, o‘rtacha miqdor, indeks va hakozo) hisoblash;
4. Tanlanma kuzatish usuli, statistik ma’lumotlarni jadval va grafiklar ko‘rinishida ifodalash.

Ushbu metodlardan foydalanish ushbu qo‘llanmaning tegishli mavzularida keng yoritiladi.

Ommaviy hodisa va jarayonlar har xil sohalarda kuzatiladi va turli tuman bo’ladi, ularning kechish sharoitlari ham, tuzilishi ham turlichadir. Demak, bunday hodisa va jarayonlar ko‘pgina shakllarga va turlarga ega. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi hodisa va jarayonlar o‘zining murakkabligi va o‘zaro bog‘lanishlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shu sababli statistik qonuniyatlar ham ularda har xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi va turli jihatlarini ta’riflaydi. O‘z-o‘zidan ravshanki, ularni qandaydir yagona bir usul yordamida o‘rganib bo‘lmaydi. Buning uchun maxsus usullar, yo‘llar majmuasi, bilim vositalari zarur.

Umuman olganda, uslubiyat so‘zi quyidagi lug‘aviy ma’nolarga ega: 1) bilimning ilmiy metodlari haqidagi ta’limot; 2) biror narsani nazariy tekshirish va amaliy bajarish usuli, vositasi; 3) ayrim fan tarmoqlarida qo‘llanadigan usullar, metodlar, yo‘llar, vositalar majmuasi; 4) ishlash va boshqarishdagi o‘ziga xos uslub, ya’ni maxsus yo‘llar, usullar majmuasi.

Statistika uslubiyati deganda ommaviy hodisa va jarayonni ilmiy tekshirish va boshqarish, unda namoyon bo‘ladigan qonuniyatlarni o‘rganish va ulardan amaliy foydalanish jarayonida qo‘llanadigan o‘ziga xos uslub, ya’ni usullar, metodlar, yo‘llar, vositalar majmuasi tushuniladi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy nisbatlarini aniqlash, ularda namoyon bo‘ladigan qonuniyatlarni oydinlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan statistik tadqiqotlar bir necha bosqichlarga, ular esa fazalarga bo‘linadi. Bosqich va fazalar o‘zining maqsadi, vazifalari va xususiyatlari bilan bir biridan ajralib turadi. Shuning uchun har bir faza va bosqichda o‘ziga xos tekshirish usullari, yo‘llari, vositalari qo‘llanadi. Shu bilan birga o‘rganilayotgan soha va masalaning harakteriga qarab, unga mos keladigan u yoki bu usul (yoki usullar to‘das) aniq tekshirishda, uning muayyan fazasi va bosqichida asosiy, etakchi quroq sifatida ishlatiladi.

Keng va to‘la ma’noda statistik tadqiqot ikkita bosqichdan tashkil topadi:

- 1) Tasviriyl statistika bosqichi
- 2) Analitik statistika bosqichi.

Birinchi bosqichda quyidagi asosiy maqsad va vazifalar ko‘zlanadi: o‘rganilayotgan ob’ektlarni spesifikasiyalash, ular haqida ma’lumotlar to‘plash va qayta ishlash, ommaviy hodisa va jarayonlarning miqdoriy meyorlarini tavsiflovchi ko‘rsatkichlarni hisoblash, ularni ko‘rkam va ixcham shaklda va zarur xollarda so‘z bilan tavsiflash. Ikkinci bosqichda esa ko‘rsatkichlarni statistik tahlil qilish, ular

orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash va baholash, o'rganilayotgan ob'ektlar taqsimotlaridagi qonuniyatlarni oydinlashtirish, ilmiy gipotezalarni ishonchhlilik jihatdan baholash va statistik xulosalarni chiqarish va hokazolar asosiy maqsad va vazifalar hisoblanadi.

U yoki bu bosqichning har bir fazasida ommaviy hodisa va jarayonlarni tekshirishning turli usullari, vositalari, yo'llari qo'llanadi. Masalan, ob'ektlarni spesifikasiyalash fazasida ularni oddiy yoki murakkab tasniflash, elementar yoki ierarxik birlashmalarini tuzib guruhashlar, ikkilamchi (qayta) guruhashning turli yo'llari, klaster tahlil yo'llari va hokazolar ishlatiladi. Statistik kuzatish jarayonida ishlab chiqarish yoki laboratoriya sharoitida tajriba sinovlar o'tkazish, hisobot yoki maxsus tekshirishlar va ro'yxatlarni amalga oshirish, anketa yoki tanlama usullarda kuzatish va boshqalar qo'llaniladi. Hodisalar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni o'rganishda analitik guruhash, parallel qatorlarni tuzish, ularning egri chiziqlarini diagrammalarda tasvirlash, balans usuli, korrelyasion va regression tahlil usullari, dispersion tahlil usullari, ko'p o'lchovli tahlil usullari (omilli tahlil, bosh komponent usuli va h.k.) va boshqa usullardan foydalaniladi. Bundan buyon so'z asosiy usullar ustida boradi.

Statistika nazariyasi statistik tadqiqotning ikkala bosqichi va ularning barcha fazalariga tegishli umumiyyat nazariyadir. U mazkur tekshirishning umumiyyat qoidalarini, uslubiyatini, ya'ni unda qo'llanadigan usullarni o'rganayotgan ommaviy hodisalarning mohiyati bilan bir butunlikda yoritadi.

Statistika ommaviy hodisa va jarayonlarni miqdoriy jihatdan o'rganayotganda matematik usullardan ham foydalanadi. Jumladan, bir qator statistika metodlari algebra va sonlar nazariyasiga - to'plamlar nazariyasi, algebraik sistemalar, chiziqli tenglamalar va tengsizliklar sistemalari hamda matriksalar, vektor va Evklid fazolari, determinantlar va hokazolarga tayanadi.<sup>1</sup> Odatda, statistika nazariyasi va matematik statistika ikkita mustaqil fan sohalari sifatida qaraladi. Bunday zid qo'yish ularning matematik apparatidagi farqlarga asoslanadi. Statistika nazariyasi elementar, matematik statistika esa murakkabroq matematik yo'llardan foydalanadi.

Ammo mazkur xususiyat ularni alohida fanlar sifatida qarash uchun asos bo'la olmaydi, chunki statistika nazariyasi va matematik statistika yagona fandir. Birinchidan statistikada sodda usullar o'rniغا murakkab, takomillashgan matematika vositalarini qo'llanilishi, umuman, ilm-fan taraqqiyotidan kelib chiqadi va uning oqibati hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat statistika taraqqiyotini, balki matematika taraqqiyotini ham aks ettiradi.

Ikkinchidan, statistikada qo'llanadigan barcha matematik vositalar, ular qanday ko'rinishda bo'lmasin, ya'ni arifmetik, algebraik yoki biror oliy matematik analiz bo'lishidan qat'iy nazar, o'z mazmunini matematikaning tarkibiy qismi bo'lmish ehtimollar nazariyasidan oladi va u tomonidan ochiladigan qonuniyatlarga asoslanadi.

Ehtimollar nazariyasi ommaviy hodisalarni sifat mohiyatidan ajralgan holda, umumnazariy jihatdan butunlay musaffo tasodifiy sonlar qatori sifatida qarab muhim xossalarni o'rganadi. Statistika esa hatto ommaviy hodisalarning umumiyyat qonun va qoidalarini tadqiq qilayotganda ham ularning birgina miqdoriy xususiyatlariiga

<sup>1</sup> Р.Н.Назаров., Б.Т.Тошпўлатов, А.Д.Дусумбетов. Алгебра ва сонлар назарияси. I қисм, Т.: -Ўқитувчи, 1993й.

tayanmasdan, balki vujudga kelish mexanizmiga asoslanadi, yuzaga chiqish sabablarini hisobga oladi. Statistika kursidan matematika usullarini chiqarib tashlashga urinish, ulardan sun'iy ravishda yangi o'quv predmeti sifatida - matematik statistikani shakllantirishga harakat qilish statistika nazariyasining asosiy boyligini hech qanday asossiz musodara qilish bilan barobardir.

### **1.3. TIF statistikasining vazifalari**

TIF statistikasi faqat fan bo'lib qolmasdan, shuningdek amaliy faoliyatning muhim sohasi hamdir.

TIF statistikasi doim ommaviy mashg'ulotlarga asoslanadi. Kerakli paytda u o'zining boshlang'ich kuzatishini ham tashkil etadi. Ommaviy boshlang'ich ma'lumotlarni umumlashtirayotganda statistika maxsus usullardan foydalanadi va pirovard natijada umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni aniqlab, hodisa va voqealar to'plamiga umumiy baho beradi. Statistika har xil o'Ichov birliklaridan foydalanadi. Jumladan, ko'rsatkichlarni pulda, naturada, shartli natura va mehnat birliklarida ifodalaydi.

TIF statistikasi iqtisodiy hodisalarining vaqt va fazoda taqqoslamasligini ta'minlash uchun ularni joriy baholardan tashqari o'zgarmas (taqqoslama) baholarda ham ifodalaydi. Shunday qilib, TIF statistikasi vazifalari va mazmuni jihatdan buxgalteriya va operativ uchyotdan hamda boshqa tarmoq statistikalaridan farq qiladi. Uning qo'llanish joyi keng va murakkabdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida TIF statistikasi oldida quyidagi muhim vazifalar turadi:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni, boshqarishni va keng jamoatchilikni haqqoniy statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash.
2. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy aloqalarni har tomonlama keng qamrovli ifodalovchi yangi statistik ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.
3. Mamlakatimiz turli tarmoqlari iqtisodiy faoliyatini chet el mamlakatlari iqtisodiyoti bilan muvofiqlashtirish yordamida yuzaga keladigan iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish.
4. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalar samaradorligini oshirish manbalarini va omillarini aniqlash.

### **Qisqacha xulosalar**

TIF statistikasi chet el mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi korxonalar va tashkilotlar hamda davlat tomonidan amalga oshiriladigan chet el korxonalari, firmalari hamda davlatlari O'zbekiston Respublikasi bilan olib boriladigan iqtisodiy aloqalarining miqdoriy tomonini ularning sifatlaridan ajratmagan holda muayyan makonda va zamonda o'rganadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.TIF statistikasi o'rganish ob'ekti haqida nima bilasiz?
- 2.TIF statistikasining predmeti.
- 3.TIF statistikasi metodologiyasi haqida nimani bilasiz?

4.TIF statistikasi asosiy vazifalari nimalardan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Сиденко А.В., Матвеева В. М. Международная статистика: Учебник. – М.: «Дело и Сервис», 2002.
2. Дубянская Г.Ю. Экономика – статистический анализ заработной платы в России. 1991-2000 гг. – М., 2003.
3. Адамов В.Е. и др. Экономика и статистика фирм: Учебник. – М., 2003.
4. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикаси: Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)
11. [www.europarl.org.uk](http://www.europarl.org.uk)

## **II bob. XALQARO STATISTIK TASHKILOTLAR VA CHET EL MAMLAKLARIDA STATISTIK ISHLARNING TASHKIL ETILISHI**

- 2.1. BMTning statistik tashkilotlari.
- 2.2. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatni tashkil etilishining asosiy tamoyillari.
- 2.3. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi.

### **2.1. BMTning statistik tashkilotlari**

Ayrim mamlakatlar bo'yicha statistika sohasida olib borilgan va ayrim mamlakatlarning statistik ma'lumotlar to'plash, ularga ishlov berish, tahlil qilish sohasidagi ishlari xalqaro miqiyosda maxsus ma'lumotlar to'plash bilan shug'ullanuvchi xizmatlarni vujudga kelishini taqozo etdi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) Milliy statistik xizmatlar tashkiloti
- 2) Baynalminal va mamlakatlararo hamda nodavlat xizmatlar olib boruvchi tashkilotlar.

Xalqaro statistika 1842 yili xalqaro statistiklar anjumani ko'rinishida yuzaga kelgan bo'sada, Ikkinci Jahon urushidan keyin xalqaro statistikaning rivojlanishida yangi bosqich boshlandi. Uning asosiy sababi statistik ma'lumotlarni to'plash, ularga ishlov berish, saqlash ishlari xalqaro miqiyosda keng quloch yozdi. 1946 yili BMT qoshida statistika komissiyasi faoliyat ko'rsata boshladi. Ushbu komissiyaga quyidagi ishlarni amalga oshirish yuklatildi:

- 1) xalqaro statistikaning rivojlanishiga va uni taqqoslash ishlarini olib borishlariga ko'maklashish;
- 2) ixtisoslashgan tashkilotlarning statistik ishlarini muvofiqlashtirishda ko'maklashish;
- 3) BMTning turli tashkilotlari statistik ma'lumotlarni to'plash va tarqatish bo'yicha ko'maklashish;
- 4) xalqaro miqiyosda statistika ishi hamda statistik metodlarning yaxshilanishiga ko'maklashish.

BMTning statistika komissiyasi o'zining asosiy ish faoliyati shaklida har 2 yilda bir marotaba yig'ilishib turadigan sessiyalarini hisoblaydi. Uning tarkibi doimo yangilanib turadi.

AQSh, Angliya, Fransiya, Xitoy, Hindiston va Rossiya vakillari, doimiy a'zo hisoblanadi. Jami 24ta mamlakat vakili komissiya tarkibiga kiritiladi. Bu komissiya tarkibida, shuningdek statistika byurosi ham faoliyat ko'rsatadi. Uning zimmasiga xalqaro savdo statistikasi, demografik va ijtimoiy statistika, milliy hisoblar tizimi, xalqaro aloqalar va boshqa statistika tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash va ularga ishlov berish vazifalari yuklangan.

O'tgan asrning o'rtalarida jahon bozorining vujudga kelishi sayyoramizdagi ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar haqidagi ma'lumotlarning muntazam ravishda kuzatishni talab qildi. Jahon xo'jaligida milliy iqtisodning o'rnini aniqlash uning rivojlanishini taqqoslash uchun xalqaro statistikaga ehtiyoj oshdi. Ko'rsatkichlarni hisoblash bir xil

usullarni ishlab chiqish va ularning yagona toifalarini ishlab chiqish yanada zarur bo‘ldi.

Aynan qadimgi davrlardan boshlab mamlakatlar haqidagi ma’lumotlarga ehtiyoj mavjud edi. Bu ehtiyojlarni har qanday raqamli ma’lumotlar qondirar edi. Bunday ma’lumot buyuk kashfiyotlar davrida va xalqaro savdoning kengayishida, asosan bozor munosabatlarining vujudga kelishi davrida, jahon bozorining shakllanishida muhim rivojlanish tusini oldi.

XVII-XVIII asrlarda bir qator mamlakatlarda milliy daromad va boylikni baholashga urinishlar bo‘ldi. Turli mamlakatlarning iqtisodiy qudratini o‘zar o‘lchashga, boshqa mamlakatlar haqidagi ma’lumotlarga bo‘lgan qiziqish kuchaydi; mohiyatan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ma’lumotlarga ehtiyojlar o‘sib bordi. Milliy davlat statistik tizimlari tuzila boshlandi. Evropa universitetlarida nafaqat yozma statistik va siyosiy arifmetika kurslari, shuningdek, balki, xalqaro taqqoslash kurslari ham o‘tila boshlandi.

Xalqaro statistikaning rivojlanishiga bir qancha sabablar turtki bo‘ldi.

Birinchi navbatda, tizimlashtirilgan ko‘rsatkichlarni yo‘qligi va ko‘pincha ularni har xil usullarda hisoblashning muntazam bo‘lmaganligi, milliy statistik xizmatlarning rivojlanmaganligi va mamlakatlar statistik xizmatlari faoliyatini umumlashtiruvchi xalqaro organlarning yo‘qligi shular jumlasidandir.

Evropalik ko‘zga ko‘ringan iqtisodchilar A. Ketele va E. Engellarning tashabbusi asosida 1853 yildan boshlab jahondagi etakchi mamlakatlar statistik ilmiy jamoalari va statistik xizmatlari vakillarining qatnashuvi bilan xalqaro statistik kengashlarni muntazam o‘tkazish masalasi echilgan edi. 1875 yilgacha ushbu kengash sessiyalarida muhim xo‘jalik tarmoqlari ko‘rsatkichlarning tartiblangan tasniflarni ishlab chiqish takliflari, muhim statistik tadqiqotlar bo‘yicha bирgalikda ishlar olib borish dasturlari, milliy statistik xizmatlarni yaratish muammolari muhokama qilingan.

Ushbu kengashlar ishida nafaqat statistikaning yondosh sohalaridan statistik olimlar, shuningdek davlat statistika organlarining namoyondalari ham qatnashgan.

Millatlar ligasi va boshqa xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari asosida 30-yillardan qator hodisalar yakunlarini bilib olish bilan, mamlakatlar bo‘yicha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan xalqaro statistik yilnomasi va qisqacha rasmiy ma’lumotlarni bosmadan chiqara boshlashdi. Haqiqiy xalqaro statistika asosi shu tarzda tartibga solingan edi. Uni jahon xo‘jaligi va boshqa mamlakatlararo aloqalarni tartibga solish uchun, nafaqat chet eldagisi ishbilarmon sheriklar haqidagi ma’lumotlarni olish uchun, balki iqtisodiy, savdo, madaniy va boshqa aloqalar rivojlanishi bilan mamlakatlarning o‘zi haqida ham ma’lumotlarni olish uchun zarur edi.

1946 yil fevralda BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi 1-sessiyasida (EKOSOS) – statistika sohasida hamma xalqaro tavsiyalarni tayyorlaydigan organ sifatida – statistika komissiyasi tashkil etildi (SKBMT).

SKBMTning tashkil etilishi mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda xalqaro statistikani amaliy qo‘llanilishi va sifatini mohiyatan oshirdi. BMT SKning yaratilishi alohida mamlakatlarda bo‘lgani kabi xalqaro tashkilotlarda ham umumjahon statistik ishlarini aynan aniqlab beruvchi markazga aylandi. BMTning statistik standartlari

xalqaro tashkilotlar uchun majburiy bo‘lish ularning ichki faoliyatlaridagi milliy statistik xizmatlar uchun tavsiya qilinadi. Shu bilan birga ular BMTga, xalqaro standartlarga mos keladigan ma’lumotlarni taqdim qilishi tartibini sharxlaydi. Hozirda BMT SK to‘la muvaffaqiyatli ravishda o‘zining asosiy masalalarini echadi va quyidagilarni bajaradi:

- ❖ o‘z majlisida bo‘lgani kabi EKOSOS va BMT General assambleyasi uchun ham hujjatlarni tayyorlash;
- ❖ BMTning statistika sohalarida boshqaruvlarning metodologik hujjatlari loyihamonini ishlab chiqish;
- ❖ BMTning statistika sohasidagi tavsiyalarni loyiha bo‘yicha milliy statistika xizmatlarining mulohazalarini to‘plash va tavsiya qilish;
- ❖ BMTning statistik ma’lumotlarni bosmadan chiqarish uchun mamlakatlardan va xalqaro tashkilotlardan olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va to‘plash;
- ❖ taqqoslash asosida hududiy va umumjahon natijalarini bilib olish va ularning BMTni maxsus muassasalari ma’lumotlari bilan chalkashliklarini bilish;
- ❖ milliy statistik xizmatni rivojlantirish uchun BMTning texnik yordamiga muhtoj bo‘lgan mamlakatlar va yo‘nalishlarni aniqlash;
- ❖ Umumjahon statistikasini mukammallashtirishga va uning usullarini rivojlanishiga ko‘maklashish;
- ❖ Muhim statistik tadqiqotlar rejasini ishlab chiqish;
- ❖ Xalqaro statistika ma’lumotlarini to‘plash va qayta ishlashning integrasiyalantirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish;
- ❖ Imkoniyatlarni o‘rganib chiqish va BMT statistikasi uchun xalqaro markaz va banklarning aniqlangan ma’lumotlarni yaratishda EHMLarni qo‘llash, zamonaviy ma’lumot tashuvchilarini va statistik ma’lumotlarning elektron turlarini joriy qilish;

1993 yilda BMT o‘zining kotibiyatida iqtisodiy va ijtimoiy axborotlar va o‘tkazilgan siyosat tahlili tashkil qildi. Bu yangi organ, g‘oyalarni tahlil qilishiga va BMTning xalqaro tashkilotlar tizimida o‘tkazilgan siyosat natijalarini tahlil qilishga yordamlashish uchun ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlarni ishlab chiquvchi maxsus markazga aylandi. Shu bilan birga, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik atrof muhitning holati haqidagi ma’lumotlarini to‘plash asosida, shuningdek mamlakat aholisi va statistika sohasida texnik yordam ko‘rsatish bo‘yicha jahon rivojini tahlil qiluvchi hamma vazifalarni birlashtiruvchi muhim mexanizm yaratildi.

Har yili bu xalqaro axborotlar asosida BMTning umumjahon iqtisodiy-ijtimoiy tafsilotlari tayyorlanadi.

Yagona xalqaro statistika tizimi miqiyosida BMT SKning roli oshib bormoqda.

1993 yilda BMT SK milliy hisob-kitob ko‘rsatkichlarining xalqaro standart tizimini yangi variantini ishlab chiqdi(CNC-93).Bu standart butun milliy statistika ma’lumotlari tizimi uchun asos hisoblanadi va yagona metodologik axborotli asosda BMTda muhokama qilinadigan hududiy va ko‘plab zamonaviy global muammolarni hal qilish natijalarini miqdoriy o‘lchash imkoniyatini yaratadi. BMT SK yaratilishi bilan bir qatorda BMTning hududiy taftishlari vujudga keltirildi. Ular qatorida esa quyidagi hududiy statistiklar kengashi tashkil etilgan. Evropa uchun-evropa iqtisodiy

komissiyasi-EIT; Osiyo va Uzoq Sharq uchun-OUSHIT (hozir bu taftish Osiy va Okeaniya mamlakatlari uchun-OSKATO); Lotin Amerikasi uchun-LAIK; Afrika uchun-AIT; G'arbiy Afrika mamlakatlari guruhini ajratgan holda-GAIK. Ushbu hududiy komissiyalar kotibligida statistik bo'limlar tashkil qilingan. Bu bo'limlar mamlakatlar va hududlar haqida ma'lumotlar to'plash va hududlar sharoitida qo'llanadigan xalqaro statistika standartlarini joriy qilishga yordamlashish uchun hududiy statistika kengashlarining ijro etuvchi organi sifatida tashkil topgan.

BMT tizimida quyidagi maxsus muassasalar faoliyat yuritadi: Xalqaro mehnat tashkiloti-XMT; BMT savdo-sotiq va qishloq xo'jaligi tashkiloti-FAO; Xalqaro ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti-YUNESKO; Xalqaro fuqarolar aviatsiyasi tashkiloti-IKAO; Xalqaro sog'lijni saqlash tashkiloti-XXST; Xalqaro valyuta fondi-XVF; Xalqaro bank-XB; Xalqaro pochta ittifoqi-XPI; Umumjahon shaxsiy aqliy mehnat tashkiloti-UShAMT; Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik-MAGATE; Xalqaro savdo tashkiloti va boshqalar. Bu maxsus muassasalarda mutaxassislik sohalaridagi xalqaro standart loyihalarni tayyorlaydigan statistik xizmatlar mavjud. Bu hujjatlar BMT SK va EKOSOS da muhokama qilinib, ma'qullangach, xalqaro statistik standartlarga aylanadi va o'z sohasi bo'yicha mamlakatlardan olingan ma'lumotlar to'plash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ular BMT SK va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan mamlakatlar ma'lumotlariga bo'lgan bir xil talab ko'payishining oldini olish uchun ma'lumotlar almashadilar.

BMT tizimiga kirmaydigan va xalqaro ma'lumotlarni umumlashtirish bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar orasidan quyidagilarni aytish mumkin: Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti(IXRT), Evropa ittifoqi(EI), Afrika yagonaligi tashkiloti(AYAT), Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi(MDH) va boshqa qator tashkilotlar. Ularning barchasi ma'lum dastur asosida o'z a'zo mamlakatlarining statistik ma'lumotlarini va o'z tavsiyalariga mos kelgan holda ko'rsatkichlarni bir xil hisoblashni umumlashtiradi, yig'adi va nashr qiladi. Ularning tavsiyalari BMTning xalqaro statistik standartlariga asoslangan, mamlakatlardagi ko'rsatkichlar tizimi tarkibi taqqoslanishini ta'minlaydi.

Bir qator xalqaro tashkilotlar a'zo mamlakatlarning tor soha faoliylari haqidagi ma'lumotlarni umumlashtiradilar. Bunday tashkilotlar safiga kit ovlovchi korxonalar kengashi(KOKK) kiradi. Bu kengash hozirda mamlakatlarni dengizchilikka rioya qilishini nazorat qiladi. Shuningdek, yo'qolish xavfi bo'lmagan alohida sut emizuvchilar turini ovlashga kvotalar beradi. Hamma xalqaro tashkilotlarda, ularning statistik xizmatlarida bitta maqsad va vazifa bor – bu ular tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatkichlar tizimi tarkibini taqqoslanishini ko'rsatishdir.

Xalqaro tashkilotlar va mamlakatlarning alohida statistik xizmatlari amaliyotida bunday statistik ko'rsatkichlarning standartlashtirilgan tizimini va ularning yagona hisoblash usullarini joriy qilish xalqaro statistikaning mustaqil statistikasi bo'limida amalga oshiriladi.

Shunisi ravshanki, BMT tizimining yuqorida keltirilgan (va keltirilmagan) xalqaro tashkilotlarida, shu bilan birga BMTga kirmaydigan tashkilotlarda doimo xalqaro statistikaning katta hajmli ma'lumotlari ayriboshlanadi. Xalqaro tashkilotlar va alohida mamlakatlarning ma'lumotlari oqimini tartibga solish uchun BMTda bunday ma'lumotlar jahon munosabatining aniq chizmasi ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, BMT jahonning asosiy xalqaro statistik ma'lumotlar oqimlarini yo'nalishlarining maksimum darajada bir xillatishini bartaraf qilib, uni toplash, qayta ishslash, tarqatish harajatlarini kamaytirib tartibga solib turdi.

Bundan tashqari BMT o'tgan yarim asr ichida har xil mamlakatlarning ko'rsatkichlari tahlil ularning natijalarini ta'minlab, xalqaro statistik ma'lumotlar tarkibining muhim unifikasiyasini qo'lga kiritdi. Bunga BMTning xalqaro statistik tavsiyalarini ishlab chiqarish bosqichlarining ishlab chiqilgan tartiblari yordam berdi. Bu tavsiyalarini BMT SK talabnomalari asosida tajribalarda tayyorlanadi, keyin BMT SKda va mamlakatlarda muhokama qilinadi va EKOSOSga yakuniy muhokama va tasdiqlashga beriladi. Bundan keyin ushbu tavsiyalar BMTning rasmiy hujjaligiga aylanadi. Mazkur tartib hamma xalqaro statistik standartlar uchun majburiydir. Bu BMTning nashr qilinadigan statistik ma'lumotlarini maksimal darajada taqqoslanishini ta'minlaydi. 4.2 rasmida xalqaro statistik standartlarning ishlab chiqarish bosqichlari ko'rsatilgan. Unda ko'rsatilgan BMTning xalqaro statistik standartlarini ishlab chiqish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

Birinchi bosqichda, yangi yoki harakatda bo'lgan xalqaro tavsiyalarning mukammalligini ishlab chiqish, masalan: nomoddiy faoliyatlar ko'rsatkichlarini hisoblashda yangi standartlarni ishlab chiqish uchun talablar aniqlanadi.

Bunday vaqtida BMT SK majlisida yangi standartni tayyorlash masalasi echiladi va BMT SKga, BMTning o'sha hujjati bo'yicha taklifini tayyorlash uchun ekspertlardan tashkil topgan ishchi guruhini yaratish vazifasi yuklatiladi. Statistikaning umumiyligi muammolari bo'yicha ishchi ekspertlar guruhi mamlakatlar mutaxassislaridan tashkil topadi. Statistikaning alohida maxsus muammolarining loyihasi BMT tizimidagi maxsus muassasalar ekspertlari tomonidan tayyorlanadi. Ikkinci bosqichda, BMT SK ekspertlar taklifini to'playdi va umumlashtirib loyihami milliy statistika organlariga baho va mulohaza qilishga yuboradi. Uchinchi bosqichda, BMT SK ushbu tavsiya loyihasi bo'yicha aniq mulohazalarni olgandan keyin, u ushbu fikr, mulohaza va tuzatishlarni umumlashtirib BMT hujjatining yagona loyihasi shakliga keltiradi. To'rtinchi bosqichda, BMT SK bu fikr – mulohaza va tuzatishlarni BMT hujjatining loyihasiga kiritadi, shu bilan birga uni BMT SKga taqdim etadi. Besinchi bosqichda, BMT SKga taqdim etilgan BMT hujjatining loyihasini har tomonlama muhokama qiladi va zaruriyat paytida tuzatishlar yoki aniqliklar kiritadi. Shundan keyin hujjat loyihasi EKOSOSga topshiriladi. Oltinchi bosqichda, BMTning statistik standart tavsiyasi EKOSOSning majlislaridan birida ko'rib chiqib tasdiqlanadi va xalqaro tashkilotlar hamda mamlakatlarning statistik organlari qo'llaydigan BMTning rasmiy hujjatiga aylanadi.

BMTning uslubiy hujjati 6ta rasmiy tilda nashr qilinadi, shu jumladan rus tilida, birinchidan – bu BMTning M seriyali hujjati(metodologik), ya'ni BMTning standartlari va tavsiyalar; ikkinchidan – BMTning G' seriyali-alohida statistika bo'limlari bo'yicha metodologik tadqiqot hujjatidir.

BMTning katta nashrlaridan tashqari BMT tizimiga kirmaydigan boshqa xalqaro tashkilotlarning xilma-xil statistik nashrlari ham mavjud, lekin ular ma'lum darajada BMTning statistik standartlariga asoslanadi.


Butun xalqaro statistik ma'lumotlar nashri, taqqoslash asosida butunlay har xil mamlakatlarning rivojlanishga intilishi haqidagi muhim ma'lumotlar manbaidan tashkil topgan.

### **Hisobot va statistikaning xalqaro standartlari**

Xalqaro standartlar, har xil davlatlarda hisoblangan ko'rsatkichlarning taqqoslanishi uchun o'rnatiladi, ularning yordami bilan dunyodagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bir xil ta'rif-tavsif qilinadi va butun dunyo, hududlar, mamlakatlar bo'yicha natijalar chiqariladi.

BMTning bunday hujjatlariga avvalo, **milliy hisob-kitobchilik tizimi** kirdi. U 1951 yilda BMT SK ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va 1953 yil EKOSOSda tasdiqlangan. Hozir amaliyotdagi xalqaro MXT varianti bir necha yil davomida tayyorlandi, 1993 yilda u EKOSOSda tasdiqlandi va xalqaro tashkilotlar hamda davlatlarda amaliy qo'llash uchun tavsiya qilindi. Ushbu xalqaro standart, to'lov balansi bilan o'zaro bog'liqlik tarmoqlararo aloqalar jadvaliga va ishlab chiqarish omillarining nazariyasiga asoslangan bir xil ko'rsatkichlarini qo'llashni tartibga soladi.

### **Xalqaro statistika bo'yicha BMT tavsiyalarini ishlab chiqish chizmasi**



#### **4.1.1-rasm**

Chizmadagi sonlar ma'nosi: 1 – boshlang'ich so'rov; 2 – taklif loyihasi; 3 – davlatlar mulohazasi; 4 – ilk loyiha; 5 – komissiya loyihasi; 6 – BMT tavsiyasi.

Bunday ko'rsatkichlar tizimi yordamida mamlakatdagi qayta ishlab chiqarish jarayonlari va xo'jalik sektorlaridagi qayta ishlab chiqishda taklif-tavsiya qilinadi.

BMTning umum uslubiy hujjatlari qatoriga XVF mutaxassislari tomonidan tayyorlangan to'lov balansi tuzishni ko'rsatish mumkin. Uning 1993 yildagi beshinchi nashri uslubiy jihatdan MXT – 93 bilan o'zaro bog'langan. U mamlakatdagi har bir xo'jalik sektorida egalik qilayotgan sub'ektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatları natijalari ko'rsatkichlarini bir xil hisoblashga yordam berish uchun taklif qilingan.

Bunday muhim hujjat 1979 yilda milliy statistika fondlari tamoyillarini boshqarish hujjatlari hisoblanadi. Ularda 1993 yilda aniqlik kiritilgan va MXT –

93ning tarkibiy qismi bo‘lgan iqtisodiy harajatlar ko‘rsatkichlarini hisoblash usullarining asoslari bayon qilingan.

1)Har qanday faoliyatning xalqaro standart tasnifi – MSOK.

U xo‘jalik tarmoqlarining statistik ko‘rsatkichlarini guruhlashni tartibga soladi. O‘zbekistonda unga o‘xshash – OKONX, har bir holatda kirim kalitlari bilan MSOKga indekslar, mos keladi. U birinchi bo‘lib 1949yilda BMTda ishlab chiqildi va 1958, 1968 va 1990 yillarda tuzatishlar kiritildi.

2)Xalqaro standart savdo tasnifi – XSST. U birinchi marta 1951 yilda ishlab chiqilgan va 1961, 1968, 1975 va 1990 yillarda aniqliklar kiritilgan. 1953, 1961, 1987 yillarda indekslar bilan to‘ldirilgan.

3)1987 yilda BMTda yirik iqtisodiy guruhlarda tovarlar tasnifi ishlab chiqildi(YIGTT). Unda ishlab chiqarish vositalarini eksport-import uchun tovarlar, oraliq va iste’mol tovarlari aniqlanadi.

4)YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan, xalqaro standart ta’lim tasnifi 1974 yildan boshlab, uch asosiy ta’lim bosqichida o‘qiyotgan yagona guruhlar uchun foydalanilmoqda.

5)1958 yildan boshlab, MOTda ishlab chiqilgan xalqaro standart maslaklar tasnifi faoliyat yuritmoqda, unga bir necha marta tuzatishlar kiritilgan.

6)Xalqaro standart bandlilik tasnifi. U ham MOTda ishlab chiqilgan aholi bandligi turlarini ta’rif-tasnif qilish uchun foydalaniladi.

7)Xalqaro standart kasalliklar, o‘limlar va nogironlik tasnifi. U 1948 yilda VOZ tomonidan ishlab chiqilgan va sog‘liqni saqlash organlari joriy amaliyotini aks ettirish uchun bir necha marta tuzatish kiritilgan.

Odamlarning turli xil faoliyat yuritish sohalari bo‘yicha yana o‘nlab boshqa xalqaro tasniflar mavjud. Oxirgi vaqtda maxsus xalqaro turizm ko‘rsatkichlari tasnifi ishlab chiqilgan.

Ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqishni boshqarish xalqaro standartlari nihoyatda ko‘p ko‘rsatib o‘tilgan. Bu guruhda ko‘proq amaliy e’tibor BMTning statistik yilnomasiga uslubiy izohlar va uni to‘ldiruvchi BMTning yillik statistik ma’lumotlari berilgan. Xalqaro mehnat statistikasi va boshqa qator nashrlarga bir xil uslubiy izohlar beriladi. Umumjahon tadqiqotlarida aholini va turar joylarni ro‘yxatga olish, ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, savdo va hokazolarni tartibga solish haqida uslubiy ko‘rsatmalar asosiy rol o‘ynaydi. Statistika uchun BMT ST tavsiyalari va boshqarishlarida mos keladigan ko‘rsatkichlar hisobining usuli va tartibi kelajakdagagi kashfiyotlar va aniqlashlarni qo‘lga kiritdi. Qisman aholining tabiiy harakati; aholini ro‘yxatga olish tartibining tamoyil va tavsiyalari; uy-joylarda iste’molni baholash usuli; transport ishlarini baholash usullari va aniqlanishi, ko‘rsatkichlarni hisoblash tamoyillari mufassal ishlab chiqilgan. O‘xshash tavsiyalar BMT tizimining maxsus muassasalarida ham tayyorlandi. Shunday qilib, MOT bandlik va ishsizlik, ish haqi, ish vaqt, iste’mol baholarining indeksi, ishlab chiqarish falajligi, mehnat unumdoorligi va boshqa tarmoqlar statistikasi bo‘yicha tavsiyalarni nashr qiladi. FAO – qishloq xo‘jalik hisob-kitob balansini olib borish, alohida mahsulotlarning ko‘rsatkichlarini, qishloq xo‘jalik maydonlari, hosildorlik, alohida savdo-sotiq turlari oboroti balansini olib borish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqaradi va mukammallashtiradi. YUNESKO – maktab muassasalaridagi iste’mol

ko'rsatkichlarini; ta'lim harajatlarini, o'quvchilarning o'qishni tashlash sabablarini; ta'limni to'xtatishdan qilingan yo'qotishlarni; kitob chiqarishni va davriy nashriyot, fan-texnika rivojining ta'rif-tavsiyalarini hisoblab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqdi.

Oilalar byudjetlarini tanlanma tadqiq qilish, uy xo'jaligini tanlanma tadqiq qilish, turli xil statistik kuzatish ob'ektlarini ro'yxatga olish, «ishlab chiqarish harajatlari» jadvallarini tuzish va ularni tahlil qilish muammolari va hokazolar bo'yicha boshqarishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumot guruhlarida BMTning o'nlab xalqaro standartlari bor. Ularga quyidagi muntazam aniqlaydigan va yangilaydiganlarni belgilaymiz.

- ❖ Xalqaro o'lchamlar va vaznlar.
- ❖ Statistika uchun geografik hududlarning nomenklaturasi.
- ❖ Jahon mamlakatlari va millatlarning nomlari.
- ❖ Xalqaro standartlar ko'rsatkichlari.
- ❖ Jahonning bojxona zonalari.
- ❖ Xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan statistik ko'rsatkichlarning ro'yxati.
- ❖ Koeffisientlarning milliy o'lchov birligidan metr o'lchov birligida qayta hisoblash.
- ❖ Aholining tabiiy harakatini ro'yxatga olish usullari ma'lumotnomasi.
- ❖ Jahon statistik tashkilotlarining ma'lumotnomasi.
- ❖ Jahon maorif tashkilotlarining ma'lumotnomalari.

Hozirda statistika sohasi bo'yicha 150dan ortiq xalqaro standartlar qo'llanilmoqda. Ulardan 60tasi BMT Skda, qolganlari esa BMT tizimining maxsus muassasalarida ishlab chiqilgan. Bunday standartlar asosida mamlakatlar uchun BMTda maxsus so'rovnomalari tuziladi. Bu so'rovnomalarda xalqaro tashkilotlarni qiziqtiradigan tegishli ko'rsatkichlar bor va ular bo'yicha mamlakatlar tomonidan ma'lumotlar so'raladi.

Ushbu so'rovnomalarda xalqaro standartlarga mos ravishda bunday ko'rsatkichlarni qanday hisoblashning qisqa uslubiy tushuntirilishi mavjud. Bunday so'rovnomalalar yordamida BMTning statistik xizmatlari xalqaro statistik ko'rsatkichlar tizimida ishlab chiqilgan muhim ma'lumotlar yig'iladi. Uning xalqaro tashkilotlar tarmoqlari orqali o'tish yo'llari 4.1 rasmda ko'rsatilgan.

Statistika o'z ko'rsatkichlarini ma'lum darajada buxgalteriya hisoboti ma'lumotlariga asoslantiradi. Shuning uchun 1968 yilda BMT SK MXT tamoyillari bilan buxgalteriya hisoboti tamoyillarini o'zaro bog'lashga harakat qiladi. Xalqaro buxgalteriyalar uyushmasi: standart buxgalteriya qo'mitasi bilan (1973 yildan), buxgalterlarning xalqaro federasiyasi (1977 yildan), Evropa buxgalter-ekspertlari federasiyasi va boshqalar bilan aloqalar yo'lga qo'yilgan. Mana shu maqsadlar uchun 1982 yilda mamlakatlarning davriy aniqlanadigan xalqaro standartlar buxgalteriya hisobotini amaliyotda joriy qilishda yordamlashadigan xalqaro standart hisob-kitob bo'yicha BMTning hukumatlararo ekspert guruhi tuzildi. Hozirda MXT – 93 tamoyillariga asoslangan 30 tadan ortiq bunday standartlar kamchilik bilan faoliyat yuritmoqda. Bunday standartlar Fransiyada, umummilliy hisob rejasidir orqali yanada to'liq va muntazam joriy qilingan.

Buxgalteriya hisobotining xalqaro standartlarida uning muhim hisob bo‘limlari va ularning taqqosligi bo‘yicha mos ko‘rsatkichlar tarkibini bir xil tushunishni ta’minlaydigan muhim holati tartibga solinadi. Bu hisobotlarda hisobni shakllantirishning qattiq majburiyatlarisiz ishlab chiqish imkonini beradi. Barcha buxgalteriya hisoboti standartlarini quyidagi bo‘limlar bo‘yicha guruhlash mumkin:

- ❖ umumuslubiy;
- ❖ tashkilot faoliyatining umumiyo‘nalishini ta’rif-tavsif qiladigan;
- ❖ ularning alohida faoliyat turini ta’rif-tavsif qiladigan;
- ❖ mol-mulk va aktivlarning alohida turlarini hisobga oladigan;
- ❖ davlat subsidiyalari va ijtimoiy chegaralarini hisobga oladigan.

## **2.2. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatni tashkil etilishning asosiy tamoyillari**

Chet el mamlakatlarida statistik ma’lumotlarni jamlash, ularga ishlov berish, hamda tahlil qilish ishlari xizmatlar zimmasiga yuklangan. Tuzilish nuqtai-nazaridan ushbu statistik xizmatlar butunlay davlat tomonidan nazorat qilinadi yoki, ayrim vazirliklar, qo‘mitalar zimmasiga yuklangan.

Statistik xizmatlar markazlashgan, yoki markazlashmagan bo‘lishi mumkin. Statistik ishlarni markazlashgan holda olib borish G‘arbiy Evropa davlatlarida va Kanadada keng tarqalgan. Markazlashmagan statistik xizmatlar tizimi AQSH, Yaponiya, Fransiyada tashkil etilgan. Buyuk Britaniyada esa aralash tizim mavjud. Har bir statistik tizimning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud.

Markazlashgan holda olib boriladigan statistik ishlarni yagona dastur asosida olib borish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Markazlashmagan holda olib borilayotganda esa, har bir vazirlik, qo‘mita zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichki imkoniyatlaridan, talablaridan kelib chiqqan holda to‘playdilar.

## **2.3. Boshqa xalqaro tashkilotlarda statistik xizmatning tashkil etilishi**

Statistika bo‘yicha zarur bo‘lgan ma’lumotlarni jamlash ishi BMTdan tashqari boshqa bir qancha xalqaro tashkilotlar tomonidan ham olib boriladi. Shularning ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

### **1.Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti.**

Bu tashkilotning statistik faoliyati iqtisodiy harakterga ega bo‘lib, iqtisodiy siyosatni pul oboroti, atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari, soliqqa tortish, moliyaviy masalalar, ishchi kuchidan foydalanish, shuningdek, sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlar bo‘yicha ma’lumot to‘plashni qamrab oladi. Hozirgi vaqtida ushbu tashkilot 3ta asosiy iqtisodiy muammo bilan shug‘ullanadi:

- 1)milliy hisoblar tizimini o‘zaro taqqoslash;
- 2)ish haqi masalalari;
- 3)mehnat resurslari.

2.Evropa iqtisodiy hamjamiyati(EES). Iqtisodiy statistika faoliyati ushbu tashkilot faoliyati o‘zgarib borgani sayin takomillashib va rivojlanib bordi. Hozirgi vaqtida bu tashkilot faoliyati barcha iqtisodiy tarmoqlarni qamrab olgan.

3.Xalqaro statistika instituti – bu nodavlat tashkilot bo‘lib, statistik metod va usullar rivojlanishi va takomillashishi bo‘yicha olib boriladigan ishlarni muvofiqlashtiradi. Ushbu institut 1885 yili statistik olimlarning xalqaro asotsatsiyasi ko‘rinishida yuzaga kelgan.

Xalqaro statistika va statistika fanlarining rivojlanishida xalqaro statistika instituti(XSI) muhim rol o‘ynagan. U 1885 yilda 50ta mamlakat statistik organlari amaliyotidagi xodimlari va fan namoyondalarini jipslashtiruvchi sof ilmiy tashkilot sifatida yaratilgan edi. XSI nizomiga binoan, bu tashkilotning asosiy vazifasi turli mamlakatlarning statistik ko‘rsatkichlarini taqqoslash uchun tavsiyalarni tayyorlash yo‘li bilan jahon mamlakatlarida statistik usullarini rivojlantirish va mukammallashtirishdir. Shuningdek, XSI mamlakatlar bo‘yicha umumlashtirilgan materiallarni to‘plash va nashr qilish bilan ham shug‘ullangan. XSIning keyingi yillarda matematik usullarni to‘plash va nashr qilish bilan ham shug‘ullangan.

Keyingi yillarda xalqaro statistika rivojlanishi Millatlar Ligasi statistika organlari chegaralarini iqtisodiyot va moliya bo‘limida vujudga keldi. Bu bo‘lim XSI yordami bilan xalqaro statistika ko‘rsatkichlari tizimining amaliy asoslarini ishlab chiqdi. Bunday ko‘rsatkichlarning milliy statistika organlari tomonidan bir xil hisoblanishi uchun tamoyil va tavsiyalarni ta’riflab berdi. Milliy ittifoqi bilan bir qatorda boshqa xalqaro tashkilotlar: Rim agrar instituti, xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta va telegraf ittifoqi kabilar va o‘zining statistik xizmatlari bo‘lgan qator boshqa tashkilotlar ham ishtirok etgan edi.

Statistika bo‘limi bilan birga BMT SK, o‘zining statistik xizmatlarida bo‘lgan 230tadan ortiq mamlakatlar va hududlarni birlashtirib butun dunyoning statistik ishlarini tashkil qilmoqda. Shuningdek, ikki mingga yaqin turli xil xalqaro tashkilotlarning statistik ma’lumotlarini ham tashkil qilmoqda. Bu vaqtida XSI faoliyati statistik ko‘rsatkichlarni bir xil hisoblash usullarini va umum yaroqli tasniflar; turli xil mamlakatlar statistika xizmatlarining o‘zaro amaliy va ilmiy malakalar almashishini ishlab chiqishda ko‘maklashishiga qaratilgan bo‘ladi. XSI faoliyatining markazida muntazam sessiyalar turadi. Bu sessiyalarda butunlay boshqa ijtimoiy va iqtisodiy statistika muammolari, matematik statistikani qo‘llash va boshqalar bo‘yicha ma’ruzalar tinglanadi va muhokama qilinadi. Oxirgi yillarda XSIda xalqaro statistika muammolari bo‘yicha statistika xizmatlari boshqarmalari uchun amaliyotlar olib borildi. 1996 yilda evropalik statistiklar uchun seminar olib borildi. Bu seminarda Niderlandiya statistika byurosi faoliyati, tajribasi, shuningdek, ma’lumotlarini mukammallashtiruvchi xalqaro statistik xizmatlarning roli haqida fikr almashuvlar joy olgan edi. XSI prezidenti va evrostat direktorlari ma’ruzalari ko‘rib chiqildi. Kal’kutta, Bombey, Beyrut, Qohirada XSI byudjetining uchdan ikki qismi sarflanadigan XSIning o‘quv markazlari mavjud. Bu markazlarda statistikaning turli xil soha mutaxassislari, Afrika va Osiyo mamlakatlarining statistiklari qayta tayyorlanadi.

O‘tgan asrning 90 – yillarida XSI, xalqaro statistikani uning aniqligi, o‘z vaqtida taqdim etgan va qulaylik, maxfiylikni ta’minlash kabi turli xil muammolar bo‘yicha maxsus kengashlar o‘tkaza boshladi. Uning faoliyati deyarli milliy va xalqaro tashkilotlar bilan bog‘liq. XSIning BMTga kirmaydigan ixtisoslashgan muassasalari ZKOSOS va YUNESKOda maslahatchilik mavqeiga ega. XSI muntazam BMTning

SK faoliyatida qatnashadi. XSI muntazam xalqaro statistika ma'lumotlarini nashr qiladi, o'zining majlislari materiallarini bosmadan chiqaradi, ma'lum ko'rsatkichlar dasturi bo'yicha jahonning yirik shahar yilnomalarini bosmadan chiqaradi, XSIning ustaviga ko'ra rivojlanayotgan davlatlarga statistika metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan, turli statistik ishlar borasida kadrlar tayyorlash sohasida to'plangan ma'lumotlarni qayta ishslash, ularni to'plam ko'rinishida chop etishga yordam beradi. Bulardan tashqari, statistika ishini olib borish quyidagi xalqaro tashkilotlarda ham yo'lga qo'yilgan:

- ❖ xalqaro ekonometrika jamiyatida;
- ❖ xalqaro siyosiy fanlar asossasiyasida;
- ❖ aholi nufuzini o'rganish xalqaro ittifoqi;
- ❖ xalqaro Afrika institutida;
- ❖ amerika statistik institatlarda va boshqa joylarda olib boriladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro miqyosda statistik ma'lumotlar to'plash ishi:

- 1)Xalqaro tashkilotlar qoshidagi statistik bo'limlar;
- 2)Milliy statistik xizmatlar tashkilotlari zimmasiga yuklangandir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari.
2. BMT qoshidagi Statistika Komissiyasi faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
3. Xalqaro statistika instituti faoliyati.
4. Evrostat faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Chet el mamlakatlarida statistik xizmatning tashkil etilishi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Доклад о мировом развитии 2000-2001 гг. Борьба с бедностью. – Всемирный банк. Вашингтон, округ Колумбия. 2000.
2. Социально – экономическая статистика. Под ред. В.Н.Салина. Практикум. – М., 2004.
3. Доклад о развитии человеческого потенциала в странах Европа и СНГ. – М., ПРООН, 2002.
4. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикаси: Ўкув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)

### **III bob. XALQARO STATISTIKADA QO'LLANILADIGAN MUHIM TASNIFLAR VA GURUHLASHLAR**

- 3.1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi.
- 3.2. Ish faoliyatlarning xalqaro tasnifi.
- 3.3. Xalqaro savdo tasnifi.

#### **3.1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi**

Ilk bor statistik ma'lumotlarni yagona tasnifini tuzish bo'yicha harakatlar XVIII asr o'rtalarida amalga oshirilgan edi. Avstriya olimlari 1857 yili ishlab chiqarish tarmoqlarini nazariy jihatdan 8 guruhga va 34 sinfga bo'lishni taklif qildilar. Afsuski ularning bu nazariy fikrlari amaliyotda o'z tatbiqini topmadi. 1895 yili ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat shakllarini tayyor mahsulot olish uchun hom ashyoga texnologik ishlov berish usullarini bog'lash imkoniyatlari topildi. Ushbu bog'lanish quyidagi sxemaga asoslangan edi.

A guruhi. Hom ashyo ishlab chiqarish.

#### **I. Er ustidan foydalanish**

1. Qishloq xo'jaligi
2. Baloqchilik va ovchilik
3. Ko'chmanchilik

#### **II. Minerallar qazib olish**

B guruhi. Hom ashyoga ishlov berish va undan foydalanish.

#### **I Sanoat**

II Transport

III Savdo, banklar, sug'urta tashkilotlari

V guruhi. Ijtimoiy tashkilotlar va erkin mutahassisliklar.

#### **I Harbiy kuchlar**

II Boshqarish

III Erkin mutahassisliklar

IV Daromadlar hisobiga yashovchi shahslar

V Hizmatkorlar

Xalqaro statistik tasniflarni tuzishga Millatlar Ligasi tomonidan tuzilib 1925 va 1938 yillarda taqdim etilgan tasnif shemalari ham katta hissa qo'shdi.

1948 yili BMT Statistika komissiyasining yangi tasnifini ishlab chiqdi. Ushbu tasnif Xalqaro standart tasnif asosini tashkil etib, hozirgi kunga qadar foydalanib kelinayotgan jahon kodirovkalariga asos solgan.

Iqtisodiy faoliyat tarmoqlari tasnifi masalasi chet el iqtisodchilarini yaqin 10-15 yil ichida, ayniqsa qattiq qiziqtira boshladi. Hozirgi vaqtida BMT ning statistika byurosi tomonidan taqdim etilgan tasnif qo'llanib kelinmoqda. Ushbu tasnif ungacha qo'llanilgan tasniflardan unchalik farq qilmay, asosan chet el mamlakatlarida qo'llanib kelinayotgan tasniflarni uzaro muvofiqlashtirish, bir asosga keltirish natijasida yuzaga kelgan.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarining va tarmoqchalarining tasnifi bir turdag'i korxonalar o'rtaсидаги aloqalarni analitik оrganishni hamda ishlab chiqarishning bevosita iqtisodiy, tehnologik va boshqa jarayonlarni chuqurroq оrganishga qaratilgan. Xalq

xo‘jaligi tarmoqlarini o‘rganish tasnifi asosiga nima qo‘yilishi asosiy masala hisoblanadi. Masalan, sanoatning tarmoqqa ajralishiga asos qilib nimani olish kerak? Qanday belgi tasnif asosini tashkil qilishi kerak? Unda quyidagi 3 holatni keltirish mumkin:

1. Hom ashynoning boshlang‘ich shakli. Masalan, barcha metallga ishlov beruvchi korxonalar metallurgiya tarmog‘iga va shu kabi ko‘nchilik sanoati, tamaki sanoati, oziq-ovqat sanoati va boshqalarni tashkil etadi.
2. Mahsulotning iste’mol qiymati bo‘yicha tasniflash. Masalan, qishloq xo‘jaligi, transport mashinasozligi, quroq-aslaha ishlab chiqarish.
3. Tehnologik ishlov berish jarayonlari.

Bu belgiga asosan sanoat tarmog‘i, qazib chiqarish va ishlov berish tarmoqiga bo‘linishi mumkin. Shuningdek, to‘qimachilik, ximiya, metallurgiya sanoati ham shu belgi asosida yuzaga keladi. BMT ning 1993 yili qabul qilingan ohirgi tahriridagi tasnifiga ko‘ra, xalqaro tarmoqlar tasnifi 9 ta yirik bo‘limdan iborat.

- 1) Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi, ovchilik va baliqchilik.
- 2) Tog’-kon sanoati.
- 3) Ishlov berish sanoati.
- 4) Elektroenergiya ishlab chiqarish, gaz ishlab chiqarish, suv ta’minoti va sanitariya hizmati.
- 5) Qurilish.
- 6) Transport, aloqa va omborxona xo‘jaligi.
- 7) Moliya, sug‘urta.
- 8) Davlat kommunal va shaxsiy xizmat ko‘rsatish.

### **3.2. Ish faoliyatlarning xalqaro tasnifi**

Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi BMT ning xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan olib borilgan ko‘p yillik izlanishlar natijasi bo‘lib, 1993 yili to‘ldirilgan yangi tahrirda e’lon qilindi. Xalqaro faoliyatlar standart tasniflari asosiga «Faoliyat turi belgisi» asos qilib olindi. Faoliyatlar xalqaro standart tasnifning asosiy amal qiluvchi guruhlari quyidagilardir:

1. Boshqaruv va ma’muriy xodimlar.
2. Intellektual va ilmiy xodimlar.
3. Oraliq kasblar (tehniklar, operatorlar, kichik tibbiyot xodimlari, diniy muassasalar xodimlari).
4. Ma’muriy personal (Sekretarlar, g‘aznachilar, devonxona xodimlari, xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar).
5. Savdo xodimlari.
6. Qishloq xo‘jaligi xodimlari, baliqchilar, o‘rmonchilar.
7. Hunarmandlar va yordamchi xodimlar (quruvchilar, shaxtyorlar va hokazolar).
8. Mashina va uskunalar operatorlari.
9. Malakasiz xodimlar (qarovullar, yuk tashuvchilar, ko‘chada savdo qiluvchilar va x.k.).
10. Harbiylar.

Yuqoridagi yiriklashtirilgan guruhlardan 2-darajali 84 ta guruh, 3-darajali 384ta kichik guruhchalar va 1506 ta mayda guruhchalar 5500 ta faoliyat turlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ushbu guruhlarni tuzishda ayrim noaniqliklar mavjud. Masalan, buxgalterlar 1-guruhga, hisobchilar 4-guruhga kiritilgan va shunga o‘xhash noaniqliklar uchrab turadi. Shu sababli ushbu tasnif ham bir qancha o‘zgartirishlar kiritishga muhtoj. Ushbu tasnifni amalga oshirishda aqliy va jismoniy kasb vakillarini ajratish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi xodimlar guruhida fermerlar va qishloq xo‘jaligi korxonalarini boshqaruvchilar bir guruhga birlashtirilganlar. Bu ham bizning fikrimizga to‘g‘ri emas. Shunga o‘xhash ayrim noaniqliklar boshqa guruhlarda ham mavjud.

### **3.3. Xalqaro savdo tasnifi**

Xalqaro savdo tasnifi boshqa tasniflarga qaraganda bir munkha keng va batafsil tuzilgan. Uning asosiy sababi savdo tasnifining har bir mamlakat bojxona siyosati bilan bog‘liqligidir. Tashqi savdoda tovarlar assortimenti keng bo‘lib, u erda oziq-ovqat mollari bilan ishlab chiqarish vositalari ham mavjud. Savdo tasnifini amalga oshirishda tovarlar tasnifi bilan xalq xo‘jaligi tarmoqlari tasnifini muvofiqlashtirish zarur. Agar tovarlar tasnifi asosiga tarmoq belgisi bilan mos tushmaydigan belgi asos qilib olinsa, u holda ma’lumotlarni taqqoslashda bir qancha qiyinchiliklar yuzaga keladi. Mahsulotlarni ilmiy nuqtai-nazardan tasniflashda ularning iste’mol qiyamatlaridan kelib chiqiladi. Ayrim hollarda ularning tarkibi ham hisobga olinadi. Ularni iqtisodiy tasniflashda mahsulotlarning kimyoviy tarkibi, moddiy tarkibi ham hisobga olinadi. Ayrim hollarda iste’mol qiymati belgisi tasnif asosini tashkil etuvchi belgi sifatida ularning tarmoqqa bo‘linishini ifodalab bera olmaydi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari sanoat tarmog‘ida ham, qishloq xo‘jaligida ham ishlab chiqarilishi mumkin. Tarmoqlar va mahsulotlar tasnifining bir-biriga mos tushmasligini tashqi savdo nomenklaturasida mavjud bo‘lgan paxta va paxta chiqindilari misolida ham ko‘rish mumkin. Paxtani qishloq xo‘jaligi yoki sanoat mahsulotiga kiritish mumkin. Tashqi savdo oborotiga paxta chigitdan tozalangan holda kiritiladi. Bunday tozalash avvallari qishloq xo‘jaligida amalga oshirilgan bo‘lsada, keyinchalik paxta tozalash korxonalarida amalga oshirila boshlandi. Birinchi holda paxta qishloq xo‘jaligi mahsuloti, ikkinchi holda esa sanoat mahsuloti deb hisoblanadi. Bunga o‘xhash muammolar xaligacha uchrab turadi. 1993 yili BMT statistika qo‘mitasi tomonidan xalqaro standart savdo tasnifining uchinchi matnini tasdiqlaydi. Ushbu tasnifga ko‘ra quyidagi yirik bo‘limlar mavjud:

1. Oziq-ovqatlar (10 ta guruhga bo‘linadi).
2. Ichimliklar va tamaki mahsulotlari (2 guruhga bo‘linadi).
3. Birlamchi hom ashyo (yoqilg‘idan tashqari 9 guruh).
4. Yoqilg‘i va moylash materiallari.
5. O‘simlik va hayvon yog‘lari (7 guruhga).
6. Kimyo mahsulotlari (9 guruhga bo‘linadi).
7. Sanoat yarim fabrikatlari (9 guruhga bo‘linadi).
8. Mashinasozlik va transport vositalari mahsulotlari (8 guruhga bo‘linadi).
9. Ishlov berish sanoatining boshqa mahsulotlari (8 guruhga bo‘linadi).
10. Yuqorida nomlari qayd etilmagan tovarlar.

Yuqoridagi tasniflardan tashqari xalq xo‘jaligi tarmoqlarini, iqtisodiyotni o‘rganish bo‘yicha tasniflash va guruhlash amalga oshiriladi.

1. Mulk shakllari bo‘yicha guruhlash.
2. Boshqaruv darajasi bo‘yicha guruhlash.
3. Vazirlik va muassasalari bo‘yicha guruhlash.
4. Ijtimoiy-jo‘g‘rofik iqtisodiy hududlar bo‘yicha guruhlash.

### **Qisqacha xulosalar**

TIF statistikasida qo‘llaniladigan eng muhim tasniflar va guruhlashlar quyidagilar:

- 1) Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi.
- 2) Ish faoliyatlarining xalqaro tasnifi.
- 3) Xalqaro savdo tasnifi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy faoliyat tarmoqlarining xalqaro tasnifi.
2. Iqtisodiy faoliyatlarning xalqaro tasnifi.
3. Xalqaro savdo tasnifi.
4. Xalqaro statistikada qo‘llaniladigan muhim tasnifilar hamda guruhlashlar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Дубянская Г.Ю. Экономика – статистический анализ заработной платы в России. 1991-2000 гг. – М., 2003.
2. Социально – экономическая статистика / Под ред. В.Н.Салина. Практикум. – М., 2004.
3. Хартли Алик. Статистика / Первая книга. – М., 2004.
4. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикиси. Ўкув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
5. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
6. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
7. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
8. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **IV bob. XALQARO AHOLI STATISTIKASI**

- 4.1. Chet ellarda aholi soni statistikasi.
- 4.2. Aholining harakat ko‘rsatkichlari.
- 4.3. Chet elda aholi tarkibini o‘rganish.
- 4.4. Aholining kelajakdagi sonini aniqlash.

### **4.1. Chet ellarda aholi soni statistikasi**

Har bir jamiyatda aholi to‘g‘risida to‘la va aniq ma’lumotlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotni rejalashtirishda asos qilib olinadi. Davlat rejalashtirish organlari xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari ishini to‘g‘ri tashkil qilish uchun jamiyat barcha a’zolarining o‘sib borayotgan talablarini inobatga olishlari zarur.

Prezidentimiz I.A.Karimovning 2005 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagagi majlisida so‘zlagan “Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab ulkan marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim” mavzusidagi ma’ruzasida O‘zbekiston iqtisodiyoti 2005 yilda yuz bergan sifat o‘zgarishlar qatorida iqtisodiyotning makroiqtisodiy balansliligini, umuman, iqtisodiy o‘sishning lokomativlariga aylanishi, demografik xususiyatlar, ish bilan ta’minlash, aholi daromadlarining ko‘payishi va hokazolar<sup>1</sup> bilan bog‘liq muammolarni hal etishi lozim bo‘lgan sohalar, tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni jadal rivojlanadirish lozimligini ta’kidladi. Ushbu ijobjiy yutuqlar demografik jarayonlarni jadal sur’atlar bilan ijobjiy rivojlanishiga imkon yaratadi.

Aholining soni, tarkibi va joylashishi to‘g‘risidagi aniq hamda mufassal ma’lumotlarga ega bo‘lmasdan turib butun mamlakatning hamda ayrim viloyat, tuman va shaharlarning iqtisodiy hamda madaniy hayotini ilmiy jihatdan asoslangan joriy va kelgusi rejasini tuzish mumkin emas.

Statistika aholini o‘rganishni uning sonini aniqlashdan boshlaydi. Vaqtiga vaqt bilan o‘tkazilib turiladigan aholi ro‘yxati va aholining tabiiy o‘zgarishi va uning ko‘chib yurishi (migratsiyasi) aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

Aholi hisobi doimo amalga oshiriladi. Inson tug‘ilgach, maxsus tartibda ro‘yxatdan o‘tkaziladi va unga tug‘ilganlik hag‘ida guvohnoma beriladi. Bolalar bog‘chalari, maktablar, oliy o‘quv yurtlari, muassasalarda, saylov mavsumida, harbiy xizmatga chaqirish davrlarida aholi hisobga olinadi. Binobarin, inson davlatning asosiy boyligi va asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Birorta davlat ham aholi ro‘yxatini o‘tkazmasdan turib, aholi haqida aniq ma’lumotga ega bo‘la olmaydi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarish va rejalashtirish, aholiga har tomonlama xizmat ko‘rsatish uchun aholi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lishi lozim. Binobarin, aholini ro‘yxatga olish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim ish hisoblanadi.

<sup>1</sup> И.Каримов. Ўзбекистон Республикасининг 2005 йилдаги ижтимоий-иктисодий ривожланиши натижалари ҳамда 2006 йилнинг асосий иктиносидий йўналишлари тўғрисида нутқи. 2006 йил 11 феврал. Халқ сўзи газетаси.

Aholi ro‘yxati – ilmiy asosda tashkil etilgan statistik faoliyat bo‘lib, uning maqsadi – aholi soni, tarkibi va joylashishi haqidagi ma’lumotlarni olishdan iborat. Aholini ro‘yxatga olishning o‘ziga xos birinchi xususiyati shundan iboratki bunda mamlakatning hamma hududi davlatning hamma aholisi, hech qanday cheklashlarga yo‘l qo‘ymay qamrab olinadi.

Aholi ro‘yxatini o‘tkazishning ikkinchi xususiyati – aholi tarkibi haqidagi ma’lumotlarni olishdir. Demak, bunda aholi bo‘yicha qandaydir belgilarni aniqlab olish mumkin. Bular aholi ro‘yxatini o‘tkazish davrida qayd etilgan bo‘ladi.

Ro‘yxatga olishning uchinchi xususiyati uni o‘tkazish dasturining hamma aholi uchun bir xil bo‘lishi hisoblanadi. Ammo barcha aholi haqida ma’lumotlarni biz har bir inson bo‘yicha olamiz, so‘ngra ularni guruh va guruhchalarga bo‘lib o‘rganamiz.

Ro‘yxatga olishning to‘rtinchi xususiyati shundaki, unda ma’lumotlar individlar bo‘yicha alohida - alohida olinadi.

Beshinchi xususiyati – ma’lumotlar hujjat yoki ro‘yxatlar bo‘yicha emas, balki shaxsning o‘zidan olinadi.

Har bir alohida inson haqida ma’lumot bir xil savolnomalar bo‘yicha olinishi, markazlashtirish tamoyiliga rioya qilinishi aholini ro‘yxatga olishni o‘tkazishning oltinchi xususiyati hisoblanadi. Bu tamoyil dasturning bir xillagini ta’minalash, undagi savol-javoblarni bir xil yo‘sinda tushuntirish, olingan ma’lumotlarga bir xil ishlov berish va bir xil jamlash imkoniyatini yaratadi.

Ro‘yxat aholi haqida aniq ma’lumotlarni berishi lozim. Ro‘yxatga olishda ro‘yxatdan tushib qolgan yoki ikki marta hisobga olingan shaxslar bo‘lmasligi kerak. To‘liq hisob ro‘yxatga olinayotgan vaqt bilan chambarchas bog‘liq. Ro‘yxatga olish o‘tkazilayotgan vaqtda qaerda bo‘lishiga qarab, aholini doimiy yashaydigan va mavjud aholiga ajratiladi. Aholi yashaydigan har bir hudud aholisi shu erda doimo yashaydigan va vaqtincha yashaydigan aholidan tashkil topadi. Mavjud aholiga shu hududda doimo yashayotgan, lekin ro‘yxatga olish o‘tkazilayotgan vaqtda boshqa hududda bo‘lgan, ya’ni u erda vaqtincha yashayotgan kishilar ham kiritiladi.

Demak, yashash joyida vaqtincha yo‘q bo‘lganlar boshqa hududda olti oydan uzoq yashashi mumkin emas. Boshqa hududda olti oydan ortiq yashayotganlar doimiy aholisi tarkibiga kiritiladi. Tegishli hududda rasman olti oydan ortiq yo‘q bo‘lganlar, umuman, ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Ro‘yxatga olishda talabalar, o‘quvchilar, harbiy xizmatga chaqirilganlar, ozodlikdan mahrum etilganlar bu shartlardan istesno etiladi.

Binobarin, doimiy yashayotgan joyida vaqtincha yo‘q bo‘lganlar ikki marta: doimiy yashaydigan joyida vaqtincha yo‘q bo‘lganlar hisobida, ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda esa mavjud aholi sifatida ro‘yxatdan o‘tkaziladi, lekin vaqtincha yashayotganlar hisobida e’tiborga olinmaydi. Barcha aholining ikki toifasi hisobga olinadi, chunki har bir shaxs ham mavjud aholiga, ham doimiy aholi toifasiga kiritiladi. Bu aholi hisobini ikki variantda tekshirish imkoniyatini yaratadi: mavjud va doimiy variantlarda. Bu ikki toifani hisobga olish hisobning anqlik darajasini oshiradi, ayrim shaxslarning hisobdan tushib qolish hollarini kamaytiradi.

Mavjud va doimiy aholi hisobga olinayotgan mamlakatlarda, bu ikki son orasidagi farqdan ro‘yxat olishni ifodalovchi ko‘rsatkich sifatida foydalilaniladi. Odatda, doimiy aholi soni mavjud aholi soniga nisbatan kam bo‘ladi.

Aholini ikki marta hisobga olish turli maqsadlar uchun qo‘llaniladi. Boshqarish va rejalashtirish uchun bu boradagi ikkala ko‘rsatkichdan ham foydalaniladi: savdo tarkibi va umumiy ovqatlanish sohasini rejalashtirish uchun mavjud aholi soni e’tiborga olinadi. Uy-joy, kommunal xizmati va xalq ta’limi muassasalari ishini rejalashtirishda esa doimiy aholi soni aniqlanadi. Bu ikki ko‘rsatkich orasida quyidagicha bog‘lanish mavjud:

$$DA = MA - VYa + VY;$$

$$MA = DA + VYa - VY.$$

Bu ikkala ko‘rsatkichga aniqlik kiritish maqsadida ro‘yxatga olish vaqtida tekshiruv blankasi tuziladi va unda so‘roq varaqasi dasturi to‘liq qaytariladi. Bir vaqtning o‘zida ro‘yxatga olinuvchining doimiy yashaydigan joyi ko‘rsatiladi. Tekshiruv blankasi faqat tekshiruv maqsadini ko‘zlaydi. Tekshiruv vaqtida muayyan shaxs doimiy yashaydigan joyida ro‘yxatdan to‘g‘ri o‘tkazilgan bo‘lsa, tekshiruv blankasi yo‘qotiladi. Agar tekshiruv blankasi doimiy aholi hisobga olinmaganini ko‘rsatsa, u holda ma’lumotlar haqida tanlash imkonini yaratadi.

Avval hisobga olish ro‘yxatda mavjud va doimiy aholidan tashqari yuridik aholi ham hisobga olingan. Yuridik aholi – shu joyda ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan aholi hisoblanadi. Lekin ba’zi hollarda doimiy va yuridik aholi o‘rtasidagi farq yo‘q bo‘lib ketadi, chunki ularning doimiy yashash joyini aniqlash ancha qiyin bo‘lib qoladi.

#### 4.1.1 – jadval

##### O‘zbekiston doimiy aholi soni (yil boshiga), ming kishi<sup>1</sup>

	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.
Jami aholi	2511 5,8	2545 7,9	2570 7,4	2602 1,3
shu jumladan:				
Ayollar	1259 4,7	1274 3,4	1287 6,0	1302 7,7
Erkaklar	1252 1,1	1268 4,5	1283 1,4	1299 3,6
Shahar aholisi	9286, 9	9340, 7	9381, 3	9441, 9
shu jumladan:				
Ayollar	4696, 6	4719, 6	4736, 0	4764, 1
Erkaklar	4590, 3	4621, 1	4645, 3	4677, 8
Qishloq aholisi	1582 8,9	1608 7,2	1632 6,1	1657 9,4
shu jumladan:				
Ayollar	7898, 1	8023, 8	8140, 0	8263, 6
Erkaklar	7930, 8	8063, 4	8186, 1	8315, 8
	Jami aholi sonida ayollar va erkaklar salmog‘i, foizda			
Jami aholi	100,0	100,0	100,0	100,0

<sup>1</sup> Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. – Т., 2006, с. 27.

shu jumladan:				
Ayollar	50,1	50,1	50,1	50,1
Erkaklar	49,9	49,9	49,9	49,9
Shahar aholisi	100	100	100	100
shu jumladan:				
Ayollar	50,6	50,5	50,5	50,5
Erkaklar	49,4	49,5	49,5	49,5
Qishloq aholisi	100	100	100	100
shu jumladan:				
Ayollar	49,9	49,9	49,9	49,8
Erkaklar	50,1	50,1	50,1	50,2

4.1.1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, Respublikada doimiy aholi soni 2002 yil boshida 25115,8 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2005 yil boshida 26021,3 ming kishini tashkil etgan bo'lib, 3 yilda 905,5 ming kishiga yoki 103,6 % ortgan. Aholi jinsi bo'yicha ko'rib chiqsak, u holda ayollar soni dinamikada 103,43 % ga ( $\frac{13027,7}{12594,7} \cdot 100$ ) va erkaklar soni 103,77 % ga ( $\frac{12993,6}{12521,1} \cdot 100$ ) ortgan. Yoki mutlaq ko'rsatkichda mos ravishda 433,0 ming kishiga va 472,5 kishiga ortgan. Demak, respublika aholi tarkibida erkaklar salmog'ining ortib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Aholining tabiiy o'zgarishini, tug'ilgancharni va o'lgancharni, nikohdan o'tgan va ajralishlarni fuqarolik holatini qayt qilish (FHKK) organlari hisobga oladi.

Joriy hisob asosida aholining tarkibi to'g'risida to'la va mufassal ma'lumot olib bo'lmaydi. Aholining tarkibi to'g'risidagi boshqa muhim ma'lumotlar aholining oilaviy holati, millati, ona tili, hayot kechirish omillari, xalq xo'jalik tarmoqlari va mashg'ulotlari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida muhim ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazilgandagina olinishi mumkin.

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida 7 marta aholi ro'yxati o'tkazildi(1920, 1926, 1939, 1959, 1970,1979 va 1989 yillarda).

1989 yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra O'zbekistonda 19905 ming kishi yashagan bo'lsa, 2005 yili (1.01 da) esa 26021,3 ming kishi istiqomat qilgan.

Aholi sonini ifodalash maqsadida ro'yxat o'tkazish jarayonida doimiy va mavjud, vaqtincha yo'qlar va vaqtincha yashovchilar soni aniqlanadi.

$$DA = MA + VY - VYa$$

$$MA = DA + VYa - VY$$

Bu erda DA – doimiy aholi soni; MA – mavjud aholi soni; VI – vaqtinchalik yo'qlar; VYa – vaqtinchalik yashovchilar.

Doimiy aholi deganda, ro'yxat o'tkazilayotgan sanada mazkur aholi punktida doimiy yashovchi aholini tushunamiz.

Mavjud aholi deganda, ro'yxatga olish vaqtida (yashash joyi doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishidan qat'iy nazar) mazkur aholi punktida bor (mavjud) bo'lgan aholi tushuniladi.

Aholining o'rtacha yillik sonini aniqlashda turli formulalar qo'llanishi mumkin:

1. Agar aholi soni faqatgina yilning boshi va oxiri uchun keltirilgan bo'lsa, u holda aholining o'rtacha soni quyidagicha hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{A_0 + A_1}{2},$$

bu erda  $A$  – aholining o‘rtacha soni;  $A_0$  – yil boshidagi aholi soni;  $A_1$  – yil boshidagi aholi soni.

2. Agar aholi soni bir yil ichida oylar bo‘yicha teng intervallarda keltirilgan bo‘lsa, u holda aholining o‘rtacha soni xronologik formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{0,5A_1 + A_1 + A_2 + \dots + A_{n-1} + 0,5A_n}{n-1},$$

1. Agar aholi soni bir yil ichidagi oylar bo‘yicha teng bo‘lmagan intervallarda keltirilgan bo‘lsa, u holda aholining o‘rtacha soni o‘rtacha tortilgan arifmetik formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{A} = \frac{\sum A_t}{\sum t}$$

Aholining haqiqiy soni MDH davlatlarida, ayniqsa, Kavkaz davlatlarida rasmiy ma’lumotlarga qaraganda past, sababi aholining ko‘p qismi chet ellarga pul ishslash istagida emigratsiya qilganlar.

Demak, yuqoridagi jadval bo‘yicha tahlil qilganimizdan so‘ng quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz.

#### 4.1.2-jadval

#### **MDH davlatlari va O‘zbekiston Respublikasi aholi soni, yil boshiga, mln. kishi**

Mamlakatlar	1991 yil	2004 yil
Rossiya	148,5	145,2
Ukraina	51,9	49,3
O‘zbekiston	20,7	24,9
Qozog‘iston	16,8	14,8
Belorussiya	10,3	10,0
Ozarboyjon	7,1	8,1
Gruziya	5,5	5,3
Tojikiston	5,4	6,2
Qirg‘iziston	4,4	4,9
Moldova	4,3	4,4
Turkmaniston	3,8	5,4
Armaniston	3,4	3,8
MDH jami	282,1	282,3
Shundan O‘zbekiston ulushi	7,3%	8,8%

Rossiya aholisi 5,1%, Qozog‘iston aholisi 11,91%, Belorussiya aholisi 2,92%, Qirg‘iziston aholisi 11,3%, Moldova aholisi 2,3%, Turkmaniston aholisi 42,1%, Gruziya aholisi 3,63%, Ozarboyjon aholisi 14,8%, Armaniston aholisi 11,7%, kamaygan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi aholisi 20,2% ga oshgan.

MDH bo‘yicha jami 100%, O‘zbekiston ulushi 8,8%. O‘zbekistonda aholi soni darajasi yuqoriligining asosiy sababi yashash uchun shart-sharoitlar qulayligi, aholi salomatligiga e’tibor kuchliligi.

Inson hayvonot dunyosidan taxminan bir million yil ilgari ajralib chiqqan. Hozirgi vaqtida planetamiz aholisining miloddan oldingi davrdagi o'sishini faqat taxminan belgilash mumkin.

Eramiz boshlariga kelib er kurarsi aholisi taxminan 150-200 million kishiga , eramizning 1000 yiliga kelib 300 millionga etdi.

Keyingi 100 yillar ichida, ya'ni XIX asrga qadar dastlab Evropaning iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlarida, so'ngra dunyoning boshqa ko'pgina mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish (statistik hisobga olish) tartibga solingan bo'lsada, jahon aholisi sonining o'zgarishi haqida oz ma'lumotlar bor. Demograflarning taxminiy hisoblariga ko'ra, eramizning ikkinchi ming yillari boshida jahon aholisining har yilgi o'sish sur'ati juda oz miqdorda bo'lgan va foizning yuzdan bir ulushini tashkil etgan. Dunyoning turli mamlakatlarda tez-tez bo'lib turgan urushlar, keng tarqalgan yuqumli kasalliklar va ocharchilik natijasida bu o'sish bir me'yorda bo'limgan va ayrim hollarda hatto pasayib turgan.

Tug'ilishning yuqori darajasini saqlab qolish faqat Evropa mamlakatlari aholisining tez o'sishi uchun imkon bo'lib qolmay, shuningdek Amerika va Avstraliya aholisining tez ko'payishi uchun ham imkoniyat yaratdi. Chunki Evropadan Amerika va Avstraliyaga ko'plab ko'chmanchilar borar edi. Shuning uchun ham Amerika aholisining o'sish sur'ati Evropaga nisbatan yuqori edi. 1750 yildan 1900 yilgacha Amerika aholisi 12 marta oshgan bo'lsa, Evropa aholisi taxminan 3 marta ko'paydi, xalos.

#### **4.2. Aholining harakat ko'rsatkichlari**

Aholi soni tug'ilish va o'lish hisobiga doimo o'zgarib boradi. Tug'ilish jarayoni aholi sonini ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi kamayib boradi.

Ma'lumki, jamiyatda har doim qandaydir sabablarga ko'ra aholining bir qismi hayotdan ko'z yumadi, ya'ni vafot etadi, yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiyatdagi o'lgan aholi o'mi, yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon aholi tabiiy harakati asosini tashkil etadi.

Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror ko'payishining natijasi keyingi davrdagi aholi ko'payishining natijasi keyingi davrdagi aholi ko'payishining zamini hisoblanadi. Demak, aholi tabiiy harakati jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy murakkab jarayondir.

Aholining tabiiy harakati natijasida aholi soni va uning yosh jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining tabiiy harakati jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo

bo‘lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o‘ziga xos xususiyatlarga ega.<sup>1</sup>

Aholining miqdoriy xususiyatlari ma’lum millat, hudud aholisi sonining o‘zgarib (o‘sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiy xususiyatlari esa, asosan ma’lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma’lumotlilik darajasida, o‘rtacha umr ko‘rish muddatida ifodalanadi.

Har ikkala jarayon, ya’ni aholining miqdoriy va sifat jihatdan rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog‘liq. Masalan, aholi salomatligini yuqori darajada bo‘lishi, aholi o‘rtasida o‘limning kamayishi, o‘rtacha umr ko‘rish muddatining esa uzayishiga olib keladi. Natijada aholi soni o‘sib boradi. Shuningdek, tug‘ilishning juda yuqori darajada bo‘lishi, ko‘p hollarda ona va bola organizmining zaiflashib borishiga va o‘lim hollarining ko‘payishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat jihatidan muntazam o‘zgarib kelgan. Statistika aholining miqdor va sifat o‘zgarishlarini aholining takror barpo bo‘lishining asosiy omillari sifatida o‘rganadi .

Aholining takror barpo bo‘lishi – keng ma’noda tabiiy o‘sish, o‘lim, migratsiya, aholining hududlar bo‘ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o‘tishi, ma’lumot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi .

Statistika tabiiy avlodlar almashuvi – ya’ni tug‘ilish va o‘lim asosida aholining takror barpo bo‘lish jarayoniga e’tibori qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o‘rganadi, muammolarini aniqlaydi va istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun statistika jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o‘rganishi lozim .

Aholini takror paydo bo‘lishi o‘tayotgan avlodni yangilari bilan tabiiy almashtirish, bir tarkibiy qismning ikkinchisiga o‘tishi natijasida aholi soni va tarkibining doimiy qayta tiklashni anglatadi. Shuning uchun har bir avlodning hayoti chegarali bo‘lishiga qaramay, aholi o‘zining soni va tarkibini o‘zgartirgan holda yashamoqda. “Aholining takror paydo bo‘lishi” deganda, keng ma’noda jinsi va yoshi, ijtimoiy guruhlari yohud kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy moyilligi, millatlar, oilaviy ahvoli, hudud bo‘yicha joylashuvi va yashash joyi (shahar va qishloq), ma’lumoti, kasbiy malakasi belgilanadi va boshqa parametrlar bo‘yicha tiklanishi va tarkibiy rivojlanishi tushuniladi.<sup>2</sup>

Aholining harakat ko‘rsatkichlari mazmunan bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikki guruhdagi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi guruhga aholining tabiiy harakatini, tug‘ilish va o‘lishni, nikohdan o‘tganlar va ajralganlar sonini, ikkinchi guruhga esa aholining ko‘chib yurishini ifodalovchi ko‘rsatkichlari kiradi.

Aholining tabiiy harakati mutlaq va nisbiy miqdorda aniqlanadi. Absolyut tabiiy ko‘payish quyidagicha hisoblanadi:

$$T_{ko‘p} = T_{ug‘} - O‘_1,$$

Усмонов Б.Б. Ахоли статистикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004, 70-б.

<sup>2</sup> Боярский А.Я. Демографическая статистика. – М., МГУ, 2003, с.23.

bu erda:  $T_{ug^c}$  - tug‘ilganlar soni;  $O^c_1$  – o‘lganlar soni.

Bu ko‘rsatkich aholi harakati jadalligini (intensivligi) bevosita o‘zida aks ettira olmaydi. Shuning uchun ham aholining tabiiy harakatidagi jadallikni ifodalash maqsadida tug‘ilish, o‘lish, tabiiy o‘sish, hayotiylik, maxsus tug‘ilish, bolalar o‘limini harakterlovchi koeffisientlar hisoblanadi. (Jadval №2):

O‘lish koeffisienti – tug‘ilganlar sonini aholi o‘rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_{tug^c} = \frac{T \cdot 1000}{A}$$

O‘lish koeffisienti – o‘lganlar sonini aholi o‘rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_{uz} = \frac{Y \cdot 1000}{A}$$

Tabiiy o‘sish koeffisienti:

$$K_{lo_s} = \frac{(T - O^c_1) \cdot 1000}{A} \quad \text{yoki} \quad K_{tab.o'sish} = K_{tug^c} \cdot K_{o^c_1}$$

Hayotiylik koeffisienti tug‘ilganlar sonini o‘lganlar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_h = \frac{T}{O^c}$$

Maxsus tug‘ilish koeffisienti tug‘ilishlar sonini biologik jihatdan surriyot ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan ayollar (bunday ayollar jumlasiga 15-49 yoshdagi ayollar kiradi) o‘rtacha sonining har 1000 tasiga nisbatan hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi:

$$K_{max.tug^c} = \frac{T \cdot 1000}{15 - 49 \text{ yoshdagi..ayollarning..soni}}$$

1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi koeffisienti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{b.o^c} = \frac{O^c_{1yosh} \cdot 1000}{1/3(T_o) + 2/3(T_1)},$$

bu erda:  $O^c_1$  – o‘tgan va shu yil ichida o‘lganlar sonida 1 yoshgacha o‘lgan bolalar soni;  $T_o, T_1$  – o‘tgan va shu yil ichida jami tug‘ilgan bolalar soni.

Jahon aholisining soni dinamikasi, aholining tabiiy harakati bilan, ya’ni asosan tug‘ilish va o‘sish ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. O‘limga nisbatan tug‘ilishning ko‘pligi aholining tabiiy o‘sishini ko‘rsatadi. Ba’zi bir qit’alar va ayrim mamlakatlar aholisi sonining o‘sishiga aholi migratsiyasi ham jiddiy ta’sir etadi.

1960-1967 yillar ichida er yuzida o‘rta hisobda har yili 106 million kishi tug‘ilib, 47 million kishi o‘lgan. Natijada aholi yiliga 59 million kishiga ko‘paygan.

Aholi tabiiy harakatining harakteri murakkab bo‘lib, u juda xilma-xil sabablar bilan belgilanadi. O‘sish ko‘rsatkichlari dunyodagi har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi faravonligi darajasi, sog‘liqni saqlash tizimining ahvoli bilan chambarchas bog‘liq. Tug‘ilish ko‘rsatkichi aholining jinsi va yosh strukturasi xususiyatlariga, nikohlanuvchilarining o‘rtacha yoshiga, shuningdek, er-xotinning ma’lumot darajasi singari omillarga ham ma’lum darajada bog‘liq. Shaharlarda qishloq joylarga qaraganda tug‘ilish kamroq bo‘ladi.

4.2.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, dunyo mamlakatlarida tug‘ilish, o‘lish va tabiiy o‘sish koeffisientlari turli qit’alarda o‘ziga xos xususiyatga ega, masalan, Afrika va Osiyo qit’alarida ancha katta. Evropa mamlakatlarida esa bu ko‘rsatkichlar

ancha past. Yangi paydo bo‘lgan Belorussiya, Ukraina va boshqa hamdo‘stlik mamlakatlarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan aholining tabiiy ko‘payishi yo‘qolib uni o‘rnini kamayish egallagan.

Jahonda 200 ga yaqin mamlakat bor. Shulardan o‘ntasida, ya’ni aholisi eng ko‘p hisoblangan Xitoy, Hindiston, AQSh, Pokiston, Indoneziya, Yaponiya, Braziliya, Germaniya Federativ Respublikasi va Buyuk Britaniyada er yuzida istiqomat qiluvchi aholining taxminan 2/3 qismi joylashgan.

#### 4.2.1-jadval

#### **Ayrim jahon mamlakatlari bo'yicha umumiy tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish koeffisientlari (ming kishiga nisbatan %)**

Mamlakatlar	yillar	Tug'ilish	O'lganlar		Tabiiy o'sish
			jami	1 yoshgacha	
Xitoy	1995	21,1	6,1	-	15,0
	2003	17,1	6,6	-	10,5
Hindiston	1995	30,2	9,7	80	20,5
	2003	28,4	9,6	74	18,8
Yaponiya	1995	9,9	6,6	4,5	3,3
	2003	9,5	7,4	4,2	2,1
AQSh	1995	16,6	8,6	9,2	8
	2003	15,3	8,8	7,9	6,5
Angliya	1995	13,9	11,2	7,9	2,7
	2003	12,6	11	6,2	1,6
Germaniya	1995	11,4	11,5	7,1	-0,1
	2003	9,3	10,7	5,6	-1,4
Qozog'iston	1995	21,7	7,7	26,4	14
	2003	16,7	10,2	27,3	6,5
Rossiya	1995	13,4	11,2	17,4	2,2
	2003	9,3	15	18,1	-5,7
O'zbekiston	1995	29,8	6,3	-	23,5
	2003	22,3	5,3	-	17,0

Tug'ilgan va vafot etganlar, nikohdan o'tgan va o'chganlarning mutlaq soni aholi tabiiy harakatining intensivligini ifodalab berolmaydi. Aholi soni qanchalik ko'p bo'lsa, tug'ilganlar soni ham, vafot etganlar soni ham shuncha ko'p bo'ladi. Aholining tabiiy harakati intensivligi haqida fikrlash uchun mutlaq miqdorlardan nisbiy miqdorlarga o'tish kerak. Buning uchun tug'ilgan va vafot etganlar sonini aholining o'rtacha soniga bo'lish kerak.

Tug'ilish, vafot etish, nikohdan o'tish va undan o'chish holatlari quyidagicha aniqlanadi:

## 4.2.2 – jadval

### O‘zbekiston aholisining tug‘ilishi, o‘lishi va tabiiy ko‘payishi\*

Yillar	Jami, ming kishi			
	Tug‘ilganlar	O‘lganlar	Shu jumladan 1 yoshgacha o‘lganlar	Tabiiy o‘sish
	Jami aholi			
2001	513,0	132,6	9,4	380,4
2002	532,5	137,0	8,8	395,5
2003	508,4	135,9	8,4	372,5
2004	540,4	130,4	8,2	410,0
	Shahar aholisi			
2001	159,5	59,8	3,4	99,7
2002	163,3	62,1	3,2	101,2
2003	155,8	60,1	3,2	95,7
2004	168,0	57,6	3,1	110,4
	Qishloq aholisi			
2001	353,5	72,8	6,0	280,7
2002	369,2	74,9	5,6	294,3
2003	352,6	75,8	5,2	276,8
2004	372,4	72,8	5,1	299,6

\*Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. – Т., 2006, с. 43.

4.2.2 – jadval ma’lumotlardan shu narsa ko‘rinadiki, O‘zbekistonda tug‘ilgan bolalar soni 2001 yilda 513,0 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilda 540,4 mingtaga etgan. O‘lganlar soni 2002 yilda 137,0 ming kishini, 2003 yilda 135,9, 2001 yilda 132,6 va 2004 yilda 130,4 ming kishini tashkil etdi. 1 yoshgacha o‘lgan bolalar soni 2001 yilda 9,4 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilda 1,2 mingtani tashkil etadi. Bu esa ijobjiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Aholining tabiiy o‘sishi 2001 yildagi 380,4 ming kishidan 2004 yilda 410,0 ming kishiga etgani ham ijobjiy ko‘rsatkich hisoblanadi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tabiiy o‘sishning asosiy qismi qishloq aholisi hisobiga yuz bermoqda. 2004 yilda shahar aholisi tabiiy o‘sishi 110,4 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich qishloq aholisiga nisbatan esa 299,6 ming kishiga teng bo‘ldi.

4.2.3–jadval ma’lumotlari nikoh va ajralishni O‘zbekistondagi holatini ifodalarydi. Agar 2001 yili nikohlar soni 170,1 ming, ajralishlar soni 15,7 ming bo‘lsa, 2004 yili mos ravishda 155,8 va 17,4 ta bo‘lib, teskari tendensiyaga ega. Ming kishi aholiga nisbatan olganda esa 6,8 %, 6,0 %, 0,6 %, 0,7 % ga teng mos ravishda. Ikkala ko‘rsatkich ham demografiya nuqtai nazardan qaraganda albatta yaxshi natijalar emas.

### 4.2.3 - jadval

#### O'zbekistonda nikohlar va ajralishlar\*

	Ming		1000 aholiga	
	Nikohlar	Ajralishlar	Nikohlar	Ajralishlar
Jami aholi				
2001	170,1	15,7	6,8	0,6
2002	165,6	18,3	6,5	0,7
2003	161,7	17,6	6,3	0,7
2004	155,8	17,4	6,0	0,7
Shahar aholisi				
2001	64,3	9,8	6,9	1,0
2002	65,7	12,0	7,0	1,3
2003	65,6	11,2	7,0	1,2
2004	61,6	11,0	6,5	1,2
Qishloq aholisi				
2001	105,8	5,9	6,7	0,4
2002	99,9	6,3	6,2	0,4
2003	96,1	6,4	5,9	0,4
2004	94,2	6,4	5,7	0,4

\* Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. – Т., 2006, с. 51.

**O'rtacha umr.** Xalqaro demografik statistikada o'rtacha umr deb, muayyan avlodga mansub tug'ilganlardan har biri o'rta hisobda necha yil yashashi mumkinligiga aytildi. Ayni shu vaqtida ana shu avlodning yashash muddati mobaynida yoshdan yoshga o'tishi, barcha aholining tegishli yosh gruppalarida o'lim hozirgi darajada bo'ladi, deb taxmin qilinadi. O'lim kam bo'lgan mamlakatlarda o'rtacha umr uzun bo'ladi. O'rtacha umr hayot tarzining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga va sog'liqni saqlash ishlarining ahvoliga bog'liq.

Aholisi eng uzoq umr ko'rvuchi davlatlar – Shvesiya, Norvegiya va Niderlandiyadir. (85 yil). Inson eng kam umr ko'radigan joy Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlaridir(30-40yil).

Aholining o'rtacha umri tegishli hududlarda taxminan quyidagicha: Shimoliy Amerikada- 70 yil, Evropada – 68, Lotin Amerikasida- 50-55, Osiyoda- 40-50, Afrikada- 40 yildan kamroq, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Isroiil, Kanada, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Fransiya, Shvesariya, Shvesiya kabi mamlakatlarda o'rtacha umr 70-73, Bel'giya, Italiya, Kipr, AQSh va Yaponiyada 65-69, Argentina, Ispaniya, Portugaliya, Singapurda 60-64, Tailandda 45-50, Boliviya, Braziliya, Venesuela, Gonduras, Dominikan Respublikasi, Kolumbiya, Nikaragua, Panama, Peruda 40-50 yilni tashkil etadi.

#### Aholi migratsiyasi

Aholi migratsiyasi qit'alar va dunyo mamlakatlarini istiqomatgohga aylantirish va ularda yashovchilarni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Asosan, Evropadan Amerikaga, ya'ni okeanning narigi yog'iga ko'chib o'tish XIX va XX asrlarning boshlarida harakterli voqeа edi. Evropadan emigratsiya XIX asrning 20-yillaridan boshlab sezilarli darajada o'sa bordi va shu asrning o'rtalarida yiliga o'rta hisobda 300 ming kishini tashkil etdi. XX asrning o'rtalarida 60 milliondan ko'proq kishi Evropadan Amerikaga ko'chib ketadi. XX asrda Osiyo, Afrika, Amerika aholisining

migratsiyasi o‘z hajmi jihatidan evropaliklarning ko‘chishiga nisbatan kamroq edi. Yuz minglab kishi qatnashgan eng yirik migratsiyalar qatorida xitoyliklarning Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, Yaponianing Gavayia, AQShga, va ayniqsa, Shimoli-Sharqiy Xitoya, Koreyaga, Hindiston aholisining Seylonga, Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga, Sharqiy va Janubiy Afrika va Okeaniyadagi Fedji orollariga ko‘chirilishlarini ko‘rsatib o‘tish kerak.

Ikkinchchi jahon urushi borayotgan rayonlardan aholining qochishi va millionlab aholining evakuasiya qilinishi tufayli yangi migratsiya ro‘y bergan. Bu migratsiya, asosan, vaqtincha harakterga ega bo‘lgan. Osiyoda ro‘y bergan eng yirik migratsiya (1956 yil) Hindiston va Pokiston bo‘linib, mustaqil davlat sifatida tashkil topishi bilan bog‘liq diniy e’tiqod belgisi ostida shakllangan migratsiya edi.

#### **4.3. Chet elda aholi tarkibini o‘rganish**

Aholi tarkibini o‘rganish ularni quyidagi guruhlarga ajratish yo‘li bilan amalga oshiriladi:

1. Umumdemografik belgilar (jinsi, yoshi, oilaviy holati);
2. Aholining milliy tarkibini harakterlovchi belgilar(millati, ona tili, fuqoroligi);
3. Aholining madaniy darajasini harakterlovchi belgilar (ma’lumoti, ta’lim olishi);
4. Aholining ijtimoiy tarkibini harakterlovchi belgilar (ijtimoiy guruhi, yashash omillari);
5. Mehnat resurslarini ifodalovchi belgilar (ishlash joyi, mashhg‘uloti, mutaxassisligi).

Aholining jinsiy tarkibi va yosh strukturasi eng muhim demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir, chunki tabiiy ko‘payish jarayonida mavjud ishlab chiqarish usuli va ishlab chiqarish munosabatlari hal qiluvchi omillardan hisoblansada, aholining jinsi va yoshiga oid ko‘rsatkichlar inson surriyotini yuzaga kelishida, mehnat resurslarining shakllanish sur’ati va harakterini belgilashda, jamiyatning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olishda katta ahamiyat kasb etadi.

Aholining yoshi bo‘yicha hisobga olish, uni o‘rganish ko‘p tadbirlarni, jumladan, iste’mol buyumlarini va ularni assortimentlari bo‘yicha ishlab chiqarish, bolalar bog‘chalari va maktablar qurilishini rejalashtirish, mehnat resurslari va shunga o‘xshash qator ko‘rsatkichlarni aniqlashda juda muhimdir.

Aholi statistikasida aholining milliy tarkibini ifodalovchi ko‘rsatkichlar ham muhim o‘rin egallaydi. Ko‘p millatli mamlakatimizda milliy siyosatning oqilona amalga oshirilayotganligini, hamma millatlarning ravnaq topayotganligini, milliy maktablar, o‘z ona tilida dars olib borish, darslik, o‘quv qo‘llanmalarini, gazeta va oynomalarni tegishli milliy tilda nashr qilish, milliy-madaniy muassasalarini (teatr, kutubxona va hokazolarni) ochish va rivojlantirish kabi qator vazifalarini hal qilish, ayrim millat sonini, ularni hududlar bo‘ylab joylashishini aniqlashdan boshlanadi.

Respublikamiz hududida 1939 yilda 97 millat va elga mansub aholi yashagan bo‘lsa, 1959 yilda 113, 1970 yilda 120 ta va 1989 yilda esa 122 ta millat va elatga mansub aholi yashadi.

**Aholining joylashishi.** Er kurrasi bo‘yicha aholining joylashishi bir xilda emas. Hali odamlar tomonidan mutlaqa istiqomatgohga aylantirilmagan katta maydonlar

bilan birga aholi juda zich joylashgan dehqonchilik rayonlari va yirik shahar aglomigratsiyalari, ya’ni o’ta zich joylashgan shaharlar va shahar atrofi rayonlari bor.

Aholi joylashishi haqidagi ma’lumotlar asosida ularni shahar va qishloq aholisiga ajratish mumkin.

Shahar rivojlangan infratuzilmaga ega bo‘lgan yirik aholi yashaydigan punkt bo‘lib, u ishlab chiqarish, boshqarish, tashkiliy – xo‘jalik, madaniy funksiyalarni bajaradi. Bu maqomga u qonuniy yo‘l bilan erish bo‘ladi.

Aholi yashaydigan punktlarni shaharga o‘tkazishning ma’lum tarixiy me’yorlari mavjud. Ularni ushbu guruhlarga ajratish mumkin:<sup>1</sup>

1. **Tarixiy.** Mamlakatlarning tarixan rivojlanishi natijasida hosil bo‘lgan shaharlar.

2. **Miqdoriy.** Aholi yashaydigan punktlarda aholi soni ma’lum miqdorga etgach, uni shahar qatoriga qo‘shiladi. Ayrim olingan mamlakatlar bo‘yicha uning diapazoni har xil.

3. **Iqtisodiy.** Qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan aholi soniga, ulushiga qarab.

Qoida bo‘yicha, bu tamoyil boshqa iqtisodiy tamoyillar bilan birgalikda (masalan, aholi zichligi) qo‘shib olinadi. Masalan, Hindistonda shahar qatoriga 5 mingdan kam aholisi bo‘lmagan va zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 1000 kishi to‘g‘ri kelgan va aholisining 75 %i qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan aholi yashaydigan punktlar kiritiladi.

4. **Qonuniy.** Ma’lum qonunlarga muvofiq aholi yashaydigan punktlarni shahar qatoriga kiritish. Bu ham ma’lum miqdoriy tamoyillar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Masalan, Kanada, AQSh va boshqa davlatlarda shu tamoyildan foydalilanildi. O‘zbekistonda 3 me’zonli tamoyil: miqdoriy, iqtisodiy va qonuniy tamoyillar amal qiladi.

Urbanizasiya shahar aholisi soni o‘sishi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, eski shaharlarning o‘sishi, yangi shaharlarning paydo bo‘lishi va shaharlar joylashishining qiyinchiliklari uning eng muhim belgilari hisoblanadi.

Statistikada shaharni odamlar soniga qarab, qator guruhlarga ajratiladi. Tabiiy o‘sish hamda migratsiya qoldig‘i va aholi yashaydigan punktlarni shaharga aylantirish shahar aholisi sonining o‘sish manbai, hisoblanadi. Shahar aholisining tarkib topishida bu manbalar har qanday davrda har xil rol o‘ynaydi.

Dunyoda qishloq aholisining joylashishi juda xilma-xil. Ishlab chiqarish sur’atlari bo‘yicha aholi yashaydigan punktlarni 3 turga bo‘lish mumkin: qishloq xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan va aralash. Aholi tarqalishining boshqa turi ham mavjud, dispersion yoki yoyilib ketgan tarqalish. Bunga xutor yoki fermerlarning tarqalishi misol bo‘la oladi.

Qishloqlardagi aholi yashaydigan punktlarning shakli va turi dunyo mamlakatlarining tarkibiy rivojlanishini ifodalaydi. Qishloqlardagi aholi yashaydigan punktlar sonini aniq aytib bo‘lmaydi, ayrim mamlakatlarda alohida punktlar emas, balki ularning birlashmasi statistik hisob birligi hisoblanadi. Ularning soni sanash darajasiga bog‘liq bo‘lib, taxminan 12 dan 20 ming kishigacha bo‘ladi.

<sup>1</sup> Усмонов Б.Б. Аҳоли статистикаси. Ўкув кўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004, 30-бет.

Aholi harakatiga qarab er yuzi aholisini ikki guruhga ajratish mumkin:

1) Evropa, Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika davlatlari – ko‘p aholi shaharlarda joylashgan;

2) Avstraliya, Kanada, Yangi Zellandiya, AQSh davlatlari – aholi, asosan, qishloq fermer xo‘jaliklarida joylashgan.


Ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha qishloq aholisini ikkiga: qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lgan va band bo‘lmagan aholiga ajratish mumkin. Taxminiy hisob-kitoblarga qaraganda, er yuzi faol aholisining 3/5 qismi qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq tarmoqlarda band. Ammo iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi bilan band aholining ulushi ko‘p emas: Buyuk Britaniya va AQShda – 2,5% – 3,5%, Ispaniya va Portugaliyada esa – 12% – 15%.

Aholi jinsi bo‘yicha erkak va ayollarga bo‘linadi. Ularning nisbati esa, jinsiy tarkibni tashkil etadi. Aholining jinsiy tarkibi demografik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’siri ostida tashkil topadi. Demografik omillar tug‘ilganlar orasida o‘g‘il va qiz bolalar nisbati, erkak va ayollar o‘rtasidagi vafot etish farqi, migratsiya hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, urushlar va boshqalar kiradi. Amaliyot shuni ko‘rsatayaptiki, tug‘ilgan har 100 qizga 105-106 o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi, bu holat erkaklarning umumiy aholi sonidagi ulushining ortishiga olib keladi. Ammo erkaklarda o‘lim ko‘proq bo‘lganligi sababli, bu nisbat asta-sekin to‘g‘rilanib, yuqori yoshli guruhlarda ayollar salmog‘i ortib boradi.

Hududlar bo‘yicha ko‘chib yurish ko‘proq erkaklarga xos bo‘lib, aholi ketadigan joylarda ayollar salmog‘i ortib boradi, aholi keladigan joylarda, aksincha, erkaklar salmog‘i yuqori bo‘ladi.

4.2.1–chizmada aholining yosh jins tarkibi berilgan (01.01.2005). Ushbu ma’lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda erkaklar soni 0-2 dan 30-34 yoshgacha bo‘lgan oraliqda ko‘pchilikni tashkil etsa, 35-39 yoshdan boshlab esa a yollar soni ko‘pchilikni tashkil etadi. 70 yoshdan yuqori yoshda ushbu tafovut salkam ikki barobarga (67,16 %) teng.

## O‘zbekistonda aholining yosh – jins tarkibi (1 yanvar 2005 yilda, ming kishi)<sup>1</sup>



### 4.3.1-chizma

Jamiyatda ayollarning iqtisodiy-ijtimoiy holati, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda, ayollarning vafot etish darajasiga ta’sir ko’rsatib, ularning umum aholi sonidagi ulushlarining pasayishiga olib keladi. Aholining jinsiy tarkibini miqdor tomonidan tavsiflash maqsadida statistika mutlaq va nisbiy ko’rsatkichlarni qo’llaydi. Mutlaq ko’rsatkichlarga erkak va ayollar soni, ayollar sonining erkaklar sonidan mutlaq ortiqligi misol bo‘la oladi.

Nisbiy ko’rsatkichlar har 1000 ayolga to‘g’ri keladigan erkaklar ulushi, ayol aholi erkak aholiga nisbatan ortiqligi – bunda umum aholidagi ayollar salmog‘i bilan erkaklar salmog‘i orasidagi farq olinadi.

Er yuzida, umuman, erkak va ayollar soni bir-biriga to‘g’ri keladi. Rivojlangan mamlakatlarda ayollarning salmog‘i yuqori, rivojlanmagan mamlakatlarda esa, erkaklarning salmog‘i yuqori bo‘ladi.

Bu holda ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni tarixiy va boshqa sabablarga bog‘liq. BMT bashoratlariga qaraganda, XXI asr boshlarida erkak va ayollar salmog‘i tenglasha boradi.

Aholi jinsiy tarkibini o‘rganishda ayollar salmog‘ining erkaklar salmog‘iga nisbatan nisbiy ortiqchaligini aniqlash muhim hisoblanadi; agar bu ko’rsatkich 1 % gacha bo‘lsa – sezilarli bo‘lmagan, 1% – 3% – o‘rtacha va agar 3% dan yuqori bo‘lsa – sezilarli darajadagi farq mavjudligi haqida gap boradi.<sup>2</sup>

Aholining jinsiy tarkibi dinamikasini tavsiflash uchun, erkak va ayollarning o‘sish sur’ati, o‘sish sur’atini solishtirish kabi ko’rsatkichlardan foydalaniladi. Aholi

<sup>1</sup> Социальное развитие и уровень жизни населения в Узбекистане. – Т., 2006, с. 34.

<sup>2</sup> Усмонов Б.Б. Аҳоли статистикаси. Ўкув кўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004, 31-бет.

jinsiy tarkibini statistik o‘rganish mehnat resurslari balansini tuzish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishni rejalashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Aholining o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash, uning sonini bashoratlash va kelajakdagi tarkibini aniqlash, shuningdek, xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarishni rejalashtirish, bolalar va o‘quv maskanlarini, sog‘liqni saqlash ob’ektlarini rivojlantirish, mehnatga layoqatli aholi sonini, armiyaga chaqiriluvchilar sonini aniqlash va hokazolarda aholining yoshi bo‘yicha tarkibini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining yoshi bo‘yicha tarkibi uning tabiiy va mexanik harakati hamda urushlar ta’siri ostida tashkil topadi. Aholidagi alohida yosh tarkibi tug‘ilish va vafot etish dinamikasini belgilaydi. Masalan, tug‘ilishning kamayishi aholi tarkibida bolalar salmog‘i pasayishiga olib keladi.

Asosan yoshlar yashash joyini o‘zgartirib turadi, shuning uchun migratsiya kelgan joylarda aholi yosh tarkibini yoshartiradi, ketgan joylarda esa yosh tarkibi qariydi. Urushlar ham aholi yosh tarkibiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘p mamlakatlarda kishilar yoshini bizdagi kabi, yil o‘tishi bilan uning yoshi bir yoshga ortadi. Boshqa tizimlar ham mavjud. Masalan, Koreyada tug‘ilgan bola bir yosh deb ataladi. Xitoy, Vietnam, Shvesiya va boshqa qator mamlakatlarda kalendar yil tugashi bilan tug‘ilgan kunidan tashqari uning yoshi bir yoshga ortadi.

Yosh jinsdan farqli o‘laroq, o‘zgaruvchan miqdor bo‘lib, u doimo ortib boradi. Aholining yosh tarkibini o‘rganish uchun guruhlash, mutlaq, nisbiy va o‘rtacha ko‘rsatkichlar, grafik va boshqa usullar qo‘llaniladi.

Aholining 50%dan ko‘prog‘i issiq mintaqasi mamlakatlarida yashaydi, 85%dan ko‘prog‘i G‘arbiy yarim shardan oldinroq istiqomatgohga aylantirilgan Sharqiy yarim sharda joylashgan. Evropa va Shimoliy Amerika sanoati taraqqiy etgan rayonlarida, Osiyonning Janubiy, Janubi-Sharqiy va Shimoliy Amerikaning yirik daryo vodiylarida aholining zichligi, ayniqsa, katta. Er kurrasining aholi zich joylashgan rayonlarnida planetamiz aholisining 70 % ga yaqin qismi yashaydi.

Aholini shahar va qishloq aholisiga ajratish mavjud ma’lumotlar asosida amalgalashirilsada taxminiy harakterga ega ekanligini e’tirof etish zarur, chunki shahar va qishloq aholisi tushunchasi turli mamlakatlarda har xil ma’noni bildiradi.

Aholi yashaydigan materiklarda aholining umumiyoq o‘rtacha zichligi ( $1 \text{ km}^2$  ga to‘g‘ri keladigan aholi soni) 24 kishini tashkil etgan, shu jumladan Evropada –189, Osiyoda – 101, Afrikada – 99, Avstraliya va Okeaniyada 66 kishi.

### **Aholining jinsiy tuzilishi**

Aholining statistik hisobini olish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mamlakatlarda demografik materiallardan ma’lum bo‘lishicha o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda ko‘proq tug‘iladi (O‘rtacha hisobda 100 qiz bolaga 105-106 o‘g‘il bola to‘g‘ri keladi). Bu ham jahoning barcha mamlakatlariga xos xususiyat. Biroq erkaklar va ayollarning umumiyoq soni nisbati jahoning turli qismlari va mamlakatlarida turlicha. Bunga erkaklar va ayollarning o‘rtacha umridagi farq, migratsiyalar, urushlar va boshqa omillar sabab bo‘ladi.

Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlarda, ayollarning umumiyoq soni erkaklar sonidan ko‘p. Sababi bunday mamlakatlarda bolalar ichida o‘g‘il bolalar o‘liming ko‘pligidir (Masalan, AQShda bir yoshgacha o‘g‘il bolalar qizlarga nisbatan 1,33

marta ko‘proq bo‘ladi), shu sababli taxminan 15-20 yoshga etgach, ikkala jins o‘rtasidagi nisbat son jihatdan tenglashadi. Kattaroq yoshda esa ayollar salmog‘i muntazam o‘sib boradi. Ayollarning mehnatga, ayniqsa, og‘ir va zararli ishlab chiqarishda kam band bo‘lganligi sababli ayollar orasida o‘lim kam, demak o‘rtacha umr erkaklarga qaraganda ko‘proq bo‘ladi.

#### 4.3.1-jadval

#### O‘zbekiston va Latviya aholisining jinsiy tuzilishi (foiz hisobida)

O‘zbekiston	1990 yili			2003 yili		
	Jami aholi	erkaklar	ayollar	Jami aholi	erkaklar	Ayollar
0-14 yosh	40,71	41,74	39,7	49,80	50,76	38,70
15-49 yosh	46,62	47,3	45,95	55,20	60,20	57,30
50 dan yuqori	12,62	10,9	24,29	16,60	12,50	17,90
Latviya						
0-14 yosh	21,29	23,57	19,31	22,13	29,40	22,18
15-49 yosh	50,56	52,78	46,53	51,05	60,3	55,61
50 dan yuqori	29,19	23,53	34,08	32,93	20,20	40,01

Rivojlanayotgan mamlakatlarda (Osiyoda), odatda, erkaklar soni ayollar sonidan ortiq. Bu mamlakatlarning ko‘pida diniy aqidalar (masalan, islom dini da’vatiga ko‘ra, ayollar mavqeい pastroq. Shu sababli, go‘yo qiz bola oilaga qo‘shimcha tashvish keltirar emish. Shu boisdan qiz tug‘ilishi oilada haqorat deb bilinadi. Shu tufayli chaqaloqlar orasida o‘g‘il bolalar o‘limi qiz bolalar o‘limiga nisbatan ko‘p bo‘lmasa kerak.

Barvaqt nikohlanish (Osiyo va Afrikadagi bir qancha mamlakatlarda yoshlar 15-20 yoshlarida turmushga chiqadilar) natijada onalik va ko‘p bolalik davri ham erta boshlanadi. Masalan, 45 yoshdan yuqori bir hind ayoliga o‘rtacha 6-7 bola to‘g‘ri kelsa, Buyuk Britaniyada faqat 2-3 bola to‘g‘ri keladi. Bunday mamlakatlarda tug‘ish vaqtida malakali tibbiy yordam ko‘rsatilmasligi tufayli ko‘plab onalar nobud bo‘ladi. Ayrim mamlakatlarda ayollar hisobga olinmagan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, jahon miqyosida erkaklar soni ayollar sonidan bir muncha yuqoridir.

#### Aholining yosh strukturasi

Aholining yosh strukturasi eng muhim demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlardan biridir. Aholining yoshiga qarab shakllanadigan turli guruuhlar o‘rtasidagi nisbat, masalan, iqtisodiy aktiv aholi salmog‘ini aniqlashda yoki muayyan davlatning mehnat resurslarini belgilashda juda ham zarur ko‘rsatkichdir. Aholi sonining umumiy o‘sishi asosan 16-50 yoshlardagi ayollar soniga bog‘liq.

Iqtisodiyot va madaniyatning muhim ko‘rsatkichlarini (bolalar, o‘quv muassasalari, mehnat resurslari, kasallik va o‘lim sabablarini o‘rganish aholining kelgusidagi sonini hisoblash) to‘g‘ri rejalashtirish ham aholining yosh strukturasi haqidagi ma’lumotlar, ayniqsa, zarur.

Ko‘pgina demografik ko‘rsatmalar faqat muayyan yoshdagagi aholiga nisbatan harakat qilishi sababli ayrim demografik qonuniyatlarni faqat ana shu yosh guruhiga kiruvchi aholiga qo‘llash mumkin. Jahon aholisining turli yosh guruhi yuzasidan shakllangan nisbat orasida tabiiy ko‘payishning o‘ziga xos xususiyatlarini harakterlab

beruvchi ikkita asosiy holatni alohida ko'rsatish mumkin: birinchi – tug'ilish yuksak, o'lim ham shunga muvofiq bir qadar ko'p va shu sababli o'rtacha umr uncha ko'p bo'limgan davlatlar (bunga Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi deyarli barcha rivojlanayotgan mamlakatlar kiradi). Ikkinchi guruhdagi davlatlarda buning aksicha, tug'ilish va o'lim kam bo'lib, uzoq umr ko'rvchilar nisbatan ko'p (bunga Evropa va Shimoliy Amerika davlatlari kiradi), bunday davlatlar barcha aholi tarkibida bolalarning kamligi va yoshi ulg'ayganlarining ko'pligi bilan harakterlanadi.

### Aholining oilaviy ahvoli

Muayyan mamlakat aholisining oilaviy ahvoli, avvalo, qayd etilgan yoki etilmagan (bunga bo'ydoqlar, er yoki xotindan ajralishganlar, bevalar kiradi) nikohda turuvchilar soniga qarab belgilanadi. Nikoh ham ma'lum bir vaqtida – kishi jinsiy balog'atga etgan vaqtdagina qayd qilinar ekan, oilaviy ahvol ko'rsatkichi ham muayyan yoshdan boshlab ko'rsatiladi. Shu sababli "oilaviy ahvol" tushunchasi 15 va undan yuqori yoshdagi (Rossiyada – 16 va undan yuqori) aholiga ta'alluqlidir.

Demografik statistikaga asosan rasmiy qayd etilgan fuqorolik va diniy nikohlargina kiritilgan.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarida ayollar erkaklarga qaraganda erta turmushga chiqadilar. Shuning uchun yoshlar o'rtasida erta turmushga chiqqan ayollar foizi nisbatan ko'p. Katta yoshdagi aholi o'rtasida esa xotini bor erkaklar foizi katta.

Iqtisodiy taraqqiy etgan ko'pgina davlatlarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan erkaklar, va ayniqsa, ayollar ancha kech turmush quradilar.

Mamlakatlar o'rtasida barvaqt turmush quruvchi erkak va ayollar soni bo'yicha farq yana ham kuchli. Masalan, Yaponiyada 20 yoshga qadar barcha ayollarning 1,7%igina turmush qursa, Gvineyada 80%dan ortig'i bu yoshda turmush quradi. Turmushdan ajralish yoki nikohni buzish darajasi nikohlanish darajasidan ancha kam. Bu holat ko'pincha nikoh qay darajada haqiqiy ekanligi yoki mustahkam emasligi bilan emas, balki qo'ydi-chiqdini rasmiylashtirish jarayonida mavjud bo'lgan og'irlilik yoki qulaylikka bog'liq. Masalan, musulmonlarning ko'pchiligidagi boshqa xalqlarga nisbatan qo'ydi-chiqli osonroq. Islom dini qonun-qoidalariga ko'ra, xotindan ajralmoqchi bo'lgan er "uch taloq" deyishi bilan o'z xotinini rasman qo'ygan hisoblanadi. Aksincha, katolik dini kuchli ta'sir qiladigan ko'p mamlakatlarda (Italiya, Ispaniya, Portugaliya va boshqalarda) qo'ydi-chiqli masalasi ancha og'ir, ba'zan hatto rasman mumkin emas. Natijada, bu mamlakatlarning ko'plab erkak va ayollarasi aslida buzilgan oilani rasman qonuniy hal etmay, boshqa oila quradilar. Jahonda eng ko'p nikohni buzish Virginija orollarida va undan so'ng AQShda ro'y berdi.

#### **4.4. Aholining kelajakdagi sonini aniqlash**

Xalq xo‘jaligining bo‘lajak istiqbolini rejalashtirish, avvalo, aholining kelgusida ko‘payish istiqbolini aniqlashdan boshlanadi, chunki reja ko‘rsatkichlarining boshqa qismlari jamiyat ehtiyojini, ya’ni aholi ehtiyojini qondirishga bo‘ysundirilishi kerak. Shuning uchun ham aholining ko‘payish istiqbolini belgilash- kelgusida shakllanadigan demografik strukturani aniqlash, hudud miqyosida tabiiy ko‘payish va ko‘chib yurish sonini ilmiy tahlil qilish, shahar va qishloq aholisi nisbatini oldindan bilish, mehnat resurslari, uning hududiy miqyosda joylashishi hamda demografik tuzilishni oldindan tahlil qilish va ana shu masalalarda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini kelgusi 20-30 yilgacha (prognoz) ko‘ra bilishdan iborat.

Aholining istiqbolda ko‘payishini belgilashning asosiy vazifalari quyidagilar:

- ◆ Kelgusida shakllanadigan demografik tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash;
- ◆ Hududiy miqyosda aholining ko‘payishi va migratsiya ko‘lamini taxmin qilish;
- ◆ Shahar va qishloq aholisi nisbatini oldindan bilish;
- ◆ Mehnat resurslarini, uning hududiy miqyosdagi joylashishi va demografik tarkibiy o‘zgarishini oldindan tahlil qilish;
- ◆ Har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini kelgusi 20-30 yilgacha oldindan tahlil qila bilishdan iborat.

Aholining istiqboldagi sonini hisoblash ikki usulda , ya’ni:

1) Global.

2) Yoshini siljitchish usullari yordamida hisoblash mumkin.

#### **Aholining istiqboldagi sonini global usulda hisoblash**

Global usulda hisoblashda aholining yil boshidagi soni ( $A_0$ ), tabiiy o‘sishi ( $K_{t.o'}$ ) yoki umumiy o‘sish koeffitsientlari boshlang‘ich ma’lumot vazifasini bajaradi. Hisoblash quyidagicha bajariladi:

$$A_1 = A_0 \cdot \left[ 1 + \frac{K_{t.o'}}{1 - \frac{1}{2} K_{t.o'}} \right]; \quad A_2 = A_1 \cdot \left[ 1 + \frac{K_{t.o'}}{1 - \frac{1}{2} K_{t.o'}} \right] \text{ va hokazo.}$$

Bu erda:  $A_1$  va  $A_0$  – aholining joriy yil oxiridagi va keyingi yil boshidagi soni.  $K_{t.o'}$  - tabiiy o‘sish koeffitsientlari.

Bu usul aholining istiqboldagi sonini hisoblashda qo‘l kelsada, lekin ularni yosh jihatdan alohida-alohida hisoblash imkonini bermaydi. Bundan tashqari har keyingi yilning qo‘shimcha o‘sishi faqat boshlang‘ich baza sifatida qabul qilib olinmaganligi sababli tabiiy yoki umumiy o‘sish harajatlari turlicha bo‘lishi mumkin.

**Yoshini siljitchish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash.** Yoshini siljitchish usulida aholining istiqboldagi soni quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$i_x \cdot p_x q_{i_x=1}$$

Bu erda:

$i_x$  - x yoshgacha yashash mumkin bo‘lgan aholi soni.

$p_x$  – x+1 yoshgacha yashash mumkin bo‘lgan ehtimollik.

$q_{i_x}$  – yoshgacha yashash mumkin bo‘lgan aholi soni.

Shunday qilib, har bir yoshdagi aholi soni ( $i_x$ ) har yosh yashashi mumkin bo‘lgan ehtimollik koeffisienti yordamida bir yoshdan ( $i_x$ ) ikkinchi yosha ( $i_{xQ1}$ ) «siljitaldi». Buni quyidagi jadvalda bajarilgan amaldan ko‘rish mumkin:

Aholining joriy yil oxiridagi soni	Kelgusi -1 yilning boshida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni	Kelgusi-2 yilning boshida bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni	Kelgusi-3 yilda bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholi soni
$i_{17}$ $i_{18}$ $i_{19}$	$I_{18}=17 \cdot p_{17}$ $I_{19}=i_{18} \cdot p_{18}$ $I_{20}=i_{19} \cdot p_{13}$	$i_{19}=i_{18} \cdot p_{18}$ $i_{20}=i_{19} \cdot p_{19}$ $i_{21}=i_{20} \cdot p_{20}$	$i_{20}=i_{19} \cdot p_{19}$ $i_{21}=i_{20} \cdot p_{20}$ $i_{22}=i_{21} \cdot p_{21}$
$I_{17+8+19}$	$i_{18}=$ $i_{19}=0_{20}$	$i_{19}=i_{20+21}$	$I_{20+21+22}$

Bu usulni qo‘llash tartibini quyidagi shartli raqamlarda ko‘rib chaqamiz. Shu ma’lumotlarga ko‘ra, uch avlodning istiqboldagi sonini bo‘lajak 1,2 va 3 yillar, ya’ni 2005, 2006 va 2007 yillar uchun aniqlaymiz. Echish uchun jadvalning so‘nggi ustunlarini to‘ldiramiz.

### **Yoshni siljitchish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash tartibi**

Yosh	Mazkur yoshdagi aholining 2004 yil boshidagi soni	Har bir yosh yashashi mumkin bo‘lgan ehtimollik koeffisienti	Yil boshidagi yoshlar		
			2005	2006	2007
			$i_{x+1} = i_x \cdot p_x$		
16	4021	0,99641	-	-	-
17	4011	0,99600	$4021 \cdot 0,9$ 9641=40 06	-	-
18	4008	0,99562	$4011 \cdot 0,9$ 96=3994	$4006 \cdot 0,996$ =3989	-
19	-	0,99526	$4008 \cdot 0,9$ 9562=39 90	$3994 \cdot 0,995$ 62=3976	$3989 \cdot 0,$ 99562= 3971
20	-	0,99503	-	$3990 \cdot 0,995$ 26=3800	$3976 \cdot 0,$ 99562= 3957
21	-	0,99498	-		$3800 \cdot 0,$ 99498= 3780

Masalan, 2005 yildagi 17 yoshli 4021 kishi, 2005 yilda:

$$i_{18} = i_{17} \cdot p_{17}$$

$$i_{18} = 4021 \cdot 0,99641 = 4006 \text{ kishi}$$

9. 2006 yilda kelib:

$$i_{19} = i_{18} \cdot p_{18}$$

$$i_{19} = 4006 \cdot 0,99600 = 3989 \text{ kishi.}$$

10. 2007 yilga kelib:

$$i_{20} = i_{19} \cdot p_{19}$$

$$i_{20} = 3989 \cdot 0,99562 = 3971 \text{ kishi qolar ekan.}$$

Shu tariqa boshqa yoshdagi aholi soni ham tegishli yillar uchun hisoblangan. Hisoblashda mexanik o'zgarish koeffisienti e'tiborsiz qoldirilgan.

O'zbekiston aholisi sonini trend va dinamika qatorlarining tebranishlariga asoslanib ekstropolyasiyalashni amalga oshiramiz. Statistika nazariyasidan trendlarni aniqlash va ular asosida dinamika qatorlari darajalarining kelgusi davrlar uchun ekstropolyasiyalash orqali prognoz ko'rsatkichlarini belgilash mumkin.

Buning uchun 10-15 yillik (oylik) ko'rsatkichlardan iborat dinamika qatorlari tuzilib, eng kichik kvadratlardan usuli yordamida mazkur ko'rsatkichlar xususiyatiga mos keluvchi tendentsiyani aks ettiruvchi to'g'ri chiziqli ( $Y=a+b*t$ ), parabolik ( $Y=a+b*t+s*t^2$ ), giperbolik ( $Y=a+b/t$ ) yoki boshqa turdagি tenglamalar aniqlanadi. Yuqoridagi tenglamalarning qaysi biri empirik ma'lumotlarning xususiyatlariga mos kelishi mumkinligini aniqlash uchun "ARM - statistika" nomli kompyuter dasturi ishlab chiqilgan.

Quyida tendentsiyani aniqlash uchun foydalilanildigan to'g'ri chiziqli tenglamani hisoblash metodologiyasini keltiramiz.

Yuqorida ko'rsatilganidek, to'g'ri chiziqli tenglama quyidagicha ifodalanadi:  

$$Y = a + b*t,$$

bu erda:  $Y$  – dinamika qatori darajasi ko'rsatkichlari;  $a$  – dinamika qatori darajalariga ta'sir qiluvchi boshqa omillar ta'sirini ifodalaydigan "ozod had";  $b$  – regressiya koeffisienti,  $t$  bir birlikka o'zgarganda dinamika qatorining daraja ko'rsatkichi qancha miqdorga o'zgarishini ifodalaydi;  $t$  – dinamika qatorining qaysi davrga (vaqtga) mansubligini ifodalaydi.

Yuqoridagi tenglamada " $Y$ " va " $t$ " lar ma'lum bo'lib, " $a$ " va " $b$ " lar noma'lum bo'ladi. Noma'lum elementlar qiymatini aniqlash uchun avval " $a$ " va so'ngra " $b$ " elementlar bo'yicha hosila olamiz va quyidagi tenglamalar tizimiga ega bo'lamiz:

$$\begin{aligned}\sum Y &= n \cdot a + \sum t \\ \sum Y \cdot t &= a \sum t + b \sum t^2\end{aligned}$$

Ushbu tenglamalar tizimida  $\sum t = 0$  deb qabul qilsak, " $a$ " va " $b$ " qiymatlarini quyidagicha hisoblaymiz:

$$a = \sum Y / t \text{ va } b = a \sum Y \cdot \frac{t}{\sum t^2}$$

Yuqoridagi nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan yondashishni O'zbekiston Respublikasining 1998-2006 yillardagi aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlari asosida amaliyatga tatbiq qilamiz. So'ngra, "ARM - statistika" kompyuter dasturidan foydalangan holda aholi sonidagi o'zgarishlar eng kichik kvadratlardan usulida qaysi nazariyadan mavjud bo'lgan funksiyaga mos kelishini aniqlash mumkin.

#### 4.4.1 – jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisining 1997-2006 yillardagi trendini hisoblash<sup>1</sup>

Yillar	Mavjud aholi soni, ming	t	yt	$t^2$	$y - \bar{y}$	$(y - \bar{y})^2$	$y_t$
1	2	3	4=2*3	5=3*3	6	7	8
1998	23867	-4	-95468	16	-1315,3	1730014,0	+23926,3
1999	24231	-3	-72693	9	-951,3	904971,69	24240,3
2000	24583	-2	-49166	4	-599,3	359160,49	24554,3
2001	24908	-1	-24908	1	274,3	75240,49	24868,3
2002	25211	0	0	0	28,7	823,69	25182,3
2003	25523	1	25523	1	340,7	116076,49	25496,4
2004	25802	2	51604	4	619,7	384028,09	25810,4
2005	26116	3	78348	9	933,7	871795,69	26124,4
2006	26400	4	105600	16	1217,7	1482793,2	26438,3
<b>Jami</b>	<b>226641</b>	<b>0</b>	<b>18840</b>	<b>60</b>	<b>5489</b>		<b>226641,0</b>
<b>O‘rtacha</b>	<b>25182,3</b>						

$$a = \sum y : n = \bar{y}$$

$$a = 25182,3$$

$$b = \sum ty : \sum t^2 = 18840 : 60 = 314$$

Hisob-kitoblarga ko‘ra to‘g‘ri chiziqli tenglama quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:  
 $y_t = 25182,3 + 314 \cdot t$

4.4.1 – jadvalning 8-ustunidan to‘g‘ri chiziqli funksiya bo‘yicha hisoblangan aholi sonining yig‘indisi 226641 ga teng.

Xuddi shunday yig‘indi empirik ma’lumotlar bo‘yicha hisoblash natijasidan ham olingan.

Demak,  $\sum y = \sum y_t$  tenglama hisob-kitoblarning to‘g‘ri amalga oshirilganligi tasdiqlandi. To‘g‘ri chiziqli tenglamadagi regressiya koefitsientining iqtisodiy ma’nosi – har yili aholi sonining soni o‘rtacha 314 ming kishiga oshayotganligidan dalolat beradi.

Regressiya tenglamasidan foydalanib, mavjud aholi sonining 2012 yilgacha bo‘lgan prognozini ekstropolyasiyalashimiz mumkin.

#### 4.4.2 – jadval

To‘g‘ri chiziqli regressiya tenglamasi yordamida O‘zbekiston Respublikasi aholisi sonini 2012 yilgacha ekstropolyasiyalash

Yillar	Mavjud aholi soni prognozi, ming kishi
2007	26752,3
2008	27066,3
2009	27380,3
2010	27694,3
2011	28008,3
2012	28322,3

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси йиллик статистик тўплами 2004. – Т., 2005, 45-бет.

4.4.2 – jadvaldan ko‘rinib turibdiki, hisob-kitoblarga qaraganda O‘zbekistonda mavjud aholi soni 2012 yilga kelib 28,3 mln.kishini tashkil qilishi mumkin.

Chet el mamlakatlarida aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbai: ro‘yxatlar, joriy hisob va istiqbolni belgilash hisoblanadi. Aholining o‘rtacha yillik sonini hisoblash, uni ifodalovchi kategoriyalarni aniqlash hamda uning tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasining asosiy vazifalaridan biridir.

### **Qisqacha xulosalar**

Chet ellarda aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbai: ro‘yxatlar, joriy hisob va istiqbolni belgilash hisoblanadi. Aholini o‘rtacha yillik sonini hisoblash, uni ifodalovchi kategoriyalarni aniqlash, hamda uning tabiiy va mexanik harakatlarini tahlil qilish TIF statistikasining asosiy vazifalaridan biridir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Chet ellarda aholi ro‘yxatlarini o‘tkazish qanday usulda amalga oshiriladi?
5. Aholi soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbai deganda nimani tushundingiz?
6. Aholining harakat ko‘rsatkichlari qanday?
7. Chet ellarda aholi tarkibini o‘rganish usullarni aytинг?
8. Aholi kategoriyalari nimalardan iborat?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Социально – экономическая статистика / Под ред. В.Н.Салина. Практикум. – М., 2004.
2. Доклад о развитии человеческого потенциала в странах Европа и СНГ – М.: ПРООН, 2002.
10. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикаси. Ўкув кўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
11. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
12. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
13. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
14. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
15. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
16. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## V bob. XALQARO MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI

- 5.1. Xalqaro mehnat resurslari haqida tushuncha, ularning tarkibi va taqsimlanishi.
- 5.2. Xalqaro mehnat bozori va uning xalqaro migratsiyasi statistikasi.
- 5.3. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar tahlili.
- 5.4. Mehnat resurslarini mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishini statistik o'rganish.
- 5.5. Zamonaviy jahon mehnat bozorining iqtisodiy-statistik tahlili.

### **5.1. Xalqaro mehnat resurslari haqida tushuncha, ularning tarkibi va taqsimlanishi**

Ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlarini tashkil etadi.

Bunda ishchi kuchi ishlab chiqaruvchi kuchlarning sub'ektiv elementi bo'lib, uning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi roli benihoya katta. Ishchi kuchisiz har qanday darajadagi taraqqiy etish, hatto, hozirgi zamon texnikasi ham jonsiz metallar to'plamiga aylanishi mumkin.

Mehnat ishlab chiqarish vositalariga tegishi bilanoq bu o'lik vositalarni tiriltiradi, ularga jon kiritadi, ularni mehnat jarayoni omiliga aylantiradi va ular bilan qo'shib mahsulot shakliga kiradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning moddiy buyum qismi o'tgan zamondagi jonli mehnat natijasi bo'lib, hozir bu buyumlashgan mehnat shaklida gavdalaniadi va har qanday ishlab chiqarish jarayonida hal qiluvchi omil sifatida ishtirok etadi.

Ishchi kuchi yoki mehnat qilib qobiliyati deganda, inson ega bo'lган va biron bir iste'mol qiymatlarini ishlab chiqargan vaqtida u har safar ishga soladigan jismoniy va ma'naviy qobiliyatlar tushuniladi.

Ishchi kuchi taklif va talabga ega. Ishchi kuchining o'z bozori mavjud, u mehnat bozori deb ataladi. U erda mehnat kuchini sotish va sotib olish mumkin. Mehnat kuchi o'zining bahosiga ega, va u har erda har xil bahoda bo'ladi.

Ishchi kuchi (ya'ni ishslash qobiliyatiga ega bo'lган shaxslarning barchasi) mehnat resurslarini tashkil etadi. Ular xalq xo'jaligi tarmoqlarida haqiqiy band bo'lган va shu tarmoqlarga jalb qilinishi mumkin bo'lган shaxslardan iborat.

Mehnat resurslari asosiy qismini aholining mehnatga yaroqli yoshdag'i qismi tashkil etadi. Mehnat yoshining quyi va yuqori chegarasi direktiv ravishda belgilanadi. Respublikamizda mehnat resurslarining mehnatga yaroqli yoshi ayollar uchun 16 yoshdan- 60 yoshgacha deb qabul qilingan. Ushbu chegaralarni belgilashda aholining turmush darajasi, sog'lijni saqlash, sport va maorif tizimlari, nafaqa ta'minotini sharoitlari, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy va demografik omillar hisobga olingan.

Jahonning ayrim mamlakatlarida yuqorida qayd etilgan chegaralar quyidagicha: AQShda yosh ikkala jins uchun 16 yosh va yuqori chegarasi 64 Fransiyada har ikkala jins vakllari uchun 15 yoshdan 59 yoshgacha, Yaponiyada esa bu ko'rsatkich 15-64 yoshni ko'rsatadi.

O‘zbekiston mehnat resurslari:

1.Yuqori darajali malakaga va intellektual rivojga ega.

2.Respublika katta yoshdagi aholisining savodxonlik darjasini dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlarga qaraganda juda yuqori (99,1%).

3.Moddiy ishlab chiqarish sohasida band bo‘lgan aholining 1/4 qismi oliy va o‘rta ma’lumotga ega.

4.Ilm-fan bilan band aholi har 10000 kishiga Gresiya va Portugaliyaga qaraganda 1,5 baravar yuqori.

5.Respublikada matematika, biologiya, fizika va shu kabi fanlar bo‘yicha olimlarning izlanishlari chet el mamlakatlarda ham mashhur, shu bilan birgalikda geliomaterialshunoslik kabi sohalardagi izlanishlar butun dunyo bo‘yicha eng rivojli deb tan olingan.

Respublikamizda mehnat resurslarining soni quyidagicha hisoblanadi:

1. Mehnat qilish yoshidagi aholi.

2. Mehnat qilish yoshida bo‘lgan, mehnatga layoqatsiz aholi (1;2 guruh nogironlari va imtiyozli qarilik nafaqasiga chiqqan 50-59 yoshdagi erkaklar va 45-54 yoshdagi ayollar).

3. Mehnat qilish yoshida bo‘lib, xalq xo‘jaligida band bo‘lмаган aholi (uyro‘zg‘or va yosh bolalarni tarbiyalash bilan shug‘ullanadigan ayollar va boshqalar).

4. Xalq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lgan nafaqaxo‘rlar va o‘smirlar (16 yoshdan kichik bo‘lмаганлар). Bunda mehnat potensial soni 1-2+4, haqiqiy soni esa 1-2-3+4 ning algebraik yig‘indisidan iborat. Mehnat resurslarining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida band bo‘lgan qismi iqtisodiy faol (aktiv) aholini tashkil etadi.

Iqtisodiy faol aholi tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) davlat, shirkat, jamoat va shaxsiy tashkilotlarning korxona va muassasalarida band bo‘lgan ishchi va xizmatchilar, fermerlar;

2) qishloq xo‘jaligidagi yordamchi tarmoqlarda band bo‘lgan dehqon, ishchi-xizmatchilarning o‘ila (hunarmandlar, yakka hol dehqonlar va boshqalar) a’zolari.

Iqtisodiy faol aholi sonining umumiyligi aholi soniga nisbati aholining iqtisodiy faollik darajasini ifodalaydi, ya’ni

$$\text{Aholining faollik darjasasi} = \frac{\text{iqtisodiy faol aholi soni}}{\text{aholining umumiyligi}} \cdot 100$$

Faol aholi soni mehnat resurslari soni bilan taqqoslansa mehnatga qobiliyatli potensial kuchlardan foydalanish koeffitsienti kelib chiqadi =  
$$\frac{\text{iqtisodiy faol aholi soni}}{\text{mehnat resurralaring potensial soni}} \cdot 100$$

Statistikada iqtisodiy faol aholini jinsi va yoshi tarkibi bo‘yicha o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki mehnat unumdonligi va mehnat faolligi darajasiga xodimlarning jinsi va yosh tarkibi ham birmuncha ta’sir etadi.

Xalq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining jismoniy va aqliy mehnat bilan shug‘ullanishi va uning ma’lumoti bo‘yicha tarkibini o‘rganish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan ayrim ziddiyatlarni bartaraf qilish jarayonlarini o‘rganish imkonini beradi.

<b>Umumiy band aholida iqtisodiyot sohasida band bo‘lgan aholi salmog‘i 2004 yil, (%)da</b>		
Sanoat va qurilish	Qishloq xo‘jaligi	Xizmat ko‘rsatish
Belorussiya.....35,2	Tojikiston.....67,5	Qozog‘iston.....59,9
Rossiya.....30,0	Qirg‘iziston.....52,9	Rossiya.....57,0
Ukraina.....24,4	Moldova.....48,8	Ukraina.....53,1
Armaniston.....20,2	Turkmaniston.....48,0	Belorussiya.....53,0
O‘zbekiton.....19,9	Ozarboyjon.....43,5	O‘zbekiston.....49,7
Qozog‘iston.....18,4	Armaniston.....42,5	Ozorboyjon.....46,4
Turkmaniston.....18,0	O‘zbekiston.....30,4	Armaniston.....38,7
Moldova.....13,0	Ukraina.....22,5	Moldova.....38,2
Qirg‘iziston.....11,4	Qozog‘iston.....21,7	Turkmaniston.....36,0
Ozarboyjon.....11,2	Belorussiya.....14,1	Qirg‘iziston.....35,7
Tojikiston.....9,6	Rossiya.....13,0	Tojikiston.....22,9

Milliy xo‘jalikning nodavlat sektorida band bo‘lgan iqtisodiy faol aholining salmog‘i 2000 yilda 76%ni tashkil qilgan. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich boshqa qo‘shni davatlarda, ya’ni MDH davlatlariga qaraganda, yuqori (taqqoslash uchun: MDH bo‘yicha shu yili xususiy sektorlarda 55% aholi band bo‘lgan, shu jumladan Qozog‘istonda 77,1%; Qirg‘izistonda 72,8%; Armanistonda 72,4%; Moldovada 69,6%; Ukrainada 65,5%; Ozorboyjonda 63%; Tojikistonda 61%; Rossiyada 45%; Belorussiyada 42,5%)

MDH statistika qo‘mitasi tomonidan berilgan m'lumotlarga ko‘ra, kichik tadbirdorlikda band bo‘lganlar Ozorboyjonda 13%ni, Armanistonda, Belorussiya, Qozog‘istonda va Ukrainada 5%ni, Qirg‘izistonda 4%ni, O‘zbekiston va Turkmanistonda taxminan 3%ni, Tojikistonda taxminan 1%ni tashkil etgan.

## **5.2. Xalqaro mehnat bozori va mehnat bozorining xalqaro migratsiyasi statistikasi**

Mehnat resurslari to‘g‘risidagi eng aniq ma'lumotlar, odatda, aholi ro‘yxati o‘tkazish natijasida olinadi. Aholi ro‘yxati o‘tkazish dasturidagi mehnat resurslariga taalluqli savollar, xususan, kishilarning yoshi, ish bilan bandligi, qaysi sohada ishlashi, ma'lumoti, jinsi kabi savollar mehnat resurslarining soni va turli belgilar bo‘yicha tarkibini, aholi ro‘yxati yoppasiga o‘tkazilishi sababli, aniq belgilashga imkon beradi.

O‘zbekiston Respublikasida oxirgi marta aholi ro‘yxati 1989 yilda o‘tkazilgan. O’tgan 16 yil oraliq‘ida mehnat resurslari ko‘rsatkichlarini aniqlashda joriy statistik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi. Xalqaro talablarga ko‘ra, aholi ro‘yxatini o‘tkazish har 10 yilda tashkil qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda mehnat resurslari soni va tarkibini hisoblash uchun Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan «Mehnat resurslari balansini tuzish va ishga joylashishga muhtojlar sonini aniqlash metodikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmasi» ishlab chiqilgan (Toshkent-O‘zbekiston-2002 yil) va chop etilgan.

Ushbu qo‘llanma xalqaro andozalarga asoslanib, respublikamizning o‘ziga xos

xususiyatlarini inobatga olgan holda tayyorlangan. Mehnat resurslari balansini tuzishda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligining ishchi kuchi bandligi masalalariga oid tekshiruvlari statistik axborotlar manbai sifatida xizmat qiladi.

Qo'llanmada quyidagi asosiy atamalar va tushunchalar qo'llanilgan.

Mehnat bozori statistikasi ko'rsatkichlar tizimini tuzishda statistik tahlil uchun g'oyat muhim hisoblanadigan quyidagi guruhashlardan foydalanadi:

1. Mehnatga layoqatlilik eshlari bo'yicha guruhashlari.

2. Hududlararo guruhash, shu jumladan, shahar va qishloq joylarida yashashiga qarab guruhash.

3. Band aholini xo'jalik yuritishning ijtimoiy shakllari bo'yicha guruhash (davlat korxonalari va muassasalari; jamoa mulki shaklidagi korxonalar; aktsionerlik jamiyatlar, shirkatlar va h.k.; xususiy korxona va muassasalar; xorijliklarga tegishli korxonalar; aralash mulk shaklidagi korxonalar).

4. Barcha turdag'i iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro standart tarmoqlar tasnifi bo'yicha guruhash (qishloq va o'rmon xo'jaligi, ovchilik; baliqchilik; qazib olish sanoati; qayta ishlash sanoati; elektroenergiya, gaz va suv ishlab chiqarish; qurilish; savdo, mehmonxonalar va restoranlar; transport, aloqa va omborxona xo'jaligi; ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, ishlab chiqarish xizmatlari va ijara; boshqaruv, mudofaa, ijtimoiy sug'urta; maorif; sog'liqni saqlash; boshqa shaxsiy va jamoa xizmatlari: atrof muhitni himoyalash, sport, dam olish, turizm, madaniy tadbirlar, uy xo'jaliklariga pullik xizmatlar; hududdan tashqari tashkilotlar).

5. Bandlik holatiga qarab guruhash.

6. Kasb bo'yicha guruhash.

Mehnat resurslari - mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga layoqatli kishilar va qonunchilikda belgilangan iqtisodiy faol aholining quyi va yuqori chegaralaridan tashqarida bo'lib, haqiqatda ishlayotganlardir.

Mehnatga layoqatli yoshdag'i mehnatga layoqatli kishilar ishlamayotgan 1 va 2 guruh nogironlari va imtiyozli shartlar bo'yicha yoshi etmasdan nafaqaxo'rлardan tashqari mehnatga layoqatli kishilar (erkaklar - 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar - 16 yoshdan 55 yoshgacha).

Bandlar tarkibiga ko'rinishda davr uchun quyidagilar kiritiladi:

a) pul ko'rinishda yoki naturada daromad olish uchun haftasiga 2 soatdan kam bo'lmanishda ish bajarish uchun yollanganlar va, shuningdek, o'z faoliyatlar uchun, daromad olish muddatidan qat'iy nazar, yollanmasdan foyda yoki oila daromadi oladiganlar;

b) kasallik yoki majruh bo'lish, kasalga qarash; har yilgi mehnat ta'tili yoki dam olish kunlari, ish joyidan tashqarida o'qish, ma'muriyat xohishiga ko'ra ish haqi saqlangan yoki saqlanmagan holda ta'tilda bo'lganlar va boshqa shunga o'xshash sabablarga ko'ra vaqtincha ishda bo'lmanlar;

v) oilaviy korxonada ish haqi olmasdan ish bajarganlar.

Mehnat qilish uchun ishga joylashishga muhtoj bo'lgan band bo'lmanlarga - amaldagi qonunchilikka ko'ra (mehnat idoralari tomonidan tashkil qilingan haq to'lanadigan ishlarda qatnashish davrini ham hisoblaganda) ishsiz sifatida rasmiy ro'yxatdan o'tganlar va shuningdek faol mehnat idoralari yordamida yoki mustaqil

ish qidirayotganlar, ish topilishi bilan darhol unga kirishishga tayyorlar, lekin hozircha daromad keltiradigan faoliyat bilan band bo‘lmajanlar (yoki haftasiga 2 soatdan kam haq to‘lanadigan ish bajarganlar) yoki haq to‘lanadigan ish bilan band bo‘lmajanlar kiradi.

Iqtisodiy faol aholi - aholining o‘z mehnatini mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish uchun taqdim etayotgan qismi bo‘lib, u band bo‘lganlar va ishsizlar toifasini o‘z ichiga kiritadi. Iqtisodiy faol aholi ba’zi adabiyotlarda ishchi kuchi deb ham yuritiladi. Milliy hisoblar tizimiga (MHT) ko‘ra, iqtisodiy faol aholiga iqtisodiy faol fuqarolar va harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxslar ham kiritiladi.

Statistika amaliyotida bandlik tushunchasining ikkita izohi mavjud. Birinchisi, milliy bandlik, ya’ni yuridik nuqtai nazardan mazkur davlatda yashayotganlarni o‘z ichiga olib, boshqa davlatdagi korxonalarda ishlovchi rezidentlar hisobga kiritilib, mazkur davlatning chet el ishlab chiqarish birliklarida ishlayotgan norezidentlar ayrıldi. Ikkinchisi, ichki bandlik, ularga quydagilar kiritiladi:

- chet el ishchilari. Mazkur davlatda ishslash uchun har kuni chegaradan o‘tuvchilar;

- davlatdan tashqari joylarda xizmat qilayotgan harbiylar;
- davlat geografik hududidan tashqarida ishlayotgan mazkur davlat fuqarolari;
- xorijda diplomatik tashkilotlarda band bo‘lgan mazkur davlat fuqarolari;
- mazkur davlat fuqarolari boshqarayotgan samolyot, platformalar, kemalar va h.k.larda band bo‘lgan kishilar;

- mazkur davlat tashqarisida joylashgan davlat tashkilotlari xodimlari.

Shunday qilib, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning umumiy soniga mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha korxonalar, tashkilotlarda band bo‘lganlar, yakka tartibdagi mehnat bilan shug‘ullanuvchilar, oilaviy korxonalarda mehnat haqi olmasdan band bo‘lganlar kiritiladi.

Iqtisodiy faol bo‘lmajan aholi tarkibiga mehnatga layoqatli, lekin ishchi kuchiga kirmagan aholi kiritiladi. Ular quydagilardir:

- o‘quv yurtlarida ishlab chiqarishdan ajragan holda o‘qiyotgan o‘quvchilar va talabalar, tinglovchi va kursantlar (akademik litseylar, kasbiy kollejlar, texnikum va oliy o‘quv yurtlari, kurslar, kunduzgi aspirantura va doktoranturalarni ham qo‘shganda);

- yosh bo‘yicha imtiyozli shartlarda nafaqa oluvchilar, 1 va 2 guruh nogironlari, hamda ishslashni xohlamagan 3 guruh nogironlari;

- uy xo‘jaligida band bo‘lgan, bolalar va kasallarga qarayotgan ishslashni xohlamayotgan yoki daromad keltiradigan ish taklif qilingan taqdirda ish boshlash imkoniyatiga ega bo‘lmajanlar;

- o‘z xohishlari bilan band bo‘lmajan ishslashni xohlamaganlar, shuningdek ishslashni xohlaydigan, lekin o‘zini daromad bilan ta’minlash maqsadida ishga joylashish uchun hech qanday harakat qilmayotganlar.

Yuqoridagi ta’riflarda berilgan ko‘rsatkichlardan foydalaniib mehnat resurslari balansini tuzish mumkin. Mehnat resurslari balansi - mehnat resurslarining soni va ularni iqtisodiyot tarmoqlari va iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimidir. Amaliyotda hisobot va prognoz mehnat resurslari balanslari tuziladi.

Hisobot mehnat resurslari balansi - hisobot davrida (odatda yil) mehnat resurslarining haqiqiy soni va ularning taqsimlanishini ifodalab, hisobot davrida ishchi kuchini statistik kuzatish natijasida tuziladi.

Mehnat resurslarining prognoz balansi - mehnat resurslari va uning taqsimlanishi prognozlariga asoslanib qisqa, o'rta va uzoq muddatlar uchun tuziladi.

Mehnat resurslarining hisobot balansi har yili O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha 1-ilovada keltirilgan shaklda shahar va qishloq joylariga ajratilib tuziladi.

Hisobot balansida quyidagi ko'rsatkichlar keltiriladi:

1. Mehnat resurslari soni. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$MR = MLYoA + IO'N$$

bu erda:

MR - mehnat resurslari;

MLYoA - mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi;

IO'N - ishlayotgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar.

Mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli aholi sonini hisoblashda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonidan (erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar - 16 yoshdan 55 yoshgacha) mehnatga layoqatli yoshda bo'lgan ikkala jinsdagi 1 va 2 guruh nogironlari soni ayrıldi:

$$MLYoA = 3(16-60) + A(|b-55|) - Nog.,$$

bu erda,

E(16.60) - 16 yoshdan 60 yoshgacha erkaklar soni,

A(16-55] ~ 16 yoshdan 55 yoshgacha ayollar soni,

Nog. - ikkala jinsdagi mehnatga layoqatli yoshdagi 1 va 2 guruh nogironlari soni.

Yuqoridagi ma'lumotlarni olish manbalari:

- mehnatga layoqatli yoshdagi erkaklar va ayollar soni uchun - aholining yosh va jinsi bo'yicha tarkibini ifodalovchi statistik ma'lumotlar;

- nogironlar soni uchun - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligining mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlar soni to'g'risidagi ma'lumotlari;

- ishlayotgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar soni uchun - korxonalarining ishlayotgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar soni to'g'risidagi statistik hisobotlari,

2. Iqtisodiy faol aholi soni. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$IFA = BA + BB,$$

bu erda: IFA - iqtisodiy faol aholi soni; BA - band aholi soni; BB - ishga joylashishga muhtoj bo'lgan band bo'lmagan aholi soni.

O'z navbatida band aholi soni quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$BA = BAR + BALCh + BA_{nr},$$

bu erda: BAR - yuridik shaxs sifatida shakllanmasdan faoliyat yuritayotgan qayd qilingan tadbirkorlarni ham qo'shib hisoblagandagi iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar soni; BALX - dehqon xo'jaligidagi band bo'lganlar soni; BA<sub>nr</sub> - iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar soni.

Yuqoridagi ma'lumotlarni olish manbalari:

BAR - korxona va tashkilotlarning mehnat bo'yicha statistik hisobotlari va soliq idoralarining ma'lumotlari;

BADX - statistik ma'lumotlar va ishchi kuchi bo'yicha statistik kuzatuvlar;

BA<sub>nr</sub> - ishchi kuchi bo'yicha statistik kuzatuvlar.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlarga rasmiy statistikada hisobga olinmagan, doimiy, vaqtincha, bir marotabalik va mavsumiy ishlarga yollanganlar, shu jumladan, bu ishlarni bajarish uchun respublikadan tashqariga chiqayotganlar, o'z biznesini olib borayotgandir, yollanmasdan o'z sheriklari bilan ishlayotganlar, qonunda taqiqlanmagan, lekin ro'yxatdan o'tmasdan faoliyat yuritib daromad olayotganlar (masalan, mol, qo'y va echkilarni boqish bilan band bo'lganlar, dehqon va chakana bozorlarda sotuvchi va haridorlarga xizmat ko'rsatayotganlar, xususiy tashish va boshqa faoliyat bilan shug'ullanayotganlar) kiradi.

Iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar sonini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi tomonidan maxsus savolnomalar asosida har chorakda ishchi kuchini tanlama kuzatish jarayonida aniqlanadi. Buning uchun:

a) har bir ish turi bo'yicha tanlama kuzatish natijasida aniqlangan iqtisodiyotning norasmiy sektorida band bo'lganlar sonining tanlama kuzatishda qatnashgan barcha mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar sonidagi salmog'i aniqlanadi:

$$S_i = A_{-1} : S * 100$$

bu erda:  $S_i$  - iqtisodiyot norasmiy sektorining ayrim aniq (i) turi bilan shug'ullanayotganlarining tanlama kuzatish jarayonida qatnashgan umumiyl kishilar sonidagi salmog'i;  $A_{-1}$  - tanlama kuzatish jarayonida aniqlangan iqtisodiyot norasmiy sektorining ayrim aniq (i) turi bilan shug'ullanayotganlar soni;  $S$  - tanlama kuzatish jarayonida qatnashgan umumiyl kishilar soni.

b) yuqorida olingan salmoqlarga asoslanib iqtisodiyot norasmiy sektorida aniq faoliyat turi bilan band bo'lganlar soni aniqlanadi:

$$NRSB, - MLYoA * S, : 100,$$

bu erda: NRSB, - iqtisodiyot norasmiy sektorida ayrim aniq (i) faoliyat bilan shug'ullanayotganlar soni; MLYoA - mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni.

Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni to'g'risida statistik ma'lumotlar manbai bo'lib aholining yoshi va jinsi bo'yicha statistik hisobotlar hisoblanadi.

v) iqtisodiyot norasmiy sektorida band bo'lgan barcha kishilar sonini aniqlash uchun ayrim aniq faoliyat turi bilan band bo'lganlar soni jamlanadi:

$$NRSB = X NRSB_i,$$

bu erda:

NRSB - iqtisodiyot norasmiy sektorida band bo'lgan barcha kishilar soni.

Band aholi ushbu metodikaga ko'ra tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat turlariga guruhlanadi. Iqtisodiyot tarmoqlari va faoliyat turlari milliy tasnifga (klassifikasiya) ko'ra belgilanadi. Bunday ma'lumotlar manbai ishchi kuchini tekshirish bo'yicha statistik hisobotlardir.

Band bo'limgan va ishga joylashishga muhtojlar mehnatga layoqatli yoshdagi band bo'limganlar tarkibiga kiritilib, ularga mehnat idoralari tomonidan ishsiz degan maqom berilishi, mehnat idoralari ish qidirayotgan, deb qayd qilinishi yoki mustaqil tarzda mehnat idoralari murojaat qilmasdan ish qidirayotgan bo'lishi

lozim. Bu ma'lumotlar mehnat idoralari tomonidan yig'ib boriladi.

Ish qidirayotganlar sonini aniqlash uchun mehnat idoralarida mehnat balansi tuzilayotgan vaqtda hisobda turganlardan shu vaqtda rasmiy tarzda ishsiz degan maqom berilganlar, ishsizlik bo'yicha nafaqa olayotganlar, mehnat idoralari yo'llanmasi bilan ijtimoiy ishlarda qatnashayotganlar, kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash, malakani oshirish bilan shug'ullanayotganlarni ayirish kerak.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, ya'ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga ko'chib yurishi tashqi iqtisodiy aloqalarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Insoniyat tarixi odamlarning katta-katta guruhlarini u yoki bu mamlakatga ko'chirishlari bilan bog'liq voqeа-hodisalarga boy: G'arbiy Evropa mamlakatlari tomonidan Shimoliy Amerikaning o'zlashtirilishi, Britaniya orollaridan chiqqanlarning Avstraliya qit'asini egallashlari, Xitoydan Janubiy Osiyo mamlakatlariga ommaviy ko'chirishlar, Shimoliy va Janubiy Amerikaga Afrikadan qora tangli qullarni tashib keltirilishi bir qator hozirgi rivojlangan davlatlarning vujudga kelishi va yuksalishiga sabab bo'lgan (AQSh, Kanada, Avstraliya, yangi sanoatlashgan mamlakatlar va boshqalar). Jahan iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida ishchi kuchi migratsiyasi jarayoni yuz berib keldi, ayniqsa, u ikkinchi jahon urushidan so'ng yanada kuchaydi.

Hozirgi paytda statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyodagi har o'n oiladan biri ko'chib yuradi, ularning to'rtdan uch qismi ishchi kuchi migratsiyasiga to'g'ri keladi. Dunyo bo'yicha bunday ishchi kuchlarining umumiyligi soni 25 mln. kishiga yaqin.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining hozirgi darajasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida ishchi kuchining o'rni va ahamiyatini tubdan o'zgartirib yubordi, davlatlararo aloqalar madaniyatini sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tardi.

Xalqaro mehnat bozori. Xalqaro mehnat bozori bu nima?

Xalqaro mehnat bozori ishchi kuchi iste'molchilarini va ularni etkazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizmdir.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi uni jahon bozorida ham faol qatnashishini taqozo etadi.

O'zbekiston mustaqil davlatlar sifatida iqtisodiyotni mustaqil ravishda isloh qilishining dastlabki yillardagi o'zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Shu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali ishchi kuchini jalb etish imkoniyatlari ham yuzaga keldi.

Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalari kabi O'zbekistonda ham aholining tashqi migratsiyasi ikki oqimda ro'y bermoqda:

1. Mehnat migratsiyasi, ya'ni qaytib kelish va fuqorolikni saqlash sharti bilan;
2. Etnik migratsiya, ya'ni qaytib kelmaslik va fuqorolikni saqlamasligi sharti bilan.

Hozirda O'zbekistonda jahon mehnat bozorida faol qatnashishini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar shakllanmoqda va bu sohadagi davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

### **5.3. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar tahlili**

Ma'lumki, jahon mehnat bozoridagi vaziyat boshqa barcha bozorlar kabi talab va taklif asosida aniqlanadi hamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillar shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy omillarga bo'linib, ular o'zaro bog'langan. Bular orasida iqtisodiy omillar eng muhim sanaladi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Chunonchi, mamlakatlardagi ishchi o'rinaliga nisbatan aholining tez sur'atlar bilan o'sishi.

Iqtisodiy omillar deganda, har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligini, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'لامи tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchini mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSh va Meksikadagi daromadlarning taxminan 10 baravarga farq qilishi meksikalik ishchilarni AQShga ish qidirib ko'chib o'tishlarining asosiy sababidir. 80-yillarning boshida Evropa Hamjamiyati mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi Hamjamiyatga a'zo bo'lмаган mamlakatlarnikidan 4,7 marta ortiq bo'lgan. Shunday qilib, Er yuzida boy va rivojlanмаган mamlakatlarning mavjudligi xalqaro mehnat bozori amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Jahon mehnat bozorining ahvoli u yoki bu davlatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bunday bog'liqlik davriy pasayishlar va ko'tarilishlar paytida, jahon bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifda bevosita aks etadi hamda mamlakat qanchalik yirik bo'lsa, uning ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Masalan, 1991-1992 yillarda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida davriy pasayish ro'y berdi. Buning natijasida, 1992 yilning o'rtalariga kelib rasmiy ro'yxatlardan o'tgan ishsizlar soni 30 mln. dan oshib ketdi, ishsizlik darajasi 1974 yildagi 5,2%dan 6,0%ga ko'tarildi. Shu bilan birga bunday holat o'z navbatida rivojlangan mamlakatlarda xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan talab pasayishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori tub ma'noda mustaqillik yillaridan boshlab shakllanib bordi. 1992 yilda Oliy Majlis tomonidan "Aholi bandligi to'g'risida" qonun qabul qilindi. Shundan so'ng respublikada bandlik sohasida bozor infratuzilmalari va uni boshqarish mexanizmlari yaratila boshlandi. Natijada hozirgi paytga kelib mehnat faoliyatining turli mulkchilik shakllari, tadbirkorlikka asoslangan turli shakl va usullari paydo bo'ldi. Bozor munosabatlariga faol kirishgan aholining tadbirkor qatlamlari shakllandı. Oxirgi paytlarda aholini ishga joylashtirish masalasida ustunlik ko'proq nodavlat sektoriga berilmoqda. Respublikamizda ishlab chiqilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiyligi strategiyasi bir qancha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topdi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish masalasining rivojlanib ketishiga mamlakatimiz Prezidentining 1994 yil 21 yanvarida qabul qilgan "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk va tadbirkorlik rivojini himoyalash to'g'risida"gi Farmoni katta turtki bo'ldi. Natijada mehnat bozori sohasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi bozor iqtisodiyotiga o'tishning ikkinchi bosqichiga o'tildi.

Respublikamizda oxirgi yillarda aholining mutlaq va nisbiy bandligi oshib bormoqda. Iqtisodiyotda band bo‘lganlar soni muttasil oshib bormoqda. Agar 1991 yilning oxirlarida iqtisodiyotning turli sektorlarida band bo‘lganlar soni 8.254,6 ming kishini, 1996 yilda 8.561,0 ming kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2004 yil oxiriga kelib 9.910,6 ming kishini tashkil qildi. Ya’ni, band aholi soni 2004 yilda 1991 yilga nisbatan 1.656,0 ming kishiga yoki 20,1 foizga oshdi. Band aholining o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘sish sur’ati yiliga 3,4 foizni tashkil qildi (2.2.1-jadval).

Ishchi kuchining ochiq bozori iqtisodiy faol aholining nisbatan kam qismini qamrab olgan, unda asosan malakasiz (o‘rta ma’lumotli kishilar) kadrlar qatnashadi.

2004 yilda mehnat resurslarining o‘rtacha soni 14.021 ming kishini tashkil qilib, u doimiy aholining 54,2 foiziga teng. Iqtisodiy faol aholi soni 9.945,5 ming kishi bo‘lib, undan 99,6 foizi, ya’ni 9.910,6 ming kishi iqtisodiyotda band bo‘lgan.

2004 yilda band bo‘lgan aholining 31,0 foizi qishloq va o‘rmon xo‘jaligida, 13,3 foizi maorif, madaniyat, san’at, fan va fanga xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida, 13,0 foizi sanoatda, 8,7 foizi savdo, umumiyligi ovqatlanish, ta’minot va tayyorlash tarmoqlarida, 8,2 foizi qurilishda va 7,0 foizi sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritganlar (5.3.1- jadval).

### 5.3.1-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida band bo‘lganlarning 2004 yilda tarmoqlararo taqsimlanishi<sup>1</sup>

Tarmoqlar	2004 yil	
	Ming.kishi	jamiga nisbatan, %
Jami	9910,6	100,0
Sanoat	1283,9	13,0
Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi	3067,6	31,0
Qurilish	808,1	8,2
Transport va aloqa	461,0	4,7
Savdo, umumiyligi ovqatlanish, ta’minot va tayyorlash	857,6	8,7
Uy-joy va kommunal xizmat ko‘rsatish	301,1	3,0
Maorif, madaniyat, san’at, fan va fan xizmati	689,0	7,0
Moliya va kredit	1321,0	13,3
Boshqalar	52,8	0,5
	1068,5	10,8

Band bo‘lganlarning mulkchilik shakli bo‘yicha taqsimlanishiga nazar tashlasak, umumiyligi band bo‘lganlarning 23 foizi davlat tasarrufidagi korxona va tashkilotlarda xizmat qilgan bo‘lsalar, 73 foizi nodavlat sektorida faoliyat yuritganlar. Nodavlat sektorida band bo‘lgan 7.631,2 ming kishidan 4.687,7 ming kishi, ya’ni 61,4 foizi individual tadbirkorlardir (5.3.2-jadval).

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида хисобланган.

### 5.3.2-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida band bo‘lganlarning 2004 yilda mulkchilik shakli bo‘yicha taqsimlanishi

Mulkchilik shakllari	2004 yil	
	Ming.kishi	jamiga nisbatan, %
Davlat	2279,4	23,0
Nodavlat	7631,2	77,0
Shu jumladan individual tadbirkorlar	4687,7	47,3
Jami	9910,6	100,0

2004 yilda 2003 yilga nisbatan band aholi soni 3,4 foizga oshdi, shu jumladan, moddiy ishlab chiqarish sohalarida 2,8 foiz va noishlab chiqarish sohalarida - 4,8 foiz.

Band aholining asosiy qismi moddiy ishlab chiqarish sohalarida (67,7 foiz) faoliyat yuritishgan. 2003 yilga nisbatan 2004 yilda qurilish tarmog‘ida band bo‘lganlar soni 5,9 foiz, transport va aloqada - 5,5 foiz, savdo, umumiy ovqatlanish, ta’midot va tayyorlashda - 5,2 foiz, uy-joy - kommunal xo‘jaligi va nomoddiy maishiy xizmat ko‘rsatish sohalarida - 5,3 foiz, sog‘liqni saqlashda - 5,1 foiz, maorif, madaniyat, san’at, fan va fanga xizmat ko‘rsatish sohalarida - 5,1 foizga ko‘paydi.

Nodavlat sektorida band bo‘lganlar salmog‘i 2003 yildagi 76,8 foizdan 2004 yilda 77,0 foizga ko‘paydi.

#### 5.4. Mehnat resurslarini mintaqalar va mamlakatlar bo‘yicha taqsimlanishini statistik o‘rganish

Aholining o‘sish sur’ati, aholi sonining ko‘payishi yoki qisqarishi bilan bog‘liq omillar demografik omillar sanaladi. Jumladan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining yuqori darajada o‘sishi, bu mamlakatlarning og‘ir iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirib, tashqi migratsiyaga shart-sharoit yaratadi hamda ularni jahon bozoriga ishchi kuchi etkazib beruvchi davlatlarga aylantiradi. Boshqacha aytganda, bu davlatlar ishchi kuchining asosiy iste’molchisi bo‘lib, iqtisodiy o‘sish sur’ati aholining o‘sish sur’atidan yuqori bo‘lgan mamlakatlar hisoblanadi. Masalan, 90-yillarning boshlarida Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida iqtisodiy faol aholi yiliga o‘rtacha 0,8% ko‘paydi, ichki milliy mahsulot hajmi 3%ga oshdi.

Ishchi kuchi sonining mintaqalar, alohida mamlakatlar doirasida o‘zgarishini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

### 5.4.1-jadval

#### Ishchi kuchining mintaqalar, alohida mamlakatlar bo'yicha taqsimlanishi

Mintaqalar, mamlakatlar	1990 yil	2003 yil	O'sish sur'ati (%da)
Butun dunyo	1,957374	2363547	120,7
Rivojlangan davlatlar: Shimoliy Amerika	121721	135367	111,2
G'arbiy Evropa	150080	159579	106,3
Avstraliya-Yangi Zellandiya	8077	9533	118,0
YAponiya	57097	62202	108,9
Turkiya	19090	23697	121,1
Isroil	1446	1906	124,2
Janubiy Afrika Respublikasi (JAR)	9449	12434	131,6
Rivojlanayotgan davlatlar: Sharqiy Evropa	7566	71785	107,1

Aholishunos mutaxassislarning taxminlariga ko'ra, o'tgan asrning so'nggi yillarda vujudga kelgan er yuzi aholisining o'sish tendensiyasi XXI asrning boshlarida ham saqlanib qoladi. Juhon aholisi 2025 yilgacha 3,26 mlrd. kishiga ko'payishi kutilmoqda. Bu asosan «uchinchi dunyo» mamlakatlari hisobiga bo'ladi. Ya'ni «uchinchi dunyo» mamlakatlarining Evropa mamlakatlariga va AQShga «demografik tazyiqi» 200 yillarning o'rtalarigacha saqlanib qolishi mumkin.

### 5.4.2-jadval

#### Ayrim jahon mamlakatlari mehnat resurslarining jinsiy tuzilishi va o'sish sur'atlari

Mamlakatlar	Mehnat resurslari, 2003 yil			
	15-64 yoshdagi ishchilar, ming kishi		O'rtacha yillik o'sish, %	
	Erkak	Ayol	1965-1991	1995-2025
<b>Janubiy-Sharqiy Osiyo</b>				
Vietnam	19299	16996	2,53	2,05
Indoneziya	52766	24161	2,48	1,50
Xitoy	406660	316623	2,60	0,41
Malayziya	5365	3004	3,49	2,01
Myanma	12529	6983	2,33	1,90
Tailand	16542	13084	2,66	0,63
Fillipin	17426	7644	2,85	1,91
<b>Evropa va Markaziy Osiyo</b>				
Ozarbayjon	1670	1278	2,23	
Armaniston	387	754	2,71	
Belarus	2671	2551	1,42	
Bolgariya	2225	2007	0,00	-0,07
Vengriya	2878	2398	0,34	-0,15
Gruziya	1381	1179	1,13	
Qozog'iston	4192	3608	2,30	
Latviya	962	827	2,41	
Qirg'iziston	660	631	0,62	0,02

Litva	953	888	0,87	0,2
Moldova	1081	1025	1,13	
Polsha	10583	36613	0,88	0,34
Rossiya	39212	9081	1,04	
Ruminiya	6112	5373	0,43	0,42
Tojikiston	1082	792	2,7	
Turkmaniston	816	663	2,95	
Turkiya	17067	8856	2,36	1,65
O‘zbekiston	4240	3644	2,83	
Ukraina	13060	12496	0,66	
Estoniya	394	372	0,76	
<b>Lotin Amerikasi</b>				
Argentina	8472	3442	1,25	1,28
Braziliya	41470	16551	2,90	1,31
Kolumbiya	8788	1553	2,72	1,52
Meksika	23132	8937	3,58	1,83
Venesuela	5351	2154	3,73	1,75
<b>Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika</b>				
Jazoir	5926	676	3,06	3,32
Misr	14430	1687	2,70	2,35
Eron	15765	3737	3,86	3,74
Marokash	7100	1893	3,39	2,52
Suriya	2911	634	3,69	4,46
<b>IHTT ga a’zo mamlakatlar</b>				
Buyuk Britaniya	17290	10941	0,45	-0,04
Germaniya	24381	15493	0,52	-0,31
Ispaniya	10741	3527	0,84	0,08
Italiya	15653	7469	0,45	-0,41
Kanada	8353	5607	2,24	0,65
AQSH	73443	52242	1,70	0,44
Fransiya	15641	10721	0,95	-0,07
Yaponiya	16799	23025	0,83	-0,35
<b>Janubiy Osiyo</b>				
Bangladesh	31458	2723	2,57	2,75
Hindiston	260802	83502	2,09	1,61
Pokiston	34008	5344	2,29	3,21
<b>Afrika</b>				
Zoir	9530	5128	2,45	3,54
Nigeriya	26686	13993	2,73	3,19
Sudan	6630	2045	2,87	3,42
Efiopiya	13425	7777	2,17	2,86
Janubiy Afrika Respublikasi	9275	5150	2,56	2,40

Ayrim mamlakatlardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta’sir etib, mamlakat ishchi kuchini chetga oqimini keskin kuchaytirdi. Masalan, siyosiy omil sobiq sotsialistik mamlakatlarda ro‘y bergan keng ko‘lamli aholi migratsiyasini aniqlovchi sabablardan biri bo‘ldi. Agar bu

mamlakatlarda aholi migratsiyasi – 90-yillarning boshlarigacha ko‘rilgan qattiq chora-tadbirlar natijasida to‘xtatib turilgan bo‘lsa, islohatlarning boshlanishi va barcha ma’muriy to‘siqlar olib tashlanishi bilan muxojirlar oqimi keskin ortdi, oqibatda bu jarayon jahon mehnat bozoridagi vaziyatga, ayniqsa uning Evropa qismiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Dastlab Yugoslaviya, so‘ngra Vengriya, Polsha, yirik miqdorda ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarga aylandilar. Keyingi paytda bu mamlakatlarga sobiq Ittifoqdan 250 mingga yaqin kishi, G‘arb mutaxassislarining hisoblari bo‘yicha esa, 500 mingga yaqin kishi Evropa mamlakatlariga ishlash va yashash uchun ketishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiy, demografik va siyosiy omillarning umum ta’siri jahon mehnat bozoridagi ahvolni, uning miqyosi, tarkibi va rivojlanish sur’atlarini belgilab berdi.

### **5.5. Zamonaviy jahon mehnat bozorining iqtisodiy-statistik tahlili**

Ishchi kuchi xalqaro migratsiyasi so‘nggi o‘n yilliklarda kuchaya borib, dunyo bo‘ylab keng yoyilmoqda hamda jahon xo‘jaligi taraqqiyotiga, mehnat resurslari bilan ayrboshlashga faol jalb etilgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va madaniy-diniy vaziyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Rasmiy ma’lumotlarga qaraganda, 2003 yilda G‘arbiy Evropa mamlakatlarida 15,2 mln. ga yaqin xorijliklar istiqomat qilgan, shu jumladan, Evropa Hamjamiyati mamlakatlarida 13,4 mln. kishi yoki tub aholining 5%i Evropaning ayrim mamlakatlarida ularning salmog‘i yanada yuqori. Xususan, Shvetsiyada- 16,5%, Belgiyada-9,1%, Germaniyada-8,4% mutaxassislar ulushi 10%ga etadi.

O‘z navbatida, Evropa mamlakatlaridan ham har yili millionlab odamlar yaxshi hayot qidirib turli davlatlarga ko‘chib boradilar. Masalan, xorijiy ishchilar soni AQShda 5,65 mln., Lotin Amerikasida 3,5-4 mln., Yaqin Sharq va Shimoliy Amerika mamlakatlarida –2,8 mln., G‘arbiy Afrikada 1,3 mln. kishini tashkil etadi.

Ishchi kuchi jahon bozorining asosiy markazlari.

Hozirgi paytda migratsiya oqimining geografik yo‘nalishlari bo‘yicha ishchi kuchi jahon bozorining 4 ta yirik markazi shakllangan. Birinchi markaz 60-70 yillarda Yaqin Sharq mamlakatlarida neft qazib chiqarish sanoatining taraqqiy etishi, unga bog‘liq ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishi bilan tarkib topgan. Bu mamlakatlarda ishchi kuchiga talabning keskin oshishi, asosan, chet el fuqorolarini jalb qilish hisobiga qondirilishi mumkin edi, xolos. Bu davrdan boshlab mazkur mintaqada jadal migratsiya jarayonlari boshlandi. Ishchi kuchlarining sonida xorijiy ishchi kuchining ulushi (Pokiston, Hindiston, Koreya, Filippin va boshqa mamlakatlardan) Birlashgan Arab Amirliklarida 90%ga yaqin, Katarda-80%dan yuqori, Saudiya Arabiston va Baxraynda 40%ga yaqinni tashkil etdi.

Ikkinchi markaz- rivojlangan G‘arbiy Evropa mamlakatlari bo‘lib, urushdan keyingi davrda bu mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini tiklashda migratsiya omili asosiy rol o‘ynaydi. Hozirgi paytda ham xorijiy ishchi kuchi past malakali va nufuzli bo‘lmagan tarmoqlarda keng qo‘llanadi. Bu tarmoqlarda (avtomobilarni yig‘ish, kon-ruda va metallurgiya sanoati va boshqalar) xorijliklar 70%ni tashkil etadi.

Evropaning 15 mamlakati doirasida yagona mehnat bozorining barpo etilishi, bu mintaqaning ahamiyatini va xorijiy ishchi kuchi uchun jozibaligini kuchaytiradi.

Jahon mehnat bozorining uchinchi yirik markazi AQSh va Kanada. Bu erga nafaqat Lotin Amerikasidan past malakaga ega bo‘lgan ishchilar, shuningdek yuqori malakali mutaxassislar ham intiladilar. Shu sababli, AQSh o‘zining zamonaviy fan-texnikaga asoslangan tarmoqlarini, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini kadrlar tayyorlashga katta harajatlar qilmasdan ta’minladi.

Xalqaro mehnat bozorining to‘rtinchi markazi Argentina bo‘lib, hozirda bu erda yuzaga kelgan qulay iqtisodiy vaziyat qo‘shni mamlakatlardan arzon ishchi kuchini o‘ziga jalb qilmoqda.

Jahon mehnat bozoridagi sifat o‘zgarishlari.

Keyingi yillarda jahon mehnat bozori geografik shakllanishi bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi strukturaviy siljishlar, sobiq sotsialistik mamlakatlardagi tub islohotlar, boshqacha aytganda, jahon bo‘ylab o‘rnatalayotgan yangi iqtisodiy-siyosiy tartiblar bilan bog‘liq bo‘lgan chuqur sifat o‘zgarishlarga ham ega bo‘lmoqda.

Bunday o‘zgarishlar, asosan, quyidagilardan iborat: birinchidan, Sharqiy Evropa mamlakatlarini jahon xo‘jaligi aloqalarga faol jalb qilish jarayoni boshlandi, shu jumladan, ishchi kuchini ayrboshlash sohasida ham; ikkinchidan, bir qator Janubiy Osiyo va arab mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi, milliy iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan o‘sishi natijasida shu mamlakatlar aholisi hisobiga yuz beradigan migratsiya oqimi qisqarmoqda; uchinchidan, yangi migratsiya oqimida yuqori malakali ishchi kuchi va tadbirkorlarning ulushi oshib bormoqda.

Jahon mehnat bozoridagi vaziyatni istiqboldagi tahlili shundan dalolat bermoqdaki, demografik, iqtisodiy sabablarga ko‘ra, ishchi kuchini import qiluvchi asosiy mamlakatlarning talabi yuqori darajada saqlanib qoladi. Masalan, Evropa Hamjamiyatiga a’zo mamlakatlarda 25 yoshgacha bo‘lgan aholi soni 2003 yilda 1990 yildagi 27,8 mln. kishidan 22,1 mln. kishigacha qisqardi.

AQSh va Kanadada ham yuqoridagidek «aholining qarishi» jarayoni kechmoqda. Shunday murakkab demografik vaziyatga qaramasdan, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni yuqori sur’atlarda o‘sishi va ishsizlik darajasining pasayishi kuzatilmoqda. Bunday holat xorijdan yosh mutaxassislarni jalb qilish ushbu davlatlar ilmiy, iqtisodiy va demografik siyosatining muhim qismi bo‘lib qolishidan darak beradi.

Tashqi mehnat migratsiyasini tartiblash.

Mehnat bozori ham har qanday boshqa bozorlar kabi ayrboshlashning ma’lum tartib - qoidalarini o‘rnatishga, unga amal qilishga va nazoratga ehtiyoj sezadi yoki boshqarilib turishni taqozo qiladi. Bu, odatda, davlat zimmasiga yuklatiladi. Davlatning migratsiya jarayonlarida ishtiroki tarixdan ma’lum, chunonchi, XIII – XIX asrlardayoq ishchi kuchini erkin ko‘chib yurishini chegaralaydigan to‘siqlar majud bo‘lgan. Hozirda ishchi kuchining erkin harakati qator huquqiy, ma’muriy, madaniy, til, ijtimoiy va boshqa vositalar bilan boshqarilib turiladi.

Davlat huquqiy va ma’muriy to‘siqlarni o‘rnatishi yoki bekor qilishi mumkin. XX asrning o‘rtalarigacha ishchi kuchi harakatini mamlakatlararo tartibga solish, asosan, manfaatdor davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, keyinchalik, mehnat sohasida mamlakatlararo aloqalarning murakkablashuvi jahon mehnat bozorida faoliyat ko‘rsatishning tashkiliy – huquqiy

asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Jumladan, 1953 yilda Iqtisodiy hamkorlik va Taraqqiyot tashkiloti mamlakatlari, 1957 yilda esa Yevropa Hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar ishchi kuchi erkin ko'chib yurishini quvvatlab chiqdilar.

Tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etishda, tajribalar va axborotlar bilan ayirboshlashda, bu jarayonni tartibli va rejali amalga oshirishni ta'minlashda migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning o'rni alohida ahamiyatga ega. Bu tashkilotga a'zo mamlakatlar (35ta mamlakat a'zo) o'z bo'limlari orqali bo'lajak muhojirlar uchun til o'rganish kurslarini tashkil edi. Ushbu yo'nalishda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ham o'z ishini faollashtirib, Xalqaro Mehnat me'yorlari bo'yicha 1990 – 1993 yillar davomida 174ta konvensiya va 181ta tavsiyalar qabul qildi. Ularda ishchi kuchini mamlakatlararo ko'chib yurishini huquqiy jihatdan tartibga solish ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, 1949 yilda qabul qilingan muhojir – mehnatkashlar to'g'risidagi konventsiyada XMTga a'zo bo'lgan davlatlarga muhojirlarni kamshitishlariga yo'l qo'ymaslik majburiyatlarini yuklovchi qator qoidalar o'rin olgan.

1. XMTning 1958 yilda qabul qilingan ijtimoiy mehnat va bandlilik sohasida huquqlarini cheklashga qarshi Konvensiyasi;

2. XMTning 1962 yilda qabul qilingan ijtimoiy siyostaning asosiy maqsadlari va me'yorlari to'g'risidagi bitim. Bu bitimda XMTga a'zo bo'lgan davlatlarda muhojir – mehnatkashlar manfaatlarini himoya qiluvchi qoidalar qayd etilgan, ya'ni muhojirlar ham tub aholi qatori mavjud ijtimoiy muhofaza imtiyozlaridan foydalanishlari, ularning oilalari esa ish haqidan pul jo'natmalarini olish huquqiga ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan.

3. XMTning 1975 yilda qabul qilingan muhojir – mehnatkashlar to'g'risidagi Konvensiyasi. Bu hujjat migratsiya sohasida suiste'molliklarni, muhojirlarni yashirin yo'llar bilan olib kelish va qonunsiz ishga yollashni bartaraf qilishga qaratilgan chora – tadbirlarni belgilab beradi hamda muhojirlarni mehnat, bandlilik, ijtimoiy ta'minot, kasaba uyushmalariga birlashish va madaniy huquqlari sohasida himoya qilishning ba'zi choralarini ko'zda tutadi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotiga a'zo bo'lgan va uning asosiy hujjatlariga imzo chekkan mamlakatlar, qayd etilgan hujjatlarda qabul qilingan tartib qoidalarga amal qilishlari va o'zlarining mehnat qonunchiliklarini ularga muvofiq o'zgartirishlari lozim.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro mehnat resurslarining tarkibini, dinamikasini o'rganish katta ahamiyatga ega. Mehnat resurslarining harakatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bayon etiladi.

### **Nazorat va muhokama savollar**

1. Chet el mamlakatlarida mehnat resurslari tarkibi va taqsimlanishi.
2. Mehnat resurslari to'g'risida tushuncha.
3. Ishchi kuchi statistikasi va uning tashkil etilishi.
4. Chet elda mehnat resurslari harakati ko'rsatkichlari.
5. Mehnat resurslarining istiqbolidagi sonini aniqlash usullari.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матвеева В.М. Международная статистика. Учебник. – М.: «Дело и сервис», 2002.
2. Доклад о развитии человеческого потенциала в странах Европа и СНГ – М.: ПРООН, 2002.
3. Практикум по социальной статистике / Под ред. И.И.Елисеевой. – М., 2004.
4. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикиси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **VI bob. XALQARO AHOLI TURMUSH DARAJASI STATISTIKASI**

6.1. Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari.

6.2. Aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar.

6.3. Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

6.4. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar.

### **6.1. Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari**

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali yakun topishida mazkur muammoni kengroq yoritilishi katta ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda Prezident I.Karimov 2005 yil mamlakatimizda erishilgan iqtisodiy yutuqlar haqida gapirar ekan, quyidagi muhim masalaga e'tiborni qaratdi: «...biz islohotlarni shunchaki islohot uchun amalga oshirmayapmiz. Islohotlar qanday samara berayotgani, ular odamlarning ijtimoiy ahvoliga qanday ta'sir ko'rsatayotganini hisobga olish muhim ahamiyatga ega». <sup>1</sup> Jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar haqida gapirar ekan: «Odamlarning dunyoqarashi, mentaliteti o'zgarib, ulardagi ijtimoiy boqimandalik va faqat davlatdan yordam kutib yashash kayfiyati barham topmoqda.» <sup>2</sup> - dedi Prezident.

Aholi turmush darajasi ijtimoiy – iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy – maishiy ehtiyoji qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoiti yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Moddiy ehtiyojlarga kishining oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy yoqilg'i va ro'zg'or buyumlariga bo'lgan talablari kiradi.

Madaniy – maishiy ehtiyojlarga kishilarning bilim, malakasi, madaniy darajasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabilarga bo'lgan ehtiyojlari kiradi.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti – jamiyat barcha a'zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy taraqqiyotni ta'minlash hamda mehnat sharoitini yaxshi tashkil qilish, kishi sog'lig'i va mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganlarni ijtimoiy himoyalash, nafaqalar bilan ta'minlash, nisbatan kam daromadli oilalar bolalariga nafaqalar berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aholi turmush darajasi statistikasi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- aholi daromadlari va harajatlari, moddiy – madaniy, maishiy ehtiyojlari tarkibini, strukturasini ifodalovchi ko'rsatkichlar dinamikasini va su'ratini o'rganish;

<sup>1</sup> «Президент Ислом Каримовнинг 2005 йилда мамлакатни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2006 йилда иктисодий ислоҳотларни чукурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Мажқамаси мажлисидаги маърузаси» - Туркистон газетаси. 2006 йил 11 феврал. 11-сони.

<sup>2</sup> «Президент Ислом Каримовнинг 2005 йилда мамлакатни ижтимоий-иктисодий ривожлантириш якунлари ва 2006 йилда иктисодий ислоҳотларни чукурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлиланган Вазирлар Мажқамаси мажлисидаги маърузаси» - Туркистон газетаси. 2006 йил 11 феврал. 11-сони.

- aholi daromadi iste'molidagi differentsiatsiyani shu tafovutni qisqartirishdagi ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirini o'rganish.

Jahon mamlakatlari miqyosida aholi turmush darajasini o'rganish.

## **6.2. Aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar**

Aholi turmush darajasini miqdor va sifat tomonidan tahlil qilish uchun ilmiy jihatdan asoslangan ko'rsatkichlar bo'lishi shart. Turmush darajasi murakkab va ko'p qirrali mazmunga ega bo'lganligi sababli u bitta ko'rsatkich bilan emas, aholi daromadi va turmushining turli tomonlarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan harakterlanadi.

Aholi turmush darajasini quyidagi ko'rsatkichlar majmui ifodalaydi.

BMT tomonidan taklif qilingan ko'rsatkichlar 12 guruhni tashkil qiladi:

- aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlari;
- turmushning sanitar – gigienik sharoitlari;
- oziq - ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish;
- yashash sharoitlari;
- ta'lim va madaniyat;
- mehnat sharoiti va bandlik;
- aholining daromadlari va harajatlari;
- turmush qiymati va iste'mol baholari;
- transport vositalari;
- dam olishning tashkil etilishi;
- ijtimoiy ta'minot;
- kishi erkinligi.

Aholining turmush darajasini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ham ifodalash mumkin:

- jami va aholi jon boshiga to'g'ri kelgan;
- milliy daromad;
- iste'mol fondi;
- nominal daromad va nominal ish haqi;
- real ish haqi va real daromad;
- omonat cassalaridagi aholi pul qo'yilmalari;
- aholiga ko'rsatilgan maishiy xizmat hajmi, tarkibi, o'sish sur'ati va hokazolar.

Aholi turmush darajasini yaxshilanishi, aholining daromadlari va ularni turli maqsadlarda sarflanishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu o'rinda, O'zbekistonda 1995 yillarda ishlab chiqilgan uslubiyat asosida yaratilgan dasturga ko'ra, aholining pul daromadlari va harajatlari balansi hisoblab boriladi. Quyidagi jadvalda aholi pul daromadlari va harajatlari balansi, pul daromadlari manbalari, harajatlar miqdori va tarkibi keltirilgan. Balansning daromadlar qismiga mulk shakllaridan qat'iy nazar barcha korxona va muassasalardan aholi ixtiyoriga tushgan pul mablag'lari, naqd pulsiz o'tkazmalar, natura shaklida to'langan ish haqi va boshqa daromadlar kiradi. Aholi guruhlari o'rtasidagi pul aylanmalari balansida hisoblanmagan.

## 6.2.1-jadval

### Aholi pul daromadlari va harajatlari balansi

Daromadlar	Harajatlar
<p>1 .Ish haqi.</p> <p>2. Dividendlar.</p> <p>3.Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan daromad.</p> <p>4.Pensiya va nafaqalar.</p> <p>5.Stipendiyalar.</p> <p>6.Moliya tashkilotlaridan tushumlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) sug‘urta to‘lovlar;</li> <li>b) shaxsiy qurilish va boshqamaqsadlar uchun olingan qarzlar;</li> <li>c) omonatdan tushumlar;</li> <li>d) zayom yutuqlari;</li> <li>e) lotoreya yutuqlari;</li> <li>f) nogironlarga ajratmalar (yordam, yonilg‘i, avtomashinani ta’mirlash).</li> </ul> <p>7.Chet el valyutasini sotishdan tushgan daromadlar.</p> <p>8. Boshqa tushumlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) shaxsiy buyumlarni sotishdan tushgan mablag‘;</li> <li>b) boshqa daromadlar;</li> </ul> <p>9.Uzatmalar evaziga tushgan tushumlar (+. -).</p> <p>10.Jami pul daromadlari.</p> <p>11 .Harajatlarning daromadlar oshgan qismi.</p>	<p>1 .Tovarlar va xizmatlarni sotib olish. jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) turli shaxobchalardan sotib olingan tovarlar;</li> <li>b) xizmatlarni to‘lash va boshqa harajatlar: shu jumladan: <ul style="list-style-type: none"> <li>- uy-joy va maishiy xizmatlar to‘lovi;</li> <li>- kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar</li> <li>- maorif xizmatlari uchun to‘lovlar</li> <li>- dam olish, sanatoriya yo‘llanmalari uchun to‘lovlar;</li> <li>- medisina va turizm uchun to‘lovlar;</li> <li>- kino, teatr, turli tomoshalar uchun; to‘lovlar;</li> <li>- transport to‘lovlar;</li> <li>- aloqa uchun to‘lovlar;</li> <li>- boshqa harajatlar;</li> </ul> </li> </ul> <p>2.Majburiy va ko‘ngilli to‘lovlar, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>a) soliq va yig‘imlar;</li> <li>b) sug‘urta uchun to‘lovlar;</li> <li>c) qarzlarni to‘lash;</li> <li>d) lotoreya sotib olish;</li> <li>e) tovar krediti uchun foiz to‘lovlar;</li> <li>f) pensiya uchun to‘lovlar;</li> </ul> <p>3.Omonatga qo‘yilgan va qimmatli qog‘ozlarga qilingan sarflarning o‘simi, jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>g.) xalq bankiga qo‘yilgan omonat o‘simi;</li> <li>h) ichki zayomlarni sotib olish;</li> <li>i) sertifikatlarni sotib olish;</li> <li>j) bank bilan hisob-kitob qilish maqsadida plastik kartochkalarni sotib olish;</li> <li>k) korxonalar aktsiyalarini sotib olish;</li> </ul> <p>4.Uy-joy sotib olish;</p> <p>5. Chet el valyutalarini sotib olish;</p> <p>6. O‘tkazmalar bo‘yicha yuborilgan pullar;</p> <p>7.Jami harajat va omonat;</p> <p>8. Daromadlarni harajatlardan oshgan qismi.</p>
BALANS	BALANS

Jadvaldagi aholi pul daromadlari va harajatlari balansi, pul daromadlarining manbalarini, harajatlar miqdori va tarkibimi harakterlaydi. Balansning daromadlari qismiga mulk shakllaridan qat’iy nazar barcha korxona va muassasalardan aholi ixtiyoriga tushgan pul mablag‘lari, naqd pulsiz o‘tkazmalar, natura shaklida to‘langan ish haqi va boshqa daromadlar kiradi. Aholi guruhlari o‘rtasidagi pul aylanmalari balansa hisoblanmagan.

Yuqorida keltirilgan barcha ko‘rsatkichlardan tashqari, aholi turmush darajasini va ularni jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarga tabaqlanishini aniqlash ularni kompleks

ravishda o‘rganishni taqozo etadi. Aholi turmush darajasini aniqlash maqsadida statistik ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lishi lozim. So‘nggi yillarda tarkibi va miqdori jihatidan keskin farqlanuvchi ko‘rsatkichlar tizimi taklif etilgan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1978 yilda taqdim etilgan ko‘rsatkichlar tizimining asosiy guruhlari quyida keltirilgan:

1. Aholining demografik tasnifini ifodalovchi ko‘rsatkichlar (tug‘ilish, o‘lish, kasal bo‘lish, aholining kelajakda ko‘radigan umrining uzunligi).
2. Aholining yashashini sanitariya va gigiena tomonidan ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
3. Oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish darajasi.
4. Aholining yashash sharoitlari va uzoq muddat xizmat qiluvchi tovarlar bilan ta’milanish darajasi (avtomobil, muzlatgich, televizor, mebel va h.k.).
5. Ta’lim va madaniyat sohasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar.
6. Aholining bandligi va mehnat sharoitlari.
7. Aholining daromadlari va harajatlari.
8. Aholining turmush tarzi qiymati va iste’mol narxlari.
9. Transport vositalari.
10. Dam olishni tashkil qilish, jismoniy tarbiya va sport.
11. Ijtimoiy ta’midot.
12. Insonning erkinligi.

Bundan tashqari, Rossiya Federasiyasida foydalaniladigan ko‘rsatkichlar tizimi mavjud. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi 7 bo‘limdan iborat bo‘lib, deyarli 40 ta ko‘rsatkichni o‘z ichiga oladi:

### **I. Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar:**

1. Turmush darajasi mezoni.
2. Turmush tannarxi indeksi.
3. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi milliy mahsulot.

### **II. Aholi daromadlari:**

1. Aholining umumiylar real daromadlari.
2. Aholi ixtiyoridagi real daromadlari.
3. Aholining yalpi daromadlari.
4. Aholining shaxsiy daromadlari.
5. Aholi ixtiyoridagi shaxsiy daromadlari.
6. Aholining pul ko‘rinishidagi daromadlari.
7. Ishchilarining o‘rtacha daromadi va o‘rtacha ish haqi.
8. Real ish haqining o‘rtacha miqdori.
9. Pensiya, nafaqa va stipendiyalarning o‘rtacha miqdori.

### **III. Aholi iste’moli va harajatlari:**

1. Aholi tomonidan iste’mol qilinayotgan moddiy ne’mat va xizmatlarning umumiylar hajmi.
2. Aholining pul ko‘rinishidagi harajatlari.
3. Aholining iste’mol harajatlari.
4. Aholi tomonidan asosiy oziq-ovqat iste’moli.
5. O‘rtacha ish haqining harid qobiliyati.
6. O‘rtacha pensiyaning harid qobiliyati.

#### **IV. Aholining pul jamg‘armalari:**

1. Aholining pul jamg‘armalari summasi.

#### **V. To‘plangan mol-mulk va turar-joy:**

1. To‘plangan uy-joy (shaxsiy) mol-mulkning tannarx qiymati.
2. Aholi ixtiyorida bo‘lgan ko‘p muddatga mo‘ljallangan vositalarning mavjudligi va ularning tavsifi.
3. Aholining turar-joy sharoitlari.

#### **VI. Aholining ijtimoiy tabaqlanishi:**

1. Jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromad bo‘yicha aholining taqsimlanishi.
2. Turli darajadagi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadga ega bo‘lgan aholining asosiy oziq-ovqatlar, nooziq-ovqatlar va xizmatlar iste’moli.
3. Turli darajadagi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadga ega bo‘lgan aholining iste’mol harajatlari tarkibi.
4. Turli qatlamlarga mansub bo‘lgan aholining haqiqiy va me’yoriy iste’mol savatchasi tannarxining o‘zgarishi.
5. Daromadlarning bir joyga to‘planganlik indeksi (Gini koeffitsienti).
6. Aholi daromadlari va iste’molining tabaqlanishi (desil koeffisienti).
7. Desil guruhlarining yuqori va quyi chegarasida joylashgan daromad va iste’mol ko‘rsatkichlarining bir-biriga nisbati.
8. Jamiyatdagi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi daromadlarda aholi desil (kvintil) guruhlarining ulushi.

#### **VII. Aholining kam ta’minlangan qatlamlari:**

1. YAshash minimumi (kambag‘allik chegarasi).
2. Eng kam iste’mol byudjeti.
3. Eng kam ish haqi miqdori.
4. Eng kam pensiya miqdori.
5. Eng kam ish haqining harid qobiliyati.
6. Eng kam pensiyaning harid qobiliyati.
7. Kambag‘allik koeffitsienti (darajasi).
8. Daromadlar defitsitligi.
9. Kambag‘allik hududi.
10. Kambag‘allikning ijtimoiy ko‘rinishi.

Respublikamizda xalqaro tashkilotlar tomonidan aholi turmush darajasining o‘zgarishi va aholining jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarga tabaqlanishini hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-2015 yillarga mo‘ljallangan «Mingyillikning rivojlanish maqsadlari» deb nomlanuvchi butun jahon rivojlanish dasturida belgilangan maqsad va vazifalar amalga oshirilishini kuzatib borish uchun mos keladigan statistik ko‘rsatkichlar tizimi tavsiya etilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar tizimi 10 ta asosiy guruhdan iborat ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oladi va ularning ro‘yxati quyida keltirilgan:

##### **1. Aholi jon boshiga iste’mol:**

- 1.1. Kambag‘allik chegarasidan past bo‘lgan aholi ulushi.
- 1.2. Kambag‘allik tafovuti va kambag‘allikning ta’sirchanligi (kambag‘allikning milliy chegarasidan foydalangan holda).
- 1.3. Kambag‘allikning milliy chegarasidan past bo‘lgan kishilar soni (million).

- 1.4. 20 foiz eng kambag‘allarning iste’ mol ulushi.
- 1.5. Aholi jon boshiga iste’ mol tengsizligi (koeffitsient Djini).
- 1.6. Aholi jon boshiga iste’ mol tengsizligi (D90/D10 taqqoslanishi).
- 1.7. Kuniga 1 AQSh dollarigacha miqdorda daromad topadigan aholining ulushi.
- 1.8. Kambag‘allik tafovuti (1 AQSh dollarini kambag‘allikning nisbiy chegara sifatida olgan holda).
- 1.9. Kuniga 1 AQSh dollarigacha miqdorda daromad topadigan aholi soni (million).
- 1.10. Kuniga 2 AQSh dollarigacha miqdorda daromad topadigan aholi ulushi.

## **2. Ta’lim:**

- 2.1. Boshlang‘ich ta’lim maktablarida qatnov darajasi.
- 2.2. Urta ta’lim maktablarida qatnov darajasi.
- 2.3. Oliy o‘quv yurtlarida qatnov darajasi.
- 2.4. 5-chi sinfga o‘tgan bolalarning ulushi.
- 2.5. Yoshlarning savodxonlik darajasi (5 6-24 yosh).
- 2.6. Katta yoshdagi aholining savodxonlik darajasi (16 va undan katta yosh).

## **3. Sog‘likni saqlash:**

- 3.1. Onalar o‘limi darajasi.
- 3.2. Chaqaloqlar o‘limi darajasi (har 1000 ta tirik tug‘ilganlarga nisbatan).
- 3.3. Har 1000 ta bolaga nisbatan 5 yoshgacha bolalar o‘limi darajasi.
- 3.4. Ko‘p tarqalgan kasalliklarga qarshi emlangan 1 yoshli bolalar ulushi.
- 3.5. Bolalar kamovqatliligining ustunligi (5 yoshgacha).
- 3.6. Tajribali tibbiyot xodimlari ishtirokida tug‘ilganlar.

## **4. Bandlik:**

- 4.1. Mehnatga layoqatli yoshdagi band aholining ulushi (%).
- 4.2. Mehnatga layoqatli yoshdagi band bo‘limgan aholining ulushi (ro‘yxatga olingan va olinmaganlar).
- 4.3. Yosh guruhlari bo‘yicha iqtisodiy faol bo‘limgan aholining ulushi.
- 4.4. Uzoq muddatli ishsizlik ulushi (ro‘yxatga olingan va olinmagan ishsizlarga bo‘lgan foiz nisbati).

## **5. Aholi:**

- 5.1. Tug‘ilganda hayotining kutilayotgan davomiyligi.
- 5.2. Tug‘ish yoshidagi aholining umumiy darajasi (har bir ayolga nisbatan tug‘ishlar).
- 5.3. Kv.km.ga aholining zichligi.

## **6. Ijtimoiy ta’minot:**

- 6.1. Sifati yaxshilangan suvdan foydalanuvchi aholi ulushi.
- 6.2. Kundalik sanitariya-texnik sharoitlardan foydalanuvchi aholi ulushi.
- 6.3. Asosiy dori vositalaridan foydalanish imkoniyati bo‘lgan aholi ulushi.

## **7. Mol-mulkka ega bo‘lish:**

- 7.1. Uy egasining mulki hisoblangan turur-joylarda yashayotgan aholining ulushi.
- 7.2. Har 1000 kishiga televizorlar soni.
- 7.3. Har 1000 kishiga shaxsiy kompyuterlar soni.
- 7.4. Har 1000 kishiga boshqa tovarlar soni.

## **8. Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar:**

- 8.1. Savdo (YaIM ga nisbatan %).
- 8.2. To‘g‘ridan-to‘g‘ri sof chet el sarmoyalari (YaIMga nisbatan %).
- 8.3. Har 1000 kishiga telefonlar soni (muqim va mobil telefonlar).

## **9. Milliy mahsulot ko‘rsatkichlari:**

- 9.1. Aholi jon boshiga YaMM (so‘m).
- 9.2. Aholi jon boshiga >1MM (AQSh dollari).
- 9.3. Aholi jon boshiga YaMM (milliy valyutaning AQSh dollarini harid qilish qobiliyati asosida).
- 9.4. YaMMning o‘rtacha yillik o‘sishi, %.
- 9.5. Ichki jamg‘armalar (YaIMga nisbatan %).
- 9.6. Yillik inflysiya.

## **10. Gender tengsizligi ko‘rsatkichlari:**

- 10.1. Parlamentda ayollar bilan band bo‘lgan o‘rinlar soni (umumiyl soniga nisbatan %).
- 10.2. Boshlang‘ich ta’limda gender tengligi.
- 10.3. O‘rta ta’limda gender tengligi.
- 10.4. Yoshlarning savodxonligi bo‘yicha gender tengligi.
- 10.5. Har 1000 kishiga nisbatan 5 yoshgacha bolalar o‘limi bo‘yicha gender tengligi.
- 10.6. Ko‘p tarqalgan kasallikkarga qarshi emlangan 1 yoshli bolalar ulushi bo‘yicha gender tengligi.
- 10.7. Bolalar kamovqatliligin ustunligi bo‘yicha gender tengligi.
- 10.8. Mehnatga layoqatli yoshdagil band aholi bo‘yicha gender tengligi.

Yuqorida keltirilgan barcha statistik ko‘rsatkichlar har tomonlama yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlarni, aholi orasida turli ijtimoiy tabaqlanishlar va ijtimoiy guruhlarning paydo bo‘lishi darajasini ular orasidagi tengsizlikning o‘zgarib borayotganini, kambag‘allahuv va boy, turli moddiy hamda ma’naviy ne’matlar bilan ta’minlanganlik jamiyatning murakkablashib borishi, qolaversa jamiyatda erkak va ayollarning teng huquqliligi ta’minlanishi kabi masalalarni hal qilishga respublika iqtisodiyotining rivojlanish sur’atlarini hamda uning mukammalashib borishi, salohiyatlari va imkoniyatlarini keng ma’noda baholashga xizmat qiladi.

## **6.3. Aholining moddiy ehityojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Aholi turmushi yaxshilanishi, hayotining yanada farovonlashishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri – aholi daromadlaridir. Respublikamiz Prezidenti va hukumatimiz bunga katta e’tibor qaratgan. Mustaqillik yillarida respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar natijasi aholi daromadlarining real o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, so‘nggi 2000-2004 yillar ichida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadlari miqdori 2.1 marta ortdi.

Bu ko‘rsatkich respublikaning turli hududlarida o‘ziga xos ravishda o‘zgargan. Aholi pul daromadlarining o‘sish sur’atlari respublikamizning barcha viloyatlarida ijobjiy o‘zgarib, uning sur’ati aksariyat viloyatlarda 2 baravardan yuqori bo‘lgan.

Bundan tashqari, respublikamizning Navoiy va Toshkent viloyatlarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlar respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan yuqoriroq. Bu borada respublikamiz poytaxti Toshkent shahri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, bu erda aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan daromadlar miqdori respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan uch baravar yuqori bo‘lgan.

### 6.3.1-jadval

#### O‘zbekiston hududlari bo‘yicha aholi jon boshiga pul daromadlarining differentsiasiyasi (foizda)

	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2004/1999 y. nisbiy real o‘sish, marta
O‘zbekiston	100	100	100	100	100	2.1
Qoraqalpog‘iston	62.9	63.0	58.7	56.2	53.6	1.6
Andijon	115.3	114.1	116.2	105.8	95.7	2.0
Buxoro	90.8	95.4	93.6	94.3	87.8	2.0
Jizzax	56.2	61.8	67.6	66.6	63.6	2.6
Qashqadaryo	75.1	76.2	75.0	78.7	77.8	2.1
Navoiy	122.1	120.3	104.8	139.6	152.7	2.7
Namangan	67.7	69.9	74.2	70.0	61.8	2.1
Samarqand	77.4	71.4	69.4	71.8	68.7	2.0
Surxondaryo	68.7	68.1	71.6	71.5	73.5	2.5
Sirdaryo	78.0	73.8	66.4	68.8	72.8	1.7
Toshkent	94.5	97.7	93.7	105.3	105.5	2.5
Farg‘ona	109.4	102.7	107.0	98.8	92.0	1.8
Xorazm	76.3	76.0	72.3	64.4	66.5	1.8
Toshkent sh.	253.3	263.3	271.6	272.7	306.3	2.3

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси, АПДХБ.

Statistik kuzatuvlarga ko‘ra, respublikamiz hududlarida, aholining daromadlari respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan turli darajaga ega. Agar 2000 yil ko‘rsatkichlari bo‘yicha aholining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari respublikadagi ko‘rsatkichga nisbatan Jizzax viloyatida eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lsa, 2004 yilga kelib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bu pog‘onaga tushib qolgan. Toshkent viloyatida esa, holat birmuncha yaxshilangani, viloyat aholisining jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlari respublika ko‘rsatkichlariga nisbatan oshib borib, shu davr mobaynidagi 2.5 marta ortganini ko‘rish mumkin.

Tahlil etilayotgan davr mobaynidagi natura ko‘rinishidagi V daromadlarining aholi jami daromadlaridagi ulushi bu qadar kamayishiga asosiy sabablardan biri – respublikamizda pul kredit borasida amalga oshirilgan samarali siyosat natijasidir. Aholi qo‘lidagi bo‘sh pullarning bank omonatlariga keng jalb etilishi natijasida so‘nggi yillarda respublikamizda byudjet taqchilligi deyarli sezilmayapti, bu o‘rnida aholi pul daromadlari ulushi ortishi sabablaridan biridir.

### 6.3.2-jadval

#### Aholining pul va natura shaklidagi daromadlari tarkibiy o'zgarishi (foizda)

	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y	2004 y	2005 y
Jami daromadlar	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
shu jumladan:						
pul shaklida	61.4	78.7	82.6	82.2	83.8	85.0
natura shaklida	38.6	21.3	17.4	17.8	16.2	15.0

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси, УХВТ

Statistik kuzatuvlar natijasiga ko‘ra, respublikamiz uy xo‘jaliklarida tarkibi shaxsiy daromadga ega bo‘lgan kishilarning ortib borayotganini ko‘rish mumkin. Bu aholining bandligi ortib borayotganidan dalolat.

Statistik ma’lumotlarning 2000 yil natijalariga asosan, shaxsiy daromadiga ega bo‘lgan kishilari bor uy xo‘jaliklari respublikada 85.5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yil yakunlariga kelib ularining umumiy soni yanada ko‘paygan va 90.4 foizga etgan. Bunday hol respublikamizda mustaqil ravishda faoliyat yuritayotgan va shaxsiy daromadiga ega bo‘lgan kishilarning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, mazkur ko‘rsatkich uy xo‘jaliklarida mustaqil faoliyat yuritib, shaxsiy daromadga ega bo‘layotgan shaxslarning ulushi ham ortayotgani bildiradi. Unga ko‘ra, yuqorida ta’kidlangan 90.4 foiz uy xo‘jaliklari tarkibidagi quyida keltirilgan ko‘rsatkichlar katta yoshdagi aholining to‘la band bo‘layotganini va shaxsiy daromad olayotganini tasdiqlaydi. Ya’ni, 2000 yilda tarkibida katta yoshli a’zolarining to‘rtadan biri shaxsiy daromadga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklari soni 3.5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilga kelib ularning soni 2.8 foizga kamaygani, va mos ravishda katta yoshli a’zolarining to‘rtadan ikki va uch qismi band bo‘lib, o‘zining shaxsiy daromadiga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklari soni birmuncha ortib ularning soni mos ravishda 16,4 va 38,3 foizga ko‘payganini kuzatish mumkin. Bunday natijalarga erishishda respublikamizda aholi daromadlarini oshirishga, bandligini ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar sabab bo‘lmoqda.

Har bir davlat aholisi farovonligi oshib borishi, ularning moddiy ehtiyojlari to‘la – to‘kis qondirilishi quyidagi ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanadi:

- oziq – ovqat mahsuloti iste’moli(jon boshiga, muhim turlari bo‘yicha) tarkibi va dinamikasi;

- oziq – ovqatdan boshqa mahsulotlar iste’moli.

Aholining oziq - ovqatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish va uning sifatini yaxshilash aholi turmush darajasi o‘sishini ko‘rsatadi. Oziq – ovqat mahsulotlarini chakana tovar oborotidagi oziq - ovqat iste’moli shuni ko‘rsatadiki, turmush darajasi oshgan sari non va kartoshka mahsulotlarini iste’mol qilish bir tekisda kamayib, ular o‘rnini asta-sekin go‘sht, sut, qand, sabzavot va meva kabi oqsil, yog‘, vitamin va boshqa moddalarga boy yuqori kaloriyalı mahsulotlar egallab boradi.

Oziq - ovqat iste’moli strukturasidagi o‘zgarishlar aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yillik oziq - ovqat mahsuloti darajasida namoyon bo‘ladi.

### 6.3.3-jadval

#### Ayrim jahon davlatlari bo'yicha aholi jon boshiga bir yilda ayrim oziq - ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi

Davlat	Aholi jon boshiga									
	Go'sht(kg)		Sut(kg)		Sariyog'(kg)		Tuxum(dona)		Shakar(kg)	
	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y
O'zbekiston	51	69	342	374	4,4	6,3	165	295	20	20
AQSh	117	122	259	268	2,5	2,2	334	281	23	24
Daniya	230	278	901	913	26,4	17,6	299	251	-	-
YAngi Zelandiya	416	421	-	-	84,3	85,7	-	-	-	-
Braziliya	39	44	78	92	-	-	-	-	52	52
Shvesiya	60	67	365	405	5,2	8,1	-	-	-	-
Yaponiya	-	-	46	62	0,4	0,6	296	329	6,1	6,9
Fransiya	86	112	558	519	9,5	9,2	221	277	51	67

Mahsulot turining jon boshiga qancha to'g'ri kelishi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\bar{V}_i = \frac{Q_i}{\bar{A}_i};$$

Bu erda  $\bar{V}_i$  – jon boshiga hisoblangan mahsulot;  $Q_i$  – bir yil davomida iste'mol qilingan mahsulot jami;  $\bar{A}_i$  – aholining o'rtacha soni.

### 6.3.4-jadval

#### Ayrim jahon mamlakatlari aholisining uzoq muddat foydalanadigan mollar bilan ta'minlanishi (har 1000 kishiga nisbatan, dona)

Davlatlar	Radio		Oynai - jahon		Muzlatgichlar		Kiryuvgich mashinalar		Avtomobillar	
	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y	1990y	2003y
O'zbekiston	32	28	28	34	17	21	22	21	4,9	19
Xitoy	4	14	-	23	-	7,0	-	10	0,02	23
AQSh	66	20	40	49	26	29	21	25	-	-
Germaniya	111	78	49	61	26	42	27	37	-	-
Yaponiya	366	118	113	115	25	42	43	42	207	240

Endi respublikamizda aholining kundalik ehtiyojini qondirishi uchun zarur bo'lgan iste'mol tovarlari va xizmatlariga bo'lgan sarf-harajatlarni tahlil qilamiz. Quyida respublikamizda so'nggi 2000-2005 yillarda aholi tomonidan kundalik iste'mol harajatlari tarkibi keltirilgan (6.3.5-jadval). Unda respublikamiz aholisining uch asosiy maqsadlardagi ehtiyojini qondirish harajatlari tarkibi aks ettirilgan, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlari hamda turli kundallik xizmatlardan iborat. Unga kura, 2000 yilda harajatlarning 61,4 foizi oziq-ovqatga qolgan qismi esa, nooziq-ovqat mahsulotlariga 25,8 foiz hamda xizmatlarga 12,8 foiz sarflangan. O'tgan shu davr mobaynida aholining iste'mol harajatlari tarkibida jiddiy o'zgarish yuz bergan, jumladan, aholining oziq-ovqat mahsulotlari uchun harajatlari ulushi umumiylar tarkibida notejis tarzda o'zgarib borgan va 2005 yil yakunlariga kelib, uning umumiylar iste'mol harajatlari tarkibidagi ulushi 58,2 foizni tashkil etgan. Ushbu yil yakunlari bo'yicha nooziq-ovqat tovarlariga va xizmatlarga bo'lgan sarf harajatlarning iste'moldagi ulushi oshib borgan. 2005 yil statistik

kuzatuvlari bo'yicha nooziq-ovqat tovarlariga va xizmatlarga harajatlar esa, mos ravishda 25.7 va 16.1 foizni tashkil etgan. Bu, o'z navbatida, aholining turmush darajasida ijobiy o'zgarishlar yuz berayotganini anglatadi. Chunki, aholi o'z mablag'larining katta qismini faqat oziq-ovqat mahsulotlariga sarflashi, uning kundalik hayotda boshqa turdag'i tovarlar iste'mol qilishi va xizmatlardan foydalangan holda bahramand bo'lishi uchun imkoniyatlari yo'qligidan dalolat beradi.

Jadvalning so'nggi yilgi ko'rsatkichlaridan ma'lumki, aholi iste'mol harajatlarida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi kamayib, turli xizmatlarga bo'lgan sarf-harajatlari ulushi ortib bormoqda. Bu, o'z navbatida, aholining imkoniyatlari kengayib borayotganini anglatadi.

### **6.3.5-jadval**

#### **O'zbekistonda aholi iste'mol harajatlarining tarkibiy o'zgarishi (foizda)**

Ko'rsatkichlar	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2003 y.	2004 y.	2005 y.
Jami iste'mol harajatlari, jami	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0	100.0
shu jumladan:						
oziq-ovqat va alkogol mahsulotlariga	61.4	65.2	64.2	69.9	62.2	58.2
nooziq-ovqat va tamaki mahsulotlariga	25.8	23.0	22.7	17.9	22.4	25.7
Xizmatlarga	12.8	11.8	13.0	12.1	15.4	16.1

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси. УХБТ.

Bunday tarkibiy o'zgarishlarning yuz berishiga, albatta, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ta'siri ham katta. Bunda, respublikada ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi va iste'mol tovarlarining taqchilligiga pul qo'yilmasligi, natijada narx-navoning ko'tarilishi va davlatning olib borgan qattiq pul-kredit siyosati asosiy omillardan bo'lishi mumkin.

Endi, agar biz amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni aholining turli qatlamlariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qiladigan bo'lsak, unda quyida keltirilgan tahliliy jadval ko'rsatkichlariga murojaat etishimiz lozim.

### 6.3.6-jadval

#### Kam daromadli va yuqori daromadli aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli o'rtasidagi solishtirma ko'rsatkichlari (marta)

Ko'rsatkichlar	2001 y.	2002 y.	2003 y.
Non va non mahsulotlari	0.943	0.975	0.947
Kartoshka	1.580	1.62-1	1.651
Sabzavot va poliz mahsulotlari	1.734	1.731	1.738
Mevalar	1.694	1.718	2.451
Go'sht va go'sht mahsulotlari	2.935	2.927	3.464
Baliq va baliq mahsulotlari	6.000	7.556	3.364
Sut va sut mahsulotlari	1.715	1.657	1.729
O'simlik yog'i	1.355	1.299	1.267
Margarin va boshqa yog'lar	6.167	9.429	5.400
Tuxum	2.609	2.728	2.662
Shakar va qandolat mahsulotlari	2.361	2.223	2.169

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика кўмитаси. УХВТ.

Keltirilgan statistik ma'lumotlar 2001-2003 yillarda uy xo'jaliklari orasida o'tkazilgan statistik kuzatuvlarga asoslangan. Unga ko'ra, respublikamizda kuzatilgan barcha uy xo'jaliklari jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlari bo'yicha o'sib borish tartibida 20 foizdan besh, ya'ni kvintil guruhlariga tabaqalangan. So'ng ushbu besh guruhda aholi jon boshiga asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining o'rtacha ko'rsatkichi aniqlangan va ulardan eng yuqori guruh, ya'ni beshinchchi kvintil eng yuqori daromadlilar guruhi va eng past daromadlilar, ya'ni birinchi kvintil guruhlaridagi o'rtacha, ko'rsatkichlarning miqdori taqqoslangan.

#### 6.4. Aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Aholining moddiy – maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko'rsatkichlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

I.Aholining uy-joy, kommunal va maishiy xizmat bilan ta'minlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

- uy-joy fondi - ( $m^3$  hisobida) umumiyl maydon;
- aholining uy-joy bilan ta'minlanishi (jon boshiga  $m^3$ );
- uy-joylarning markaziy istish sistemalari, vodoprovod, gaz, vanna, dush, kanalizasiya bilan ta'minlanish darajasi;
- bir yilda aholi tomonidan iste'mol qilingan, elektroenergiya(jon boshiga KVt/soat hisobida), gaz (jon boshiga  $m^3$ ), barcha maishiy xizmatlar.

II.Aholining moddiy – ma'naviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- savodlilik darajasi.(9 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan);
- oliy va o'rta ma'lumotlilar soni;
- oliy va ilmiy pedagogik xodimlar soni;

- maxsus o‘quv yurtlari, kollej va oliv o‘quv yurtlarida bilim olayotganlar soni;
- boshlang‘ich va o‘rtta maktablarda bilim olayotganlar soni;
- ommalashgan kutubxonalardagi kitob fondi;
- kitob, jurnal va gazetalarning yillik tiraji;
- kinoseanslar va teatrlarga kiruvchilar soni.

## **6.5. Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar**

Aholining turmush darajasi yaxshilanishida, avvalo, uning sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini doimiy ravishda iste’mol qilib borishi katta rol o‘ynaydi. Bu o‘z navbatida aholining sog‘ligi va salomatligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar mamlakatimiz rivojlanishi uchun nechog‘lik ahamiyatli bo‘lsa, aholining sog‘ligi ham, shu qadar ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda aholi sog‘lig‘ini yanada yaxshilash, aholiga sifatli tez tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida respublikamizda sog‘liqni saqlash sohasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidentining 1998 yilda «Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish to‘g‘risida»gi Farmoniga asosan, respublikamizning barcha tibbiyot muassasalarida, ayniqsa, qishloq hududlarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu o‘z navbatida, aholi sog‘ligini tiklash, ularga sifatli tibbiy yordam ko‘rsatilishini ta’minlamoqda. Albatta, bu islohotlarning natijasi qisqa muddatlarda o‘z samarasini berishiga erishib bo‘lmaydi. Bu borada yuz berayotgan o‘zgarishlarning natijasi yillar davomida namoyon bo‘lishi mumkin.

Bu, albatta, aholining oziq-ovqat iste’moliga bo‘lgan talabi va sifatli mahsulotlar bilan ta’minlanganlik darajasiga ham bog‘liq. Mahsulotlarning miqdori va sifati bozor iqtisodiyoti sharoitida, unga bo‘lgan talab va takliflarining o‘zaro mutanosibligi o‘rganib chiqilishini taqozo etadi.

Aholining oziq-ovqat iste’moliga bo‘lgan talabi qondirilishi uchun mustaqillikning ilk yillarda respublikamizga iqtisodiyotning beqarorligi, uni nazorat qilish deyarli sustlashtirib yuborilgani dunyoning turli mamlakatlaridan sifatsiz mahsulotlar kirib kelishiga sabab bo‘ldi.

Bundan tashqari, respublikamizda va umuman dunyoning turli mamlakatlarida iqtisodiyotni yanada rivojlantirish maqsadida, sanoatda va qishloq xo‘jaligi sohasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin, bu holat tabiiy iqlim sharoitlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Mustaqillikning ilk yillardanoq iqtisodiyotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarilishiga ham katta e’tibor qaratildi.

Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- aholini ish bilan ta’minlanish darajasi;
- ish haftasi va ish kunining o‘rtacha uzunligi;
- mehnat bilan ta’minlanish muddati;
- mehnat sharoiti;
- vrachlar soni;
- kasalxonadagi o‘rinlar soni;

- dam olish muassasalarida, bolalar bog‘chalarida o‘rinlar soni;
- ijtimoiy ta’minot;
- aholining o‘rtacha yashash muddati.

### **Qisqacha xulosalar**

Xalqaro aholi turmush darajasi statistikasi quyidagi ko‘rsatkichlar tizimini o‘z ichiga oladi:

- aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- aholining moddiy maishiy ehtiyojlarini qondirishni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Aholi turmush darajasini umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari.
2. Aholining turmush darajasi haqida tushuncha va statistikaning vazifalari.
3. Aholining madaniy – maishiy ehtiyojlarini qondirilishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
4. Aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.
5. Aholining ijtimoiy sharoitini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Социальная статистика / Под ред. И.И.Елисеевой: Учебник. – М., 2003.
2. Социально – экономическая статистика / Под ред. В.Н.Салин.Практикум: – М., 2004.
3. Практикум по социальной статистике / Под ред. И.И.Елисеевой: – М., 2004.
4. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистики: Ўкув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
5. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
6. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
7. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
8. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
9. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
10. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **VII bob. TASHQI SAVDO BAHOLARI STATISTIKASI**

- 7.1. Tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari.
- 7.2. Tashqi savdoda tovarlar importi va eksporti, uni statistik o‘rganish.
- 7.3. Tashqi savdoda baholarning shakllanish xususiyatlari.

### **7.1. Tashqi savdo statistikasining mohiyati va vazifalari**

Mustaqillikning o‘tgan yili – juda qisqa tarixiy davrda O‘zbekiston nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, siyosiy o‘zgarishlarga erishdi. Ma’muriy – buyruqbozllik tizimiga asoslangan jamiyatdan bozor iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan huquqiy – demokratik davlat shakllantirish yo‘lidan borilmoqda. Shuni ham ta’kidlash lozimki, mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy hamda iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy sohadagi islohotlarni yo‘nalishlaridan biri Tashqi iqtisodiy faoliyatdir. Tashqi iqtisodiy faoliyat O‘zbekiston tarixida yangi yo‘nalishlardan biri, chunki uzoq yillik sobiq sovet tizimida tashqi iqtisodiy aloqalar faqatgina markaz orqali olib borilar edi.

O‘tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat birdaniga TIANi rivojlantirish uchun o‘zini erkin bozor girdobiga tashlab qo‘ymaydi. Bunday paytda davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqishi lozim. Xuddi ana shunday yo‘lni O‘zbekiston o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

Hozirgi kunga kelib mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali olib bormoqda. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni optimallashtirish (muqobillashtirish) hisoblanadi. TIFni oqilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlatning muhim strategiyalaridan biridir. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatni o‘ziga xos ichki va tashqi iqtisodiy holatini o‘rganish, u haqda etarlicha ma’lumot olish, shu asosda mamlakatni jahon bozoridagi salbiy o‘zgarishlardan saqlashni taqozo etadi. Tashqi savdo (TS)ni tartibga solish, uning istiqbolini belgilashda statistikaning ahamiyati katta. Zero ishonchli ma’lumot va tahlil mamlakat TIFining asosiy strategiyasidir.

Tashqi savdo statistikasi statistikaning ajralmas qismi bo‘lib, tarmoq statistikasi hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasida gap tovarlar importi, eksporti, xalqaro moliya munosabatlari, ishlab chiqarish bilan bog‘liq shartnomaviy operatsiyalar haqida boradi.

Tashqi savdo esa eksport va importni o‘z ichiga oladi. Tashqi savdo mamlakatni moddiy resurslari kamayishi yoki ortishiga tegishli tovar massalari, xizmatlar oqimini bojxona orqali olib o‘tilishini ifodalaydi. Statistika tashqi savdoni o‘rganishda faqatgina bojxona orqali qonuniy ravishda olib o‘tilayotgan tovarlar va xizmatlar oqimini hisobga oladi.

Tashqi savdo statistikasi ikki harakterni o‘zida mujassamlashtiradi: statistika faqatgina bojxona chegaralarini kesib o‘tayotgan tovarlar va xizmatlarni hisobga oladi; statistika chegarani kesib o‘tuvchi har qanday tovarni va xizmatni, u xoh tijorat asosida, xoh notijorat maqsadida o‘tishidan qat’iy nazar qiymatini hisobga oladi, ya’ni mamlakat tomonidan olingan har qanday iqtisodiy yordam import sifatida, iqtisodiy yordam sifatida berilgan tovarlar esa eksport sifatida qayd qilinadi.

Sobiq ittifoq davrida markazlashgan holda tashqi savdoni hisobga olish 1930 yilda boshlanadi. Shu yildan boshlab, bojxona hisobi markazlashgan holda olib borilib, unga barcha ittifoq mamlakatlaridan («Tashqi dunyo»dan) olib kirilayotgan va chiqarilayotgan tovarlar hisobga olingan. O'zbekistonda esa tashqi savdoni hisobga olish maxsus davlat xodimlari tomonidan hisobga olingan bo'lib, tashqi savdo hisobini mamlakatimizda bir necha asr oldin boshlanganligidan dalolat beruvchi manbalar mavjud. Ayniqsa, yirik hududni egallagan Amir Temur davlatida savdoni hisobga olish muhim o'rinn tutgan.

1942 yildan Ittifoq hududida tashqi savdoni tashqi savdo vazirligi hisobga ola boshladidi. Bu davrda tashqi savdo vazirligi faqatgina tijorat maqsadida olib kirilayotgan va olib chiqilayotgan tovarlarni hisobga olar edi. 1959 yildan boshlab esa tashqi savdo vazirligi bilan birga bojxona qo'mitasi parallel hisob olib borishni yo'lga qo'ydi.

1991 yildan boshlab esa mustaqillikka erishgan O'zbekiston jahon tajribasini tan olgani holda, tovar va xizmatlar eksport – importini bojxona qo'mitasi orqali olib borildi.

## **7.2. Tashqi savdoda tovarlar importi va eksporti, uni statistik o'rGANISH**

Avvalambor, eksport va import haqida va uni hisobga olish to'g'risida gap ketganda, tashqi savdo hisobini olib borish haqida gapiresh lozim. Bojxona xodimlari tomonidan tashqi savdoni rasmiylashtirishda bojxona deklarasiyalari, tovar va xizmatlarga berilgan yo'l qog'ozlari, tovarlar va xizmatlar hisobi va ularning shartnomalar rasmiylashtiriladi. Bojxona chegaralari kesib o'tsada, ammo tashqi savdo hisobiga olinmaydigan tovar va xizmatlar quyidagilardan iboratdir:

1. To'g'ridan – to'g'ri tranzit (omborlarda saqlanganlardan tashqari).
  2. Jismoniy va yuridik shaxslarning, xorijlik fuqarolarning hamda diplomatik missiyalarning shaxsiy yuki.
  3. Bir yildan ortiq bo'limgan muddatga joriy ijaralarni hisobga olgan shartnomadagi tovarlar.
  4. Qaytayotgan taralar(konteynerlar, shisha idishlar) va namunalar.
  5. Muomaladagi oltin tangalar va boshqa tangalar, muomalada bo'lgan qimmatli qog'ozlar va banknotlar.
  6. Vaqtinchalik olib kirilayotgan yoki olib chiqib ketilayotgan tovarlar:
    - 6.1. Teatr bezaklari.
    - 6.2. Sport inventarlari.
    - 6.3. Mashinalar.
  - 6.4. Auksion, yarmarka va ko'rgazmalarga olib kelingan tovarlar.
  - 6.5. Kinofilmlar ijarasi.
  7. Transport vositalari va boshqa uskunalar ta'miri.
  8. Tovarlarni olib kelmasdan reeksport qilish.
  9. Nomoddiy xizmatlar qiymati.
  10. Tovar va xizmatlarni kafolatli etkazib berish.
- Statistika tovarlar importi deganda quyidagilar tushuniladi:
1. Ichki iste'mol va qayta ishlash maqsadidagi tovarlar.
  2. Uzoq muddatdagi reeksportni ko'zlab olib kelingan tovarlar.

3. Tegishli bojxona omborlarida qayta ishlash uchun olib kellingan tovarlar. Birinchi kategoriyadagi tovarlar bojxona qo‘mitasi tomonidan olib boriladigan ichki iste’mol uchun olib kirilayotgan mahsulotlarni mamlakat hududiga qo‘yish bilan bog‘liq ommaviy tadbirdir. O‘zbekiston importida ushbu tovarlar ulushi o‘ta yuqoridir.

Eksport haqida gap borganda esa:

1. Mamlakat hududida ishlab chiqarilgan, qazib olingan yoki etishtirilgan mahsulotlar.
2. Bojxona nazorati ostida qayta ishlangan mahsulotlar.
3. Belgilangan bojxona omborlariga olib kelgingan tovarlar.
4. Ichki iste’mol uchun import qilingan, ammo iste’mol qilinmay qolgan mahsulotlar.

Statistika tovar va xizmatlar import va eksportini o‘rganishda bir necha usullardan foydalanadi. Bunday usullar jumlasiga statistikaning umumiyligi usullaridan dinamika ko‘rsatkichlari, indekslar usuli, grafik va jadvallar usullari, tarkib va salmoqni ifodalovchi ko‘rsatkichlar, shu bilan birga balans usullari bilan keng foydalaniladi. Tashqi savdo balansi mamlakat uchun ma’lum muddatda tashqi savdo holatini yaqqol ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga tashqi savdo balansi mamlakat tashqi savdosi istiqbolini va tashqi savdoga tegishli chora-tadbirlar manbai ekanligini hisobga olishi lozim.

Tashqi savdoga tahliliy yondashishda indekslar usulining ahamiyati katta. Chunki zamon va makonda tashqi savdoni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Baho indeksi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$I_p = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0} \quad \text{Paashe formulasi.}$$

Ba’zi hollarda ayrim tovarlar uchun baho indeksini hisoblashga to‘g‘ri keladi.

$$i_p = \frac{P_1}{P_0}$$

Tashqi savdoni fizik hajmidagi o‘zgarishlar umumiyligi tarzda quyidagi indeks orqali ifodalananadi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} \quad (\text{Laspeyres formulasi})$$

ayrim tovarlar uchun esa:

$$i = \frac{q_1}{q_0}$$

Bundan tashqari tashqi savdo shartini ifodalovchi indeks:

$$I_{st} = \frac{I_{re}}{I_{ri}}$$

Bu erda:  $I_{re}$  – eksportning o‘rtacha baho indeksi.

$I_{ri}$  – importning o‘rtacha baho indeksi.

Shu bilan birga tashqi savdo strategiyasini ifodalab beruvchi import kvota va eksport kvota darajasi va indeksi hisoblanadi.

Eksport kvotasi darajasi:

$$K_{EK} = \frac{EK}{YaIM}; \text{ indeksi } i_{ek} = \frac{K_{ek_1}}{K_{ek_0}}$$

Import kvotasi:

$$K_{ik} = \frac{IK}{YaIM}; \text{ indeksi } i_{ik} = \frac{K_{ik_1}}{K_{ik_0}}$$

Tashqi savdoni rivojlanish tendentsiyalarini tahlil qilishda eksport va import elastikligi koeffisenti hisoblanadi.

Eksport elastikligi:

$$E_E = \frac{\Delta E}{E} : \frac{\Delta YaIM}{YaIM} :$$

Import elastikligi:

$$E_i = \frac{\Delta I}{I} : \frac{\Delta YaIM}{YaIM} ;$$

Bu erda  $\Delta$  o'sishning mutlaq qiymatini ifoda etadi.

Birinchi ko'rsatkich YaIMning o'sish tendentsiyasiga nisbatan eksport o'sish tendentsiyasi nisbatini aniqlaydi. Ya'ni, mahsulot eksporti YaIM o'sish ta'siri va eksport hajmi real o'sishini ifodalaydi.

Ikkinci ko'rsatkich esa YaIM o'sishi bilan import hajmi o'sishi o'rtaсидаги bog'liqlikni ifodalab, ularning o'sish tendentsiyalarini o'zaro taqqoslashga imkon beradi.

Statistika yuqorida aytib o'tilgan ko'rsatkichlardan tashqari tashqi savdo salmog'i, uning turilishi ham keng o'rganadi.

### 7.3. Tashqi savdoda baholarning shakllanish xususiyatlari

Xalqaro savdo amaliyotida o'ndan ortiq shartnoma sharoitiga bog'liq bir necha va o'sha tovarga o'rnatilishi mumkin bo'lgan narx turlari mavjud. Narxlar ro'yxati xalqaro savdo atamalari qoidalari «INKOTERMS»da bayon etilgan. Shartnoma shartlarini shakllantirishda bazis yoki o'tgan davr uchun preyskurant narxlaridan foydalilanadi. U narxlar maxsus preyskurant – spravochniklarda keltiriladi. Standartga muvofiq eksport qilinuvchi tovarlar «G'OV», «G'OV – jo'natish porti», «G'OV – franko - quruqlik chegarasi» baholarida, import qilinuvchi tovarlar «CIF», «CIF – import belgilangan port», «CIF – import belgilangan mamlakat franko - quruqlik chegarasi» baholarida keltiriladi.

«G'OV» bahosi sotuvchi mamlakat chegarasida vujudga keladi. Ammo, xalqaro shartnomalarni tuzishda shu narsani nazarda tutish lozimki, INKOTERMS sotish harid qilish shartlari bazis hisoblanib, savdo – sotiq qiluvchi tomonlar uchun majburiy emas.

Tomonlar o'zlarini qoniqtirgan qoidalarni ishlab chiqishi mumkin. Bunda, G'OV abbrevurasi, masalan AQSh savdo qonuniga ko'ra umuman INKOTERMSdan boshqa shartlarni anglatadi.

Shu sababli har bir muayyan sharoitda turli mamlakatlarda amal qiluvchi savdo qoidalari bilan yaqindan tanishib chiqish zarur, ya’ni milliy INKOTERMS bilan G’OV qiymati quyidagicha shakllanadi:

Tovarning kontrakt qiymati Q tovarni kema sathiga olib kelish bilan bog’liq barcha harajatlar Q «Erkin sathga» ortish (eksport bojini hisobga olgan holda) G’OV qiymati tashqi savdo pirovardida qayd etiladi va eksportyor o‘z sherigidan olishi kerak bo‘lgan qiyamatni bildiradi.

CIF import qiymati import qiluvchi mamlakat chegarasida yuzaga keladi.

CIF sharoiti bo‘yicha tovarlarni etkazib berishda sotish bahosiga quyidagilar kiradi:

Tovarning o‘z bahosi Q tovarni belgilangan portgacha etkazib berish transport harajatlari(fraxt) Q tovarni sug‘urtalash harajatlari.

Agar fraxt va G’OV bahosini nazarda tutsak, CIF bahosini quyidagicha ifodalash mumkin:

G’OV qiymati Q Fraxt Q Eksport qiluvchi chegarasidan import qiluvchi mamlakat chegarasigacha sug‘urtalash.

CIF sharti bo‘yicha mahsulot etkazib berishda sotuvchi transport vositalarini fraxt qilishi, fraxtni to‘lashi, tovarni jo‘natish portiga etkazish, o‘z hisobiga transpotrga ortish, haridorga to‘lov hujjatlarini topshirish(kinosament) kerak. Sotuvchi tovarni sug‘urtalashi shart bo‘lib, haridorga sug‘urta polisini topshirishi zarur. Haridor tovarni tushirib olish, uni omborxonaga joylash va saqlash bilan bog’liq harajatlarni o‘z zimmasiga oladi. Demak, tovarni tushirishgacha bo‘lgan harajatlarni sotuvchi, tushirgandan keyingi harajatlarni esa haridor o‘z zimmasiga olishi zarur.

Xalqaro amaliyotda G’OV va CIF baholarini aniqlashda asos CAFACost (and freight), bahosi bo‘lib, unga faqat tovarning bahosi va tashish(transport) harajatlari kiradi. Nazariya bo‘yicha xalqaro savdoni tahlil qilishda, jahon bo‘yicha import va eksport qiymati teng bo‘lishi kerak. Afsuski, amalda bunday bo‘lmaydi. Sababi eksport G’OV baholarida, import esa CIF baholarida hisobga olinadi. Ushbu holatni xalqaro savdoni tahlil qilishda yodda tutish zarur.

AQSh statistikasida to‘lov balansida eksport va import G’OV baholarida hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Tashqi savdoda eng asosiy masala bu baholarning shakllanishi hisobiga o‘tadi. Ularning kategoriyalari ham muhim o‘rin tutadi.

To‘lov balansining ahamiyati ham katta. Tashqi savdo eksporti va importi kunlari ham iqtisodiy tahlilda alohida o‘rin egallaydi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Tashqi savdoda qo‘llaniladigan baholar.
2. Tashqi savdo baholarining shakllanish xususiyatlari.
3. To‘lov balansi haqida nima bilasiz?
4. Tashqi savdoda eksport va import kunlari.
5. Tashqi savdoning jug‘rofik tuzilmasi.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Золоев В.Т. Статистика внешней торговли. – М.: Финансы и статистика. 2001.
3. Минашкин В.Г., Козарезова О.Л. Основы теории статистики. – М., 2004.
4. Петрова Е.В. и др. Практикум по статистике транспорта: Учебное пособие. – М., 2002.
5. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистики. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
6. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
7. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
8. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
9. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
10. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)

## **VIII bob. MILLIY HISOBLAR TIZIMIDA «TASHQI DUNYO» SEKTORI**

- 8.1. «Tashqi dunyo» sektori tushunchasi, vazifasi va asosiy hisoblari.
- 8.2. Joriy operatsiyalar hisobi.
- 8.3. Kapital harajatlar hisobi.
- 8.4. Moliyaviy hisob va uning asosiy ko'rsatkichlari.

### **8.1. «Tashqi dunyo» sektori tushunchasi, vazifasi va asosiy hisoblari**

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng asosiy vazifalaridan biri o'z iqtisodiyotini ma'muriy boshqarishdan bozor munosabatlariiga asoslangan boshqaruvga o'tkazishdan iborat bo'lib qoldi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish ob'ektiv zaruriyat sifatida davr taqozoga aylandi. Faqat bozor munosabatlariqina mamlakat ishlab chiqaruvchi kuchlarining ulkan imkoniyatlaridan biri-xalq baxt-saodati yo'lida, uning turmush darajasini oshirish maqsadida samarali foydalanishni ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini bozor munosabatlariiga o'tkazishda davlat statistikasi organlarining roli katta.

Bozor munosabatlari sharoitida statistika sohasidagi yangi muammolarni hal etishni, uning nazariy asosini qaytadan ko'rib chiqishni, mavjud statistika amaliyotida keskin o'zgarishlar amalga oshirilishini taqozo etadi.

Shu maqsadda makroiqtisodiy statistik rivojlanishning asosiy yo'nalishlarida tub o'zgarishlar hosil qilish uchun xalq xo'jaligi Balansini (XXB) saqlab qolgan holda, mahalliy sharoitlariga moslashgan milliy hisoblar tizimini (MHT) xalqaro standartini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Milliy hisoblash tizimida ijtimoiy takror ishlab chiqarishning barcha jarayonlari ikki yoqlama operatsiyalar to'plami sifatida talqin etiladi va bu operatsiyalar tomonlar hisobida qiymat ko'rinishida, daromad yoki harajat sifatida ko'rsatiladi.

MHT – avvalombor makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimining har tomonlama rivojlanishi natijasida yuzaga keldi.

1934 yili etakchi iqtisodchi olim S.Kuznes mamlakat bo'yicha 1929-1934 yillar uchun milliy daromad hajmini hisoblagan. 1929-1933 yillarda g'arb davlatlari uchun murakkab iqtisodiy inqiroz davri boshlandi va bu mamlakatlar iqtisodchilari kapitalistik jamiyat rivojlanishining «ayrim nazariyalari»ni qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ldilar. Kapitalistik mamlakatlarda balans tizulmalari zarurligi ob'ektiv omillar va, avvalo, davlat-monopolistik kapitalizmning rivojlanishi hamda kapitalistik davlatlar iqtisodiyotini tartibga solishning amaliy ehtiyoji bilan vujudga keldi. Ikkinchи jahon urishi tugagandan so'ng kapitalistik mamlakatlar davlatni boshqarish tizimida MHT qo'llanilishning zarurligini yanada chuqurroq tushinib etdilar.

1951 yilda Parijda Evropa Iqtisodiy hamjamiyatining milliy hisoblar bo'yicha konfrensiyasi bo'lib, unda Evropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar uchun MHTning standarti loyihasi qabul qilindi. Bu loyiha R.Stoun rahbarligidagi bir guruh iqtisodchilar tomonidan ishlab chiqildi.

1952 yilda bir guruh iqtisodchi-statistiklar BMTning Statistika byurosi topshirig‘iga binoan, «Milliy hisoblar va o‘tish jadvallari» deb nomlangan metodologiyani tayyorladilar. Bunda Angliya va AQSH ning milliy hisoblar bo‘yicha asosiy ishlari asos qilib olindi.

1968 yili BMTning Statistika komissiyasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan holda uning a’zolari tomonidan «Yashil Kitob» nomini olgan yana bir yangi standart ishlab chiqildi. 1968 yilda tatbiq etilgan MHT 25 yil mobaynida 1993 yilning fevraliga qadar xizmat qildi.

1993 yil fevral oyida BMTning Nyu-Yorkdagi statistika komissiyasining navbatdagi sessiyasida MHTning yangi standarti qabul qilindi.

Ushbu yangi standartda hamda MHTning eski 1968 yildagi standartda uining asosiy yutuqlaridan foydalanish ko‘rsatib o‘tilgan. Bunda eng asosiy xususiyatlaridan biri makroiqtisodiy statistika ko‘rsatkichlaridan keng ko‘lamda foydalanish hisoblanadi.

Yangi MHT xalqaro iqtisodiy hamkorlikda muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni xalqaro taqqoslashni yanada yuksaltirish maqsadida tashkil etildi.

MHTda iqtisodiyot sektorlari orasidagi munosabatlarni o‘rganish maqsadida asosiy hisoblardan keng foydalaniladi.

Bu hisoblar ikki guruhga ajratiladi:

1. Mamlakat ichki iqtisodiyotini ta’riflovchi ichki iqtisodiy hisoblar. Ularga quyidagi hisoblarni kritamiz:

- tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hisobi;
- ishlab chiqarish hisobi;
- daromadlarning tashkil topish hisobi;
- daromadlarni ayirboshlash hisobi;
- daromadlardan foydalanish hisobi;
- kapital harajatlar hisobi.

2. Mamlakatni boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarini o‘rganishda tashqi iqtisodiy aloqalar (tashqi dunyo) hisobidan foydalaniladi.

Bu hisob quyidagi 3 hisobda ifodalanadi:

- joriy operatsiyalar hisobi;
- kapital harajatlar hisobi;
- moliya hisobi.

«Tashqi dunyo» sektori – shu chegarada chet el iqtisodiy birliklar (uy xo‘jaligi, birlashmalar, korxonalar)ni qamrab oladi va shu chegarada mamlakat rezidentlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar (transport va sug‘urtalash sohasi xizmatlari, ya’ni import tovarlar bilan bo‘ladigan operatsiyalar, turli xil sektorlarga tegishli chet el aktivlari bilan rezidentlar o‘rtasida bajariladigan operatsiyalar, turli xil mintaqalarga tegishli davlat majburiyatları bilan rezidentlar o‘rtasida bajariladigan operatsiyalar, kapital qo‘yilmalar, joriy operatsiyalar, moliyaviy operatsiyalarni tasvirlaydi).

### **Bu sektorning asosan uchta hisobi:**

- joriy operatsiyalar;
- kapital harajatlar;
- moliyaviy hisoblar.

Ular yordamida milliy iqtisodiyot bilan «Tashqi dunyo» o‘rtasidagi munosabatlarni umumlashgan holda ko‘rish mumkin.

Joriy operatsiyalar hisobi O‘zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlarni tovar va xizmatlar oldi-sotdisida bo‘ladigan o‘zaro daromadlar harakati aloqalarini tasvirlaydi, bunda xalqaro amaliyotda qabul qilingan shartnomalarning bajarilishi, to‘lovlar va taqdim qilingan yoki tovarsiz ta’minlash vositasida jalg etilgan ko‘chirish foizlarini, dividentlarni va boshqa investisiyadagi daromadlarni, nafaqalarni, mehnat haqini, aliment va boshqa shunga o‘xhash operatsiyalarni qo‘shtigan holda kechiktirmasdan shartnoma asosida hisoblashlar o‘tkazishni ifodalaydi.

## 8.2. Joriy operatsiyalar hisobi

«Joriy operatsiyalar hisobi» resurslar hamda foydalanish qismidan iborat bo‘ladi.

Resurslar qismida – quyidagi barcha turdagи operatsiyalar ko‘rsatiladi: boshqa davlatlar bilan qilingan tovar va xizmatlar importidan olingan joriy daromadlar natijalari; rezident uy-xo‘jaliklarning «Tashqi dunyo»dagi pirovard iste’moli, rezident yollovchilar tomonidan norezident ishchilarining mehnatiga haq to‘lashlar; ishlab-chiqarish va import bilan bog‘liq soliqlar; mulkchilikdan kelgan daromadlar; tadbirkorlik faoliyati daromadi va joriy transfertlar; bundan tashqari, «Tashqi dunyo» bilan amalga oshirilgan joriy operatsiyalar hisobining kirim-chiqim moddasining qoldig‘i tasvirlanadi.

Foydalanish qismida esa – boshqa davlatlarning tovar va xizmatlar eksporti natijasida olingan joriy daromadlarni O‘zbekiston Respublikasiga topshirilgan qismi; norezident uy-xo‘jaliklarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidagi pirovard iste’moli; norezident yollovchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezident ishchilarining mehnatiga haq to‘lashlar; boshqa davlat rezident xo‘jalik birliklari tomonidan tushgan, mulkchilikdan kelgan daromadlar; tadbirkorlikdan kelgan daromadlar hamda joriy transfertlar tasvirlanadi.

Joriy operatsiyalar hisobida (JOX) statistik ko‘rsatkichlar yordamida umumlashtirilib: tovarlar, xizmatlar, daromadlar, transfert operatsiyalari o‘tkaziladi.

«Ko‘zga ko‘rinarli» tovarlar bu tovarlarni chetdan olib kirish yoki chiqarish natijasida mamlakatning moddiy resurslarining oshirish yoki kamayishini bildiradigan tovarlardir.

Bu atama tashqi iqtisodiy operatsiyalar natijasida Respublika rezidentlaridan norezidentlarga va aksincha bo‘ladigan mahsulotlar tarkibiga kiradi. U bojxona statistikasida eksport-import operatsiyalari hisobi sifatida qabul qilinadi. Xizmatlarni ishlab chiqarish bozor xizmatlaridek, nobozor xizmatlarini ham uz ichiga oladi.

Ishlab chiqarish xizmatlari bilan xalqaro savdo xizmatlari bir-biridan tovarlar bilan qilinadigan operatsiyalar orqali farq qiladi. Tovarlarning xalqaro savdosi ularni ishlab chiqarishda alohida amalga oshiriladi. Xizmatlarni ishlab chiqarish esa mamlakat iqtisodiyotida aniq ishlab chiquvchi bilan aniq iste’molchi o‘rtasidagi shartnoma vositasiga bog‘liq. Shunday qilib, xizmatlarning xalqaro savdosi, xalqaro xizmatlar ishlab chiqarish bilan uzviy bog‘liq, chunki ishlab chiqarish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha xizmatlarni tasniflashtirish va kodlashtirish uchun rezident va norezidentga ta’sir etadi.

**«Joriy operatsiyalar» hisobini tajribaviy hisob-kitobi  
(mln. AQSh dollarri)**

<i>Resurslar</i>	<i>2001 yil</i>	<i>2002 yil</i>	<i>2003 yil</i>
Mahsulot va xizmatlar importi	2394,1	1358,8	929,3
Rezident uy-xo‘jaliklarining «Tashqi dunyo»dagi pirovard iste’moli	-	-	-
Rezident yollovchilar tomonidan norezident ishchilarining mehnatiga haq to‘lash	-	-	-
«Tashqi dunyo»ga to‘langan ishlab chiqarish va import bilan bog‘liq soliqlar	-	-	-
«Tashqi dunyo»ga berilgan mulkchilikdan olingan daromad			
«Tashqi dunyo»ga to‘langan boshqa transfertlar			
«Tashqi dunyo» bilan joriy operatsiyalar qoldig‘i	-1360,3	-708,4	-60
JAMI:	1033,8	677,4	869,3

*Foydalanish*

Mahsulot va xizmatlar eksporti	1033,8	677,4	869,3
Norezident uy-xo‘jaliklarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy hududidagi pirovard iste’moli	-	-	-
Norezident yollovchilar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezident ishchilarining mehnatiga haq to‘lash	-	-	-
«Tashqi dunyo»dan olingan ishlab chiqarish va import bilan bog‘liq subsidiyalar	-	-	-
«Tashqi dunyo»dan olingan joriy transfertlar	-	-	-
JAMI:	1033,8	677,4	869,3

### **8.3. Kapital harajatlar hisobi**

«Tashqi dunyo» tarmog’ining kapital harajatlari hisobi.

«Tashqi dunyo» kapital harajatlar hisobi – asosiy va oborot fondlarni sotib olish va nomoddiy aktivlar haridini ko‘rsatuvchi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni aks ettiradi.

Bu hisobni resurslar qismiga:

- «Tashqi dunyo»ga berilgan kapital transfertlar;
- sof kreditlar(Q) yoki sof qarzlar(-) – kapital harajatlar hisobini muvozanatlash moddasi kiradi.

Foydalanish qismida:

- «Tashqi dunyo» bilan joriy operatsiyalar qoldig‘i;
- er va nomoddiy aktivlarning sof haridlari;
- «Tashqi dunyo»dan olingan kapital transferlar ko‘rsatiladi.

### 8.3.1 – jadval

#### Kapital harajatlar hisobi tuzilishi

Foydalanish	Resurslar
«Tashqi dunyo» bilan joriy operatsiyalar qoldig‘i	«Tashqi dunyo»ga kapital transfertlar
Er va nomoddiy aktivlarning sof haridlari	Sof kreditlar (Q)
«Tashqi dunyo»dan kapital transfertlar	Sof qarzlar (-)
JAMI	JAMI

Resurs qismida boshqa davlatlar tomonidan olinadigan daromad natijalari bo‘lgan barcha operatsiyalar ko‘rsatiladi.

BMT va ESIES MXT me’yorlari bo‘yicha kapital transfertlarga tabiiy ofat yoki harbiy harakatlardan ko‘riladigan chiqimlarni davlat tomonidan to‘lanishi, boshqa davatlarga iqtisodiy yordam ko‘rsatishda, kapital qurilishlarga beriladigan, qaytarib berilmaydigan moliyaviy yordamlar kiritiladi:

- sarmoyalalar uchun subsidiyalar;
- kapital uchun soliqlar;
- boshqa kapital transfertlar.

«Tashqi dunyo» sarmoyalari uchun subsidiyalar birlik norezidentlarni kapital jamg‘arishini moliyalashtirish transfertlari bilan cheklangan bo‘lishi kerak. Bunga ko‘priklar, yo‘llar, fabrikalar, kasalxona yoki maktablarni qurish, rivojlanayotgan mamlakatlardagi qurilishlar uchun qaytarib berilmaydigan transfertlar kiradi. Kapital uchun soliqlar – muntazam bo‘lmagan majburiy to‘lovlar, davlat boshqaruv organlari tomonidan kapital yoki xo‘jalik birliklari mulkidan olinadigan soliqlar. Kapital uchun soliqlarga quyidagilar kiritiladi.

- kapital va mulkdan kelgan soliqlar va to‘lovlar;
- meros uchun soliqlar, o‘zbek fuqarolari tomonidan chet el soliq hokimiyatlariga to‘lanadigan poshlinalar.

Boshqa kapital transfertlarga:

- boshqa davatlarga asosiy fondlarni qaytarib berilmaydigan qilib berish;
- «Tashqi dunyo»ga bir necha moliyaviy yilda yig‘ilgan chiqimlarni qoplash uchun transfertlar hamda har yillik bir tomonlama nafaqa fondiga to‘lovlar;
- meros va voz kechishlar;
- boshqa davatlarning asosiy fondlari ziyonlari uchun kompensasiya to‘lovleri kiradi.

#### 8.4. Moliyaviy hisob va uning asosiy ko‘rsatkichlari

«Tashqi dunyo» tarmog‘ining moliyaviy hisobi, asosan, turli xil tarmoqlarga tegishli bo‘lgan, chet el aktivlari, qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar bilan rezidentlar o‘rtasida bajariladigan iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshiradi.

## 8.4.1 – jadval

### Moliyaviy hisob.

<b>Resurslar</b>	<b>Foydalanish</b>
Qabul qilingan moliyaviy vazifalar.	Moliyaviy aktivlarni hosil qilish
Sof kreditlar.	
Sof qarzlar.	
<b>JAMI.</b>	<b>JAMI.</b>

Moliyaviy hisobning pirovard qoldig‘i sof kreditlar yoki qarzlar hisoblanadi. Bu qoldiq moliyaviy aktiv va passivlar qoldig‘iga teng bo‘lishi kerak. Moliyaviy hisobning muvozanatlashgan ko‘rsatkichi moliyaviy aktiv va passivlarning o‘zgarishi hisoblanadi. Bu operatsiya turlarini aniqlash, davlatlar yoki milliy iqtisodiyot sektorlari o‘rtasidagi, moliyaviy tuzilma o‘zgarishlarni va holatini aniqlashga yordam beradi. «Tashqi dunyo» tarmog‘i moliyaviy hisobining bir qancha ko‘rsatkichlari bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar orqali tarmoqlar bilan amalgam oshiriladigan operatsiyalarni aniqlash mumkin. Buning uchun asosan, davlat statistikasi hisoblarining xalqaro jahon standarti ko‘rsatkichlariga moslashtirib borishimiz kerak. Bundan tashqari, barcha statistik hisobot shakllari va buxgalteriya hisobot hujjatlarini to‘ldirishda yoppasiga statistik kuzatishlar olib boorish bilan birga tanlama hamda asosiy massivni kuzatish va boshqa kuzatish usullaridan foydalanishimiz kerak bo‘ladi.

Yangi milliy hisoblar tizimiga o‘tishimizdan asosiy maqsad O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojini tartibga solish samaradorligini oshirishdan iborat. Buning uchun etarli shart-sharoit yaratish, uning faoliyati, roli va ahamiyatini bozor iqtisodiyoti talabiga mos keladigan axborotlar tizimi orqali jahon hamjamiyati doirasida xolisona tahlil etish, boshqaruvga oid echimlar natijasini to‘g‘ri baholash, rivojlanish istiqbolini ilmiy bashorat qilishdan iborat. Buning uchun quyidagi asosiy vazifalarni hal etish kerak bo‘ladi:

- davlat statistika va hisoboti tizimi umum uslubiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish va ularni jahon amaliyotida qabul qilingan qonun-qoidalariiga moslashtirish;
- milliy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni xalqaro me’yorlarga moslashtirish, O‘zbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini yaratish, shu jumladan, milliy iqtisodiyotning tarmoq va sektorlariga tatbiqan milliy hisoblar tizimini barpo qilish;
- XXB ko‘rsatkichlarini MXT ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlashtirish, MXT tasviri bo‘yicha tarmoqlararo balanslar(TAB) ishlab chiqish;
- milliy iqtisodiyot ahvolini tasvirlovchi ko‘rsatkichlar tizimining tarkibi, iqtisodiy mazmuni va hisoblash usulini belgilash, bu ishlarning tahliliy yo‘nalishini oshirish, statistik ma’lumotlarni to‘plash va ularni umumlashtirishni tashkil etish;
- xalqaro qoidalari talabiga mos ravishda buxgalteriya, bank, moliya va bojxona faoliyatiga oid yangi boshlang‘ich hisobot shakl larining yagona statistik tizimini ishlab chiqish va uyg‘unlashtirishni ta’minlash;
- moliya, byudjet, va banklar faoliyati statistikasi tizimini takomillashtirish va to‘lov balanslarini ishlab chiqish;
- baholar statistikasi, aholi va mehnat, tashqi savdo statistikasini xalqaro qoidalari talabi asosida qayta tashkil qilish;
- xalqaro statistika tashkilotlariga vaqt-vaqt bilan yuboriladigan ko‘rsatkichlarning tarkibi, yuborilish vaqtini va tartibini belgilash;

- turli xildagi mulkchilik va xo‘jalik yuritishga mansub korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat ro‘yxatini yaratish;
- xalqaro standartlarga mos tarzda yagona tasniflash va kodlashtirish tizimini tuzish va amaliyotga tatbiq etish;
- mahsulotlarning katalogglashtirish va chiziqli kodlashtirish tizimini barpo qilish;
- hisobot va statistika sohasida xodimlar tayyorlash va ularni qayta o‘qitish.

Yuqoridaq vazifalar bajarilgandan so‘ng biz yangi statistika tizimiga, ya’ni MXTga o‘tishimiz mumkin. MXTga o‘tish birlamchi statistika axborotini, buxgalteriya, moliya va bank hisobotlarini ketma-ket qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi hamda xalqaro talablar asosida statistika va buxgalteriya hisoboti tizimidagi barcha o‘zgarishlar va qayta qurishni hisobga olgan holda kengaytirilgan tarmoqlararo balans ishlab chiqiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Milliy hisoblar tizimida «Tashqi dunyo sektori» alohida o‘rin tutadi. Uning vazifalari va asosiy hisoblari batafsil yoritiladi.

«Tashqi dunyo sektori» 3ta hisobdan tashkil topgan:

- 1) joriy operatsiyalar;
- 2) kapital harajatlar;
- 3) moliyaviy hisob.

Ushbu hisoblarni o‘rganish «Tashqi dunyo» sektori to‘g‘risida to‘la va batafsil ma’lumotga ega bo‘lishingizga imkon beradi.

### **Nazorat va mulohaza uchun savollar**

1. BMTning milliy hisoblar tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. MXT tarmoqlari haqida nimalarni bilasiz?
3. «Tashqi dunyo» sektori haqida tushuncha, uning vazifalari va asosiy hisoblari.
4. Joriy operatsiyalar hisobi va uning asosiy ko‘rsatkichlari.
5. Moliyaviy hisob to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
6. Kapital harajatlar hisobi va uning ahamiyati.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Башкатов Б.И., Рябушкин Б.Т. Практикум по национальному счетоводству: Учебное пособие – М., 2004.
2. Национальное счетоводство / Под ред. Б.И.Башката. Учебник. 2004.
3. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
4. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
5. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
6. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
7. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
8. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
9. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

## **IX bob. TASHQI SAVDO DINAMIKASINI VA TUZILMASINI O'RGANISH**

- 9.1. Tashqi savdoni o'rganishning statistik metodlari.
- 9.2. Tovaraylanmasi dinamikasini o'rganish.
- 9.3. Tashqi savdo tuzilmasini o'rganish.

### **9.1. Tashqi savdoni o'rganishning statistik metodlari**

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov 2006 yil 10 fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2005 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'rurasida: "Beshinchi ustuvor vazifa eksportni har tomonlama rag'batlantirish va valyuta zaxiralarini tejash, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashdan iborat"<sup>1</sup> – deb tashqi faoliyatni, jumladan tashqi savdoni yanada rivojlantirish hozirgi kunda naqadar dolzarb masala ekanini yana bir bor eslatib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng, jahon hamjamiyati bilan iqtisodiy-moliyaviy va diplomatik munosabatlarni o'rnatdi. Bu diplomatik munosabatlarning negizida tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Hozirgi kunda respublikada tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asosi yaratilgan va samarali ishlab kelmoqda. Shu jihatdan respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha statistik hisobni yuritish va uni yanada takomillashtirish muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston suveren davlat sifatida ochiq iqtisodiyotni vujudga keltirish sohasida faol ish olib bormoqda.<sup>2</sup> Mamlakatning jahon xo'jaligi aloqalarida xalqaro mehnat taqsimotida keng miqyosda ishtirok etishi ochiq turdag'i iqtisodiyotni barpo etishning asosidir. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonni dunyodagi 180 tadan ortiq davlat tan oldi. Ulardan deyarli barchasi bilan diplomatik munosabatlarni o'rnatildi. O'zbekiston poytaxtida 30 dan ortiq mamlakatlarning, shu jumladan buyukligi e'tirof etilgan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy kabi davlatlarning elchixonalari faoliyat yuritiyapti. Hozir dunyoning 20 dan ortiq davlatida (AQSh, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Hindiston, Rossiya va boshqalarda) respublikamizning diplomatiya elchixonalari ish boshladi.

O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi va boshqa obro'e'tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi hamda ularda faol siyosat o'tkaza boshladi.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. – Халқ сўзи, 2006 йил 11 феврал.

<sup>2</sup> Карапнг: Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. // Хавфсизлик ва барқарорлик тараккиёт йўлида. Т.6. -Т., 1998. -245-248-б.

Ko‘pgina xalqaro tashkilotlar - BMT, XVF, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqa tashkilotlar respublikada o‘zlarining mintaqaviy vakolatxonalarini ochdi va o‘zbekistonlik sheriklar bilan faol hamkorlik qilmoqda.<sup>1</sup>

Xalqaro Valyuta Fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi ishtirokida ishlab chiqilgan hamda respublikada kichik va hususiy biznesni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi bir qancha loyihalar, shuningdek, iqtisodiyotning eng manfaatli sohalaridagi loyihalarni moliyaviy jihatdan ta’minlash dasturi amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan tuzilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo bo‘lib kirdi. Mazkur tashkilot doirasida respublika xalqaro transport yo‘llarini birgalikda qurish loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Bu yo‘llar O‘zbekistonga dengiz portlariga, mamlakatlararo transport tarmoqlariga, jahon tovar va kapital bozorlariga chiqish imkonini beradi.

1994 yilning iyun oyida O‘zbekiston Tariflar va savdo Bosh Bitimi (GATT)da kuzatuvchi maqomini oldi. Bu tashkilot jahon savdosining hozirgi tizimini boshqarishda markaziy o‘rinni egallab turibdi. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonning GATTga to‘la huquqli a’zo bo‘lib qo‘shilishi to‘g‘risidagi masala o‘rganib chiqilmoqda. Agar bu masala ijobjiy hal etilsa, respublikamiz mazkur Bitimning to‘la huquqli ishtirokchilari bo‘lmish 111 ta mamlakat bilan savdo-sotiq qilish uchun mustahkam huquqiy asoslarga va imtiyozlarga ega bo‘ladi.

O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi ham uzoq muddatli, ham qisqa muddatli ahamiyatga ega eng muhim vazifalarni birlashtirish maqsadlaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Birinchidan, jahon iqtisodiyotiga qo‘shilishdan iborat bo‘lgan strategik integrasion vazifa - O‘zbekistondagi barcha xo‘jalik sub’ektlarining tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqalari uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos keladigan shart-sharoitlar yaratish asosida xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo‘shilish nazarda tutiladi. Ikkinchidan, respublikaning joriy muammolarini hal etishga bevosita ko‘maklashish, mavjud xalqaro tajriba asosida, yuqorida sanab o‘tilgan muassasalardan moliyaviy, texnikaviy yordam va maslahat olish yo‘li bilan o‘tkazilayotgan islohotlarni qullab-quvvatlash ko‘zda tutilmoqda.

Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi zarur bo‘lgan barcha muassasalar amalda yangidan barpo etildi. Tashqi iqtisodiy aloqa vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasida, vazirliklar va idoralarda, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalarda va mahalliy boshqaruv idoralarida tegishli tashqi iqtisodiy bo‘linmalar tuzildi va faoliyat yuritmoqda. Xorijiy hamkorlar ishtirokida respublikada xalqaro savdo-sotiq, markazi tuzildi. Dunyoning bir qancha mamlakatlarida savdo uylari ochildi. O‘zbekiston bilan AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya o‘rtasida hamda respublikamiz bilan faol hamkorlik qilishdan manfaatdor boshqa mamlakatlar o‘rtasida bahamjihatlik asosida savdo-sanoat palatalari barpo etildi.

Islohot amalga oshirila boshlangan paytdan buyon tashqi iqtisodiy aloqalar

<sup>1</sup> Карапнг: И.А.Каримов. Асрларга тенг йиллар. Т., 2001. -47-53-бетлар.

qatnashchilarining tarkibi va tuzilishi o‘zgardi. Respublikaning ikki mingtadan ko‘proq xo‘jalik sub’ekti, shu jumladan, uyushmalar, kontsernlar, kichik va xususiy korxonalar tashqi bozorga chiqish huquqini oldi.

Tashqi savdo bilan bir qatorda tashqi iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllari ham sezilarli darajada kuchayib bormoqda. Respublikada xorijy sarmoyalalar ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar tobora ko‘paymoqda. Hozirgi vaqtida respublika hududida ro‘yxatdan o‘tkazilgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar 2627 tadan oshdi, 100 foiz xorijiy sarmoya bilan ishlovchi korxonalar 110 taga etdi.

Hozirgi kunda an'anaviy sheriklar - MDH, mamlakatlardan tashqari eksportning anchagina qismi Turkiya, Bel’giya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Gollandiya, Polsha, Koreya Respublikasi, Indoneziya, Malayziya kabi mamlakatlarga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonning 1991 yil 1 sentyabrdagi Mustaqillikka erishishi hamda 1992 yil 2 martda BMTga a’zo bo‘lishi Respublikamizni jahon davlatlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyatda yanada faolroq qatnashishiga olib keldi. O‘tgan davr mobaynida Respublikamizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha bir qancha islohotlar amalga oshirildi.

O‘tgan yillar mobaynida iqtisodiy kompleks bo‘yicha olib borilayotgan tashqi ishlar, tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi tomonlar faoliyatini bozor iqtisodiyoti tamoyil asosida olib borildi. Chet el mamlakatlari bilan iqtisodiy savdo munosabatlari hamda xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mustahkamlash borasida olib borilayotgan ishlar yanada jadallashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarini yanada erkinlashtirish to‘g‘risida»gi «Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining xo‘jalik hisobidagi tashkilotlarni davlat aksionerlik kompaniyalariga aylantirish to‘g‘risida» farmonlari va «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilindi.

## **9.2. Tovarooborot dinamikasini o‘rganish**

Tashqi savdo rivojlanishida 2005 yilda 2004 yilga nisbatan ijobjiy o‘zgarishlar kuzatildi. Tashqi savdo aylanmasi 9,6% ga ko‘paydi va 9,5 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.<sup>1</sup> Bunga asosan quyidagilar sabab: bo‘ldi: eksport-import bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarni ro‘yxatga olish amaliyotini soddalashtirildi; Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida import shartnomalarni dastlabki ro‘yxatga olish bekor qilindi; qushimcha qiymat solig‘idan tashqari barcha turdagи soliq va yig‘imlarni to‘lashdan ozod qilingan xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan raqobatbardosh tayyor iste’mol tovarlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish bo‘yicha qushimcha choralarining qo‘llanildi; Davlat bojxona qo‘mitasi, Markaziy bank, Davlat soliq qo‘mitasi va tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o‘rtasida tashqi savdo amaliyotlarini ayirboshlashning yagona elektron tizimi yaratildi; joriy xalqaro amaliyot bo‘yicha milliy valyutani (so‘mni) erkin ayirboshlash – konvertatsiya kiritildi; yuridik shaxslar, shuningdek, eksport-import amaliyotlarini amalga oshirish

<sup>1</sup> Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2005 г. Госкомстат РУз. Ташкент, 2006. 26c.

huquqiga ega bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro‘yxatga olingan jismoniy shaxslar uchun yog‘och va yog‘och mahsulotlarini import qilishda bojxona tolovi stavkasi nolga tenglashtirildi.

2005 yildan boshlab O‘zbekiston import qilishga nisbatan ko‘proq eksport qila boshladи. Tovar ayrboshlashning umumiy hajmida eksportning salmog‘i 56,93%, importning esa 43,07% ni tashkil qildi.

Savdo balansining aktiv qismi 2005 yilda 5408,8 mln. AQSh dollarni, import esa 4091,3 mln. AQSh dollarini tashkil etdi hamda so‘nggi yillarda ilk marotaba 1995 yil ko‘rsatkichiga yaqinlashdi (9.2.1-jadval).

Tovar ayrboshlashdagi ijobiy qoldiq (salbo‘) xorij mamlakatlari bilan savdo qilish hisobiga erishildi. MDH, mamlakatlari bilan tovar ayrboshlashdagi salbiy qoldiq kamaydi va 41,8 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

Eksport hajmi 11,5% ko‘paydi. Xizmat ko‘rsatuvchi va tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, «O‘zeltexsanoat», «O‘zavtosanoat», "O‘ztelekom" uyushmalari, DAJ TAPOiCH mahsulotlar eksporti hajji ko‘paydi. "O‘zqishloq xo‘jalikmash holding" XK, "O‘zbekneftgaz" milliy holding kompaniyasi, "O‘zbek ipagi" uyushmasi korxonalari eksport mahsulotlari turini kengaytirdilar. Import bo‘yicha ham har chorakda o‘sish saqlanib turdi va eng katta o‘sish sur’ati to‘rtinchı chorakda kuzatildi - 27,4%. Umuman olganda yil davomida 2004 yilga nisbatan import hajmi 7,2% ko‘paydi. Eksport tarkibida sifat o‘zgarishlari ro‘y berdi. Oziq-ovqat mahsulotlaridan tashqari tovarlarning barcha guruhlari bo‘yicha 2004 yilga nisbatan eksport hajmining ko‘payishi kuzatildi. Mahsulot hajmida yuqori qo‘sishcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar (mashina va uskunalar engil sanoat mahsulotlari boshqa tayyor buyumlar) mavqeい yaxshilandi

### **9.2.1 – jadval**

#### **O‘zbekistonning tashqi savdo balansi (mln. AQSh dollari)**

	Eksport	Import	Savdo balansi
1995 yil	3719,9	2892,7	827,2
1996 yil	4590,2	4721,1	-130,9
1997 yil	4387,5	4523,0	-135,5 .
1998 yil	3528,2	3288,7	239,5
1999 yil	3235,8	3110,7	125,1
2000 yil	3264,7	2947,4	317,3
2001 yil	3170,4	3136,9	33,5
2002 yil	2988,4	2712,0	276,4
2003 yil	3725,0	2964,2	760,8
2004 yil	4853,0	3816,0	1037,0
2005 yil	5408,8	4091,3	1317,5

Манба: ЎзР Давлат статистика қўмитаси

Shu tariqa samolyot va avtomobilsozlik sanoati mahsulotlari hisobiga mashina va uskunalar eksport qilish hajmi 1,9 marta ko‘paydi. Natijada 2003 yilga nisbatan mashina va uskunalar eksporti ulushi 1,5 foiz darajaga oshdi va 2004 yilda 7,4% tashkil qildi (9.2.2-jadval).

Kimyoviy tola va iplar, farmasevtika mahsulotlari, parfyumeriya va pardoz buyumlari, o‘g‘itlar, plastmassa hisobiga kimyoviy mahsulotlar eksporti hajmi 10,3% ortdi va bu turdagи tovarlar guruhining ulushi 4,7% tashkil etdi. Bu turdagи tovarlar guruh bo‘yicha eksportning asosiy o‘sishi uchinchi va to‘rtinchi choraklarda ta’minlandi, bu davr oralig‘ida o‘tgan yilning shu davriga nisbatan kimyoviy mahsulotlar eksport qilish hajmi 1,5 martaga ko‘paydi.

Xizmatlar hajmi 18,1% kamaydi, ularning 71,5% transport xizmatlariga to‘g‘ri keladi. Hanuzgacha sayyohlik, kompyuter va informatsion xizmatlarning eksportdagi salmog‘i kamligicha qolmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ulushi 2003 yildagi 2,7% dan 2004 yilda 3,8% ga ko‘payishi tovarlarni ichki bozor ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilganligi bilan bog‘liq. Jumladan, guruch, meva sabzavot konservalari, ichimliklar, tamaki mahsulotlari.

Xizmatlar eksporti hajmi 28,4% oshdi va ularning 71,5% transport xizmatlariga to‘g‘ri keladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti ulushining oshishiga ob-havoning qulay kelishi uzum va nok kabi mevalarning ko‘p etishtirilganligi sabab bo‘ldi.

### **9.2.2-jadval**

#### **O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tovarlar eksport hajmi va tarkibi o‘zgarishi**

Tovar guruhi	Umumiyl eksport hajmidagi salmog‘i, %		Hajmning o‘zgarishi, %da
	2003	2004	
Paxta tolasi	19,8	18,1	95,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	2,7	3,8	112,4
Kimyoviy mahsulotlar	3,1	4,7	110,32
Energiya resurslari	9,8	12,4	124,4
Qora va rangli metallar	6,4	18,6	290,6
Mashina va asbob-uskunalar	5,9	7,4	125,4
Xizmatlar	14,4	11,8	81,9
Boshqalar	37,9	33,2	87,5
Jami	100	100	109,5

Манба: ЎзР Давлат Статистика қўмитаси маълумотлари

Yil davomida respublika asosiy eksport tovarlariga qulay bahodagi konyunkturasi kuzatilgan. Paxta tolasining jahon bozorlaridagi yuqori bahosi saqlanib turdi. Xitoy, Avstraliya va Afrikaning bir qator hududlarida kam paxta hosili olinishi

oqibatida, jahon bozorida bir tonna paxta tolasining bahosi 1335 AQSH dollardan 1500 AQSh dollargacha etdi.

Paxta xom ashyosi eksport hajmi 2003 yilga nisbatan 4,4% ga kamaydi, energetik resurslar 24,4% ga, rangli va qora metallar 2,96 % marotaba oshdi. Eksportdagi paxta tolsi ulushi 1,7% darajaga kamaydi va 18,1 % tashkil etdi, energiya resurslarining ulushi esa 2,6 % ga oshdi va 9,8% ga etdi. Energetik resurslari eksportining o'sishi, asosan, tabiiy gaz eksportining ko'tarilishi hisobiga ro'y berdi. Rangli va qora metallar ulushi 18,4% ni tashkil etdi va 2003 yil darajasidan oshdi.

Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo'yicha choralarini amalga oshirish natijasida importning tovar tarkibida ham o'zgarishlar kuzatilgan. Umuman olganda, 2003 yilga nisbatan import o'sishi mashina va uskunalar importini 3,6%, rangli va qora metallar 30,4% ga oshdi, energetika va yoqilg'i mahsulotlari 32,3%ga kamaydi, xizmatlarining 8,8 % ga oshishi boshqa guruhlari bo'yicha 7,4%ga kamayishi hisobiga yuz berdi (9.2.3-jadval).

Importda mashina uskunalar asosiy o'rinni egallaydi, 2003 yilga nisbatan ularning salmog'i 3,6 darajaga ko'paygan va umumiyl importning 46,0%ini tashkil qilgan. Bu iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan zamонавиј ishlab chiqarishlarni yaratish, mavjud jihozlarni zamонавијлаштириш va texnologik yangilash bilan bog'liq.

### 9.2.3-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi bo'yicha tovarlar import hajmi va tarkibining o'zgarishi

Tovar guruhi	Umumiy eksport hajmidagi salmog'i, %		Hajmning o'zgarishi, % 2004 yilda 2003 yildagiga nisbatan
	2003	2004	
Oziq-ovqat mahsulotlari	9,9	6,8	68,7
Kimyoviy mahsulotlar	12,8	12,5	97,6
Energiya resurslari	2,7	2,1	77,7
Qora va rangli metallar	7,9	10,3	130,4
Mashina va uskunalar	44,4	46,0	103,6
Xizmatlar	10,2	11,1	108,8
Boshqalar	12,1	11,2	92,6
Jami	100	100	128,7

Манба: ЎзР Давлат Статистика қўмитаси

Energiya va yoqilgi mahsulotlari importi salmog'i 2003 yildagi 2,7 foizdan 2004 yilda 2,1% gacha kamaydi. Rangli va qora metallar importi salmog'i 10,3%, xizmatlar esa 11,1 foizni tashkil qildi yoki 2003 yilga nisbatan mos ravishda 2,4 va 0,9% ga oshdi.

G'alla va un, shakar va qandolat mahsulotlari, yog' va moy, alkogol va alkogolsiz ichimliklar olib kelinishi qisqarishi hisobiga 2003 yilga nisbatan iste'mol tovarlari importi 13,5% kamaydi. Kaustik suda, farmasevtika mahsulotlari, plastmassa importni qisqarishi hisobiga kimyoviy mahsulotlar importi 7,4% kamaydi.

Natijada umumiy import hajmidagi iste'mol tovarlari importining salmog'i 9,9% dan 6,8% gacha, kimyoviy mahsulotlar importi esa mos ravishda 12,8% dan 12,5% gacha kamaydi.

2004 yilda xorij mamlakatlariiga eksport qilish sur'atlari (2003 yilga nisbatan 1,27 marta) MDH mamlakatlariiga (1,17 marta) nisbatan o'sib borishi kuzatilgan. Bunda MDH, mamlakatlariiga eksport qilish salmog'i 27,6% dan 26% gacha kamaygan. MDH mamlakatlariiga, asosan, iste'mol tovarlari va energetika, yoqilg'i mahsulotlari etkazib berilmoqda, shuningdek, kimyoviy mahsulotlar, mashina va uskunalarini eksport qilish hajmi ham ortib bormoqda. Xorij mamlakatlariiga, asosan, paxta tolasi, rangli va qimmatbaho metallar, kimyoviy mahsulotlar eksport qilinmoqda. Umumiy eksport hajmidagi ushbu mamlakatlarga eksport qilish salmog'i 72,4% dan 74% gacha ko'paydi.

Xorij mamlakatlardan import qilishga nisbatan (1,07 marta) MDH, mamlakatlardan import qilish sur'atlari bir muncha yuqorilab ketdi (2003 yilga nisbatan 1,14 marta). Mos ravishda MDH, mamlakatlardan import qilish salmog'i 2003 yildagi 36,9% dan 38,3% gacha ko'paydi, xorij mamlakatlardan esa 63,1% dan 61,7 foizga kamaydi. MDH mamlakatlardan, asosan, qora va rangli metallar, energetika va yoqilg'i mahsulotlari, yog'och, qog'oz va qog'oz mahsulotlari; xorij mamlakatlardan esa oziq-ovqat, kimyoviy mahsulotlar va plastmassa, mashina va uskunalar, to'qimachilik mahsulotlari olib kelingan.

2004 yilda asosiy savdo hamkorlari Evropa (respublika tovar aylanmasining 63,3%) va Osiyo mamlakatlari (33,0%) hisoblanadi. Ular ishtirokida tovar aylanmasi 2003 yilga nisbatan 1,2 martaga oshdi.

Eksport bo'yicha etakchi savdo hamkorlari quyidagi davlatlar hisoblanadi: Rossiya - eksportning 12,3% (2004 yilga nisbatan 144,5%), Buyuk Britaniya - 7,5% (121,8%), Eron - 7,4% (157,6%), Shvesariya - 5,4 % (105,9 %), Ukraina ~ 3,9 % (89,5%), Turkiya - 3,5 % (125,6%), Tojikiston - 3,3 (120,2 %), AQSh - 2,9% (139,1%), Qozog'iston -2,7% (121,8 %), Hindiston 2,4% (360,2%), Afg'oniston - 2,4% (145,2%)ini tashkil qildi.

9.2.4-jadvalda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi va uning asosiy savdo hamkorlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Importning 60%i oltita mamlakat hissasiga to'g'ri kelgan: Rossiya -23,3% (2004 yilga nisbatan 115,9%) Germaniya - 9,8% (138,1%), Janubiy Koreya - 7,9% (90,7 %), AQSh - 7,7% (69,7%), Xitoy - 5,5% (144,6%), Turkiya - 4,8% (161,7%).

2005 yilda tovar ayriboshlashdagi eng yuqori ijobiy qoldiq Eron, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Tojikiston bilan kuzatilgan; salbiy qoldiq esa - Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, AVDN, Xitoy, Qozog'iston bilan kuzatildi.

Umuman olganda, 2005 yilda tashqi savdoning rivojlanishi ijobiy baholanmoqda. Tashqi savdo ayriboshlash hajmining ortishi bilan bir qatorda eksport va import tarkibida sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulot tobora salmoqli o'rinn egallamoqda. Tashqi aloqalar jug'rofiyasida iqtisodiy jihatdan rivojlangan xorij mamlakatlari bilan munosabatlar mustahkamlanib bordi.

## 9.2.4-jadval

### O'zbekistonning asosiy tashki savdo hamkorlari

Mamlakatlar	Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)		Ulushi, %	
	2004 yil	2005 yil	2004 yil	2005 yil
Rossiya	1149,1	913,1	17,2	5,0
Buyuk Britaniya	356,2	302,1	5,3	5,3
AQSh	335,2	404,6	5,0	7,1
Germaniya	333,7	250,8	5,0	4,4
Eron	302,6	206,1	4,5	3,6
Qozog'iston	295,3	263,3	4,4	4,6
Janubiy Koreya	289,9	326,0	4,3	5,7
Ukraina	280,0	282,2	4,2	5,0
Turkiya	270,8	190,5	4,0	3,3
Shveytsariya	217,8	212,2	3,3	3,7
Xitoy	216,5	130,1	3,2	2,3
Tojikiston	145,8	117,0	2,2	2D
Italiya	109,7	123,8	1,6	2,2
Hindiston	108,6	40,5	1,6	0,7
Latviya	106,5	100,1	1,6	1,8
Yirik hamkorlar bilan tashqi savdo aylanmasi	4517,7	3862,4	67,5	67,8
Jami tashqi savdo aylanmasi	8669,0	9500,1	100,0	100,0

Манба: ЎзР давлат статистика қўмитаси маълумотлари

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston o'z eksport salohiyatini hali to'laligicha amalga oshirgani yo'q. O'zbekiston arzon va ma'lumotli ishchi kuchiga ega, bu esa unga paxta mahsulotlari kabi mehnat-talab tovarlar hamda qayta ishlangan mahsulotlardan tortib, oyoq kiyimigacha bo'lgan engil sanoat mahsulotlarini eksport qilishda o'ziga xos ustunlik yaratadi. Bundan tashqari, O'zbekiston paxta, energiya resurslari va rangli metallarni eksport qilishda ham katta salohiyatga ega.

O'zbekiston paxta etishtirish bo'yicha dunyoda to'rtinchidagi o'rinni egallaydi, biroq O'zbekiston to'qimachilik fabrikalarda mahalliy paxtaning o'rtacha 25 foizi qayta ishlanadi xolos. Bu holat, zamonaviy ishlab chiqarish joylari va uskunalarining mavjud emasligi, shuningdek, ushbu tarmoqda boshqaruv va marketing salohiyatining etarli bo'lmaganligi natijasida yuzaga kelgan. Erkin savdo tartibi bilan birgalikda to'qimachilik sanoatining texnologik va tadbirkorlik jihatidan qo'llab-quvvatlanishi, paxta mahsulotlari eksportini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

O'zbekiston oltin, mis, rux va kumush kabi tabiiy resurslarga boy. Biroq, davlat tashqi savdo kompaniyalarining ustunligi ushbu xom ashyo mahsulotlari eksportni sekinlashtirdi. Ushbu sohada savdoni xususiyashtirish natijasida oltin va boshqa rangli metallar eksporti oshishi kutilmoqda. Shuningdek, "O'zbekistonda paxta va

energiya savdosi ham davlat tomonidan nazorat qilinadi. Ushbu jarayonlarda xususiy sektoring ishtirok etishiga to‘laligicha ruxsat berish kelajakda mazkur xom ashyo resurslari eksportini rag‘batlantiradi, degan fikrdamiz.

### **9.3. Tashqi savdo tuzilmasini o‘rganish**

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga kirgan mamlakatlar bilan bevosita va ko‘p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Hamdo‘stlik g‘oyasini qo‘llab-quvvatladı, uning muassisleri qatoriga kirdi, yaqinlashuv va kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash sohasidagi ishlarni jonbozlik bilan amalga oshirmoqda. O‘zbekiston Iqtisodiy Hamdo‘stlik muassasalari - Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita, Davlatlararo bank va boshqa muassasalarni shakllantirishda juda faol ishtirok etmoqda. Hamdo‘stlik doirasida Rossiya, Ukraina, Belarus, Moldova va MDHdagi boshqa mamlakatlar bilan ikki tomonlama tashqi siyosiy, savdo-iqtisodiy va boshqa shartnomalar hamda bitimlar imzolandi, bu hujjatlar chambarchas o‘zaro manfaatli hamkorlikning mustahkam negizini vujudga keltiradi.

MDH, mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlar tarkibi va shakli tubdan o‘zgarib bormoqda. O‘zbekistonning mavqeい tobora mustahkamlanmoqda. MDHdagi ko‘pgina mamlakatlar bilan savdo-to‘lov sohasida O‘zbekiston ijobjiy saldoga ega.

Ayni vaqtda O‘zbekistonning MDHdagi boshqa davlatlar, avvalo, Rossiya bilan munosabatlari, uning o‘zaro manfaatli siyosat yurgizayotganligini yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Respublikaning MDH mamlakatlari bilan samarali hamkorlikka, xalqlarimiz o‘rtasida vujudga kelgan ko‘p tomonlama iqtisodiy, madaniy, ilmiy va insoniy aloqalarni yangicha asosda mustahkamlash va rivojlantirishga tayyorligini tasdiqlamoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzurida BMT (YhNIDO) bilan birgalikdagi texnikaviy yordam loyihasi doirasida Investisiyalarga ko‘maklashish xizmati tashkil etildi. Bu muassasa xorijiy sarmoyadorlarga investisiya takliflari tayyorlashda yordam beradi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi va Gollandiyaning «AVM-AMKO banki» bilan birgalikda qo‘shma bank tuzildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki va Meybank (Malayziya) bilan birgalikda qo‘shma lizing kompaniyasi barpo etildi.

Xorijiy hamkorlar ishtiroki bilan respublikada «O‘zdevoavto» va «O‘zdevolelektroniks» (Koreya Respublikasi), «O‘zitalmotor» (Italiya), «O‘zBAT» (Buyuk Britaniya) hissadorlik birlashmalari, to‘qimachilik korxonalari singari boshqa qo‘shma ishlab korxonalarni barpo etishga oid loyihalar amalga oshirila boshlandi. Germaniya va Koreya Respublikasining firmalari ishtirokida respublika telefon tarmog‘ini zamonaviy usulda yangilashga kirishildi.

Hozirgi paytda dunyo mamlakatlari orasida tuzilayotgan jami savdo bitimlarining 95 foizi JST rahbarligi ostida tuzilmoqda. JSTning shtab kvartirasi Jeneva shahrida joylashgan bo‘lib, unda 500 nafar xodimlardan 160 kishi savdo-sotiqni rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini aniqlash ustida ishlaydi.

O‘zbekiston 1992 yil 30 aprelda ETTB a’zosi bo‘ldi va Bank o‘zining ilk loyihasini mamlakatimizda 1993 yili amalga oshirdi. Bank O‘zbekistonga taalluqli 7 ta yirik loyiha uchun mablag‘ ajratib, yana 13 ta loyihami moliyalashtirishni rejalagan.

Ushbu loyihalarning jami qiymati 1,4 milliard AQSh dollari hamda undagi ETTB ulushi 723,8 million AQSH dollarini tashkil qiladi. Ayni vaqtda, qiymati 320 million dollarlik 8 ta loyiha bo'yicha ham tayyorgarlik ishlari olib borilayapti. Shunga qo'shimcha ravishda, 18,72 million evrolik 52 ta grantning texnik holati ham maqullandи.

O'zbekistonda amalga oshirilgan 20 ta loyiha orasida Farg'onan neftni qayta ishslash zavodi, Sho'rtan neft-gaz koni majmui, "Zarafshon-Nyumont", "Xorazm-Nurton", "Kosonsoy-Tekmen", "Oqsaroy to'qimachi" qo'shma korxonalar, Farg'onadagi ""Azot" ishlab chiqarish birlashmasi va boshqa loyihalar bor.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va ETTB o'rta bilan keng hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ya'ni, qiymati 324,9 million AQSh dollarilik 9 ta loyiha ro'yobga chiqarilmoqda. Milliy bank ETTB yordami bilan kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun 2 ta kredit liniyasi bo'yicha 120 million AQSh dollari miqdorida mablag' olishni rejalashtirgan. Birinchi kredit liniyasi bo'yicha 22 ta loyiha tanlab olindi, ikkinchi kredit liniyasida esa ETTB ikkita loyihani moliyalashtirdi. Loyihalarning 21 tasi o'z ishini boshladi.

Mustaqillikning dastlabki o'n to'rt yili mobaynida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladigan tashqi savdo shartlari tubdan o'zgardi. Hozirgi vaqtga kelib qariyb barcha korxonalar o'z mahsulotlarini jahon bozorida sotish huquqiga ega bo'ldilar.

Ayniqsa, tashqi savdo aloqalarini kengaytirishga katta e'tibor qaratildi va uni rag'batlantirish maqsadida bir talay imtiyozlar joriy etildi. Chunki tashqi iqtisodiy aloqalarning juda katta qismini tashqi savdo tashkil etadi va tashqi savdoda har bir chet el investitsiyalari kirib kelishi dinamikasi yoritilishi kerak. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar ishlab chiqarish, eksport-import ko'rsatkichlari qisqacha tahlili davlatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, hozirgi kunda O'zbekistonni dunyoning deyarli barcha davlatlari tan oldi, ulardan barchasi bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. O'zbekiston poytaxtida bu mamlakatlarning elchixonalari ishlab turibdi. Hozir dunyoning 20 dan ortiq davlatida respublikamizning diplomatiya elchixonalari ish boshladi. O'zbekiston Respublikasi ko'p tomonlama xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkilotlari faoliyatida qatnashmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi tashkilot, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi va boshqa obro'-e'tiborli xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lib kirdi hamda ularda faol siyosat o'tkaza boshladi. Ko'pgina xalqaro tashkilotlar -BMT, XVF, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Evropa Ittifoqi Komissiyasi va boshqa tashkilotlar respublikada o'zlarining mintaqaviy vakolatxonalarini ochdi va o'zbekistonlik sheriklar bilan faol hamkorlik qilmoqda. Bularning barcha respublikada tashki iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning mustaqillikni mustahkamlash yo'lidagi ilk qadamlari va bozor munosabatlariga o'tishda tutgan yo'li dunyo haritasida yangi, katta istiqbolga va salohiyatga ega bo'lgan davlatning yuzaga kelayotganligidan darak beradi. Respublika Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi ishlab chiqilgan va amaliyotga

tatbiq etilayotgan islohotlar dasturi iqtisodiyotning turli sohalarini o‘zida mujassamlantirgan.<sup>1</sup> Islohotlarni bosqichma-bosqich olib borish va islohotlarni birinchi navbatda aholi turmush darajasini keskin pasaytirmasdan amalga oshirish tamoyili amaliyotda o‘zini oqladi.

Mamlakatda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida yangi ishlab chiqaruvchi tarmoqlar vujudga keldi. Bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar va birliklar tarkib topdi. O‘zbekiston 1996 yilgacha sobiq Ittifoq davlatlari ichida 1991 yilga nisbatan eng kam iqtisodiy kamayishga erishdi va 1996-2003 yillarda muntazam ravishda iqtisodiy o‘sishga erishyapti. 2005 yilda xalq xo‘jaligining ayrim tarmoqlari bo‘yicha 1991 yil darajasidan o‘zib ketildi. Mamlakatda o‘tgan davr ichida butunlay yangi tarmoqlar shakllandi. Jumladan, mamlakatda zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi, neftni va paxtani qayta ishslash sanoati rivojlandi. O‘zbekiston avtomobilarni va neftb mahsulotlarini import qiluvchi davlatdan eksport qiluvchi mamlakatga aylandi.

Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar ham yaxshi natijalar berdi. Tarkibiy islohotlar natijasida mamlakatda davlat va jamoa xo‘jaliklari o‘rnini fermer, dehqon va shirkat xo‘jaliklari egalladi. Qishloq infrastuzilmasi shakllanayapti. Ishlab chiqaruvchi birliklarda iqtisodiy manfaat hissi shakllanmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakat don mustaqilligiga erishdi. Bir qator qishloq xo‘jaliq mahsulotlari jahon bozoriga chiqdi, mamlakatning savdo balansini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O‘tgan, qariyb 15 yil davomida yuritilgan ijtimoiy siyosat o‘zining originalligi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston boshqa Ittifoq mamlakatlar ichida bu sohada eng qaltis va murakkab holatda bo‘lishiga qaramay<sup>2</sup> tez orada byudjet taqchillagini engib o‘tdi.

Aholining kam ta’minlangan qismini ijtimoiy himoya dasturi ishlab chiqilib, amaliyotda ijodiy samara berdi.

Mamlakatda izchil pul-kredit va valyuta siyosati olib borildi. Bu siyosat, ayniqsa mamlakatning yagona «rubl» zonasidan chiqgandan keyingi yillarda samarali kechadi.<sup>3</sup> 1992-1994 yillarda o‘rtacha inflysiya darajasi 1000% dan oshiq bo‘lsa, 1995-2000 yillarda bu ko‘rsatkich mos ravishda 120%, 64,3%, 27,6%, 26%, 26%, 23,2% ni tashkil qilgan. Bu yillarda O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot (YaIM) 1991 yildagiga nisbatan 17 foizga kamaygan, boshqa Ittifoq davlatlarida o‘rtacha kamayish 40% ni tashkil qilgan. Mustaqil pul-kredit siyosati yuritilishi natijasida, tarixan qisqa vaqtida makroiqtisodiy barqarorlik ta’mindan. 1997 yilga kelib, inflysiya darajasi o‘tgan yilga nisbatan 2 baravardan ortiq kamaygan. Keyingi yillarda esa, bu ko‘rsatkich 26-28% miqdorida barqarorlashdi.

2000 yilga kelib O‘zbekistonda yalpi ishlab chiqarish hajmi 1991 yil darajasi(98,5%)ga yaqinlashgan bo‘lsa, boshqa MDH, mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 50-85% miqdorida bo‘lgan. Mamlakatda keyingi yillarda tashqi savdo aylanmasi

<sup>1</sup> Каримов И.А. «Ўзбекистоннинг ўз истиқолол ва тараққиёт йўли», «Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида» // Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т., «Ўзбекистон», 1999. -67-174, 175-414-б.

<sup>2</sup> Ўзбекистон мустақилликкача бўлган даврда Иттифоқ бюджетидан 1,6 млрд руб. (2 млрд. АКШ доло.) миқдорида субсидия олар эди.

<sup>3</sup> Ўзбекистон 1994 йиллар «рубль» зonasidan чиқib ўз «сўм»ига эга бўлди.

biroz kamaygan bo'lsa ham savdo balansida ijobiy siljishlar yuz bergan. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar hajmi muttasil o'sib bormoqda.

Iqtisodiy islohotlarni o'tkazishda tashqi omillardan oqilona foydalanishga, jumladan xorijiy investisiyalarni kirib kelishiga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakat iqtisodiyotini tiklashda va yanada rivojlantirishda chet el bilan iqtisodiy hamkorlik rishtalarini bog'lashga va xalqaro integrasiyani rivojlantirishga, chetdan moliya resurslarini jalb qilishga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. Natijada, mustaqillik yillarida O'zbekistonga kiritilgan xorijiy sarmoyalarning umumiyl miqdori 6 mldr. AQSh dollaridan oshib ketdi. 80dan ortiq chet el mamlakatlari ishtirokida minglab qo'shma korxonalar vujudga keldi. 1996-2000 yillarda xorijiy sarmoyalalar ulushi yillik o'rtacha 15-19%ni tashkil qildi. Ularning ko'p qismi iqtisodiyotning real ishlab chiqarish sohalariga, jumladan, sanoatga 84-87%, aloqa tarmog'iga 6-11%, qishloq xo'jaligiga 1-1,3% va transportga 0,1-0,5% kiritilgan.

Xorijiy sarmoyalalar kiritilgan qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiyl hajmining YaIMdag'i ulushi 1996 yilda 7%ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1999 yilda 13%ga, 2000 yilda 15%ga 2005 yilda 6,8 % ga teng bo'ldi. Bu korxonalarning eksportdag'i ulushi 1998 yildagiga nisbatan 1999 yilda 20%ga, 2000 yilda 22%ga ko'paygan va bu korxonalarda eksportning importni qoplash darajasi sezilarli( 1,5 barobarga) oshgan.

Endi O'zbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) va Boltiq bo'yi mamlakatlari tashqi savdosi bilan tanishib chiqamiz.

Biz xorijiy davlatlar tajribasini, jumladan, rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiruvchi Yaponiya, uning eksport siyosati tajribasi bilan tanishishni lozim topdik.

Shuni ta'kidlash joizki, Yaponiya davlati eng yuqori raqobatbardosh, nafaqat ichki talabni qondirishga asoslangan, shuningdek, eksport talabini ham qondiradigan sanoatni yuzaga keltirish vazifasini uddalagan davlatlar qatoriga kiradi. 1953 va 1997 yillar davomida Yaponiya eksporti 1,3 mldr. dollardan 520 mldr. dollarga oshdi, ya'ni 400 martadan yuqori darajaga o'sdi.<sup>1</sup> 70-yillarni o'rtalariga kelib, «neft shok»idan so'ng va kelgusida narx-navo, valyuta kursining keskin o'zgarishi natijasida Yaponiya savdo balansi vaqtincha yomonlashdi, ya'ni pasaydi, keyingi yillarda, asosan, (neft va boshqa xom-ashyo turlariga narxning keskin o'sishi natijasida) salbiy saldo bilan chiqdi. Ammo, 80-yillarning boshlariga kelib, iqtisodiy holat maromiylasdi, ya'ni yuksak eksport darajasini o'sishi natijasida Yaponiya iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.

Yirik Yapon iqtisodchisi S. Suruning fikricha: «Yaponiyada rivojlanish davri davomida iqtisodiy o'sish darajasi eksportga nisbatan aniqlanadi».<sup>2</sup> Bunday izoh quyidagi holat bilan izohlanadi.

**Birinchidan**, yuqori darajada iqtisodiy o'sish davrida (50-60 yillar) eksport hajmi, yalpi ichki mahsulotga nisbatan tez o'sdi.

**Ikkinchidan**, yalpi ichki mahsulot hajmida tovar va xizmatlar hajmi 1955 yil 7,6 % dan 70-yillar boshiga 14 % ga o'sdi va 1990 yilga kelib 10,5 % ni tashkil etib maromiyashdi.

<sup>1</sup> Japan and the World Statistics. Tokyo. The Chamber of Commerce and Industry. 1989.

<sup>2</sup> Шуру С. Конец японского «экономического чуда». Пер. с японск. – М.: «Прогресс», 1981.

**Uchinchidan**, yapon iqtisodiyotining etakchi sohalarida, xususan, qayta ishlash sanoatida eksport kvotasi doimiy o'sib bordi. Oxirgi yillarga kelib, yalpi ichki mahsulot hajmi ortishiga eksport alohida yuqori hissa (ayrim yillardan tashqari) qo'shdi. Bu ko'rsatkich 1975 yili 71,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 1980 yili 79,8 % ni tashkil etdi. 1980 yildan 1985 yilgacha yapon iqtisodiyotining o'sishiga eksportni qo'shgan hissasi 38 % ni tashkil etdi. Faqatgina, keyingi yillarda iena kursini keskin o'sishi natijasida Yaponiya eksport hajmi pasaya borishi kuzatildi va bu ko'rsatkich 1995-1997 yillar davomida yapon iqtisodiyoti eksportiga qo'shgan hajmi 15 % ni tashkil etdi.

Eksport o'sishi uning tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berganligi bilan izohlanadi.

### 9.3.1-jadval

#### Yaponiya eksporti tarkibi (FOB bazasida)<sup>1</sup>

(mln. doll)

No	Eksport moddaları	1968y.	1973y.	1983y.	1986y.	1988y.	1989y.
1	Oziq-ovqat mahsulotlari	432	841	1389	1476	1696	1687
2	To'qima	1977	3279	6613	6974	6908	6864
3	Ximikatlar	805	2147	6983	9484	13964	14776
4	Metallar	2374	6821	18372	18183	21751	21577
5	Mashina va uskunalar	5656	20365	99560	155027	196965	205471
6	Televizor va radio	688	1851	3912	4483	3990	4100
7	Avtomobililar	713	3612	26123	42676	48787	49565
8	Ilmiy instrumentlar	372	970	5439	8509	10825	11345
9	Boshqa tovarlar	1755	3477	14012	18108	23633	-
	Jami	12972	36930	146927	29151	264917	275175

Jadval ma'lumotlaridan shu narsa ma'lum bo'ladiki, mashina va uskunalarini yapon eksportidagi hajmi o'sishi bilan to'qima, ximikat va metallarni eksportdagagi hajmi (nisbiy va ayrim holda mutlaq) pasaygan. 1968 yili mashina va uskunalar yapon eksportida 43,6 foizni, 20 yildan so'ng, 1988 yilga kelib esa, bu ko'rsatkich 74,3 foizni tashkil etadi. Shuningdek, «Mashina va uskunalar» guruhida 80-yillarda Yaponiya eksportida etakchi o'rnlardan birini egallagan avtomobilarni, hamda elekrotexnik mahsulotlar, ilmiy instrument va optika hajmi o'sidi. Shuni qayd etish kerakki, faqatgina 1988 yilda avtomobillar eksportidan (48,8 mlrd. \$) tushumlar Yaponiya oziq - ovqat (29,1 mlrd. \$)va neft (18.8 mlrd. \$) mahsulotlarini birga olgan holda qopladи.

1988 yilda Yaponiya tashqi bozorga 13.5 mln. dona fotoapparat va kinokamera (umumishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini 87%), 230 mln. dona soat (87.2%), 22 mln. dona videomagnitafon (78.7%), 4,5 mln. dona rangli televizor (33,6 %), 3,2 mln. dona mikroto'lqinli pech (52,6%), 19,5 mln. dona elektron kalkulyator (43,3%), 4,7 mln. dona nusxa olish mashinalari (79,1%) va 4,4 mln. dona engil avtomobillar (umum ishlab chiqarilgan mahsulotning 54,1% i)<sup>2</sup> chiqaradi.

Ushbu ma'lumotlardan shu narsa ko'rinadiki, Yaponiya, asosan, uzoq muddatga mo'ljallangan texnik iste'mol tovarlarni eksport qilishga ixtisoslashgan. Lekin,

<sup>1</sup> Japan 1989, P. 42; Japan Economic Almanac, 1990.

<sup>2</sup> Nippon Business Facts and Figures. Tokyo: JETRO, 1988, 1989.

mahsulotlar eksportida birlamchi sohalar (metallurgiya va ximiya) hajmi pasaygani holda ularni chetga olib chiqish mutlaq hajmi miqdori yuqori darajada saqlanib qolgan. Oxirgi yillarda yapon eksportida yangi tashkil etilgan korxonalarini eksport qilish salohiyati teskorlik bilan o'smoqda, bu mahsulot rivojlanayotgan mamlakatlarga yuborilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Yaponiya eksport hajmini oshishida uning (maydoni) kengayganligi kuzatilmoqda. 1950 – 1960 yillari yapon eksportini 2/3 qismi Osiyo mamlakatlari (Yaqin Sharq bilan birgalikda) va AQShga to'g'ri kelgan. Agarda 1955 yilda bu ko'rsatkich (yapon eksporti) Osiyo mamlakatlariga 41,8 %, AQSh ga esa 22,7 % bo'lsa, 1965 yilda Osiyo mamlakalariga 32,5% va AQSh – 29,3% ni tashkil qilgan<sup>1</sup>. Bu yerda Yaponiya uchun Amerika bozori ahamiyati ortganligini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi kungacha Yaponiya eksport mahsulotlari AQSh Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Yaponiya uchun asosiy bozor bo'lgani holda uning mahsulotlari jahonning barcha mamlakat va mintaqalarida keng iste'mol etilmoqda. Yaponiya eksporti uchun Evropa Ittifoqi, Sharqiy Evropa, Xitoy yangi yirik bozorlar hisoblansa-da, bu mahsulotlar ularni kam miqdorda qiziqtiradi. Boshqa mintaqalarga eksport qilish hajmi nisbatan uncha katta bo'lmasada, u asosan, hajmi bo'yicha to'lqinsimon uzilishlar bilan kuzatiladi. 1995 yilda AQSh ga yapon eksportining 28 %, Shimoli-Sharqiy Osiyoga – 25,3%, ASEAN mamlakatlariga 17%, Evropa Ittifoqiga 15% to'g'ri kelib, umuman olganda, ushbu yo'naliш bo'yicha Yapon eksportining 3/4 qismi yo'naltirilgan.<sup>2</sup>

80-yillarning oxiriga kelib, Yaponiya, (AQShdan so'ng) jahonda eksport hajmi bo'yicha ikkinchi o'rinni egalladi. 1985 yildan uning jahon eksportidagi hajmi 10 % ni tashkil etdi.

Aynan 1950-1960 yillarda Yaponiya eksport taraqqiyotida shiddatli ko'tarilishi yuz bergenligini quyidagi sabablari orqali izohlash mumkin: jumladan, eksport sohalaridan biri bo'lgan ishlab chiqarish sohasini va umuman, Yaponiya sanoati eksportini rivojlanishi yangi texnologiya, boshqarishni samarali usullarini qo'llash hamda mehnat unumdarligini oshirish asosida erishildi. Eksport qiluvchi soha va mahsulot ishlab chiqarish uchun ularni manffatlari yo'lida alohida turli imtiyozlar qo'llaniladi.

Eksport uchun ko'mak beruvchi-davlat tomonidan korxona va firmalarni to'g'ri va egri subsidiyalash, soliq imtiyozlari eksporterlar uchun qulay valyuta kursi, imtiyozli molijalatirish va kreditlash, turli eksport operatsiyalari bo'yicha vujudga keladigan risklardan sug'urtalash, ayniqsa, uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha «ikkilamchi baholash» tizimi kabi arsenalni o'z ichiga olib, bu asosida eksport baholari ichki baholarga nisbatan past darajada saqlanib, eksport qiluvchilar ularni xorijda savdo siyosatini yurgazish vositalari va axborot ta'minoti bo'yicha imkon darajasida shart-sharoitlar yaratildi.

Eksport tizimini rivojlanishiga har tomonlama yordam berish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vazifalardan biri sanaladi. Aynan, ushbu davrda «Iqtisodiy diplomatiya» Yaponiya tashqi siyosatini olib borishda asosiy yo'naliш sifatidagi

<sup>1</sup> Ўша жойда.

<sup>2</sup> Japon/ An International Comparison. Tokyo, Keizai Koho Center (1988, 1989).

rivojlanish qiyofasini oldi. Ushbu davrga kelib, davlat siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy sohada va tashqi iqtisodiy ekspansiya doirasida Yaponiya uyushma, korporatsiya va firmalar faoliyatini o‘z «otalig‘iga» (zimmasiga) oldi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muvaffaqiyatlarga erishgan ko‘pgina mamlakatlarning tajribasi bu yutuqlarga iqtisodiyotni erkinlashtirish tufayli erishilganini ko‘rsatmoqda. Osiyoning Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur va Tayvan singari yangi industrlashgan mamlakatlari eksportni rivojlantirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishga yo‘naltirilgan taraqqiyot strategiyasiga amal qilib, keyingi 30 yil ichida sezilarli iqtisodiy yutuqlarni qo‘lga kiritdilar.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida ham jamiyat hayotining barcha sohalari, shu jumladan, iqtisodiyotni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bu tadbirlarning zarurligini qayta-qayta ta’kidlaydi; «Men oddiy bir haqiqatni barcha tushunib olishini istayman; erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish - bu bizning olga intilishimizning kafolati va asosi, u nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir».<sup>1</sup>

### **Qisqacha xulosalar**

Tashqi savdoni o‘rganishda statistik usullardan keng va o‘rinli foydalaniladi. Bu, ayniqsa, tashqi savdo dinamikasini va tuzilmasini tahlil qilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu erda statistik jadvallardan, grafiklardan unumli foydalanilgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

- 1.Tashqi savdoni o‘rganishning statistik metodlari.
- 2.Tashqi savdo dinamikasini o‘rganish.
- 3.Tashqi savdo tuzilmasini o‘rganish.
- 4.Baholarni bir asosga keltirish.
- 5.Tovarayylanmasi fizik hajmi indeksi.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Иванов М. Экономическая статистика: Учебник. – М.: ИНФРА. – М.: 2000.
2. Аюбжонов А.Х. ТИФ статистики: Ўкув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон, 2004.
3. [europa.eu.int](http://europa.eu.int)
4. [europa.eu.int/comm/relays/index\\_en.htm](http://europa.eu.int/comm/relays/index_en.htm)
5. [www.euireland.ie](http://www.euireland.ie)
6. [www.cec.org.uk](http://www.cec.org.uk)
7. [www.eurunion.org](http://www.eurunion.org)
8. [www.europarl.ie](http://www.europarl.ie)

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримовнинг Ислохотлар ва инвестициялар бўйича идоралараро мувофиқлаштириш кенгашининг 2000 йил 1 февралдаги йиғилишидаги килган маъruzasi. «Халқ сўзи» газетаси, 2000 йил 2 февраль.

## ASOSIY ADABIYOTLAR SHARHI

**1. Сиденко А.В., Башкатов Б.И., Матвеева В.М. Международная статистика. Учебник. Изд. «Дело и Сервис». М., 2003.**

Darslik jami bo‘lib, 11 ta bobni o‘z ichiga oladi. Ya’ni:

I bob. Chet el mamlakatlari va tashkilotlari iqtisodiy statistikasi. Ushbu bobda chet el mamlakatlarida va xalqaro tashkilotlarda xalqaro statistika shakllanish bosqichlari bayon etilgan. Hozirgi zamon global statistika tizimiga baho berilgan. Ushbu bobda BMTning statistika komissiyasi, statistika bo‘limlari faoliyati to‘liq yoritilgan. Shuningdek, turli xalqaro tashkilotlar: Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotida statistik xizmatning tashkil etilishi ham batafsil yoritilgan.

II bob. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiy faoliyatning tasnifi deb nomlanib, bu erda 1857 yilda Avstriya olimlari tavsiya etgan ishlab chiqarish tarmoqlari tasnifi hozirgi kunga qadar rivojlanib hamda takomillashib borishi tarixiy bayon etilgan.

Ushbu bobda BMTning tarmoq tasnifi, 1993 yilda qabul qilingan xalqaro faoliyat turlari standart tasnifni hamda kasblar tipi bo‘yicha xalqaro tasnifi o‘rin olgan va batafsil sharhlangan.

III bob. Xalqaro demografik statistika, deb yuritiladi. Ushbu bobda batafsil aholi to‘g‘risida turli mamlakatlardan ma’lumotlar olish usullari ko‘rib chiqilgan (ro‘yxatlar, joriy uchyoq, prognoz).

Demografik statistika ko‘rsatkichlari tizimi statistik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqilgan. Bu bobda aholining o‘rtacha yillik soni, tug‘ilishi, o‘lish, tabiiy o‘sish koeffitsientlari qiyosiy tahlil qilingan.

IV bobda mehnat statistikasi masalalari ko‘rib chiqilgan. Bobda xalqaro mehnat tashkiloti ish faoliyati to‘liq yoritilgan, mehnat resurslarining asosiy kategoriysi ko‘rib chiqilgan, turli mamlakatlar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilingan.

V bob. MHT deb nomlanadi. Bu erda turli mamlakatlarda MHTga o‘tish jarayoni qanday kechayotgani bayon etilgan. MHTdagi baholar tizimi ko‘rib o‘tilgan. Ushbu bobda, shuningdek, asosiy hisoblar sxemasi to‘liq yoritilgan.

VI bobda YaIMni valyutalar sotib olish qobiliyati asosida xalqaro taqqoslash masalalari ko‘rib chiqilgan. Bu erda xalqaro taqqoslashlar metodologiyasi misollar yordamida batafsil yoritilgan. Bobda EKSh, Giri – Kamis usullari, sifatdagi farqlar uchyoqi masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Ekstropolyasiya masalalari ham batafsil yoritilgan.

VII bob. Tashqi aloqalar statistikasi deb nomlanib, bu erda tovarlar va xizmatlar eksporti, importi, tashqi savdo dinamikasi, tuzilishi, baho masalalari ham ko‘rib chiqilgan. Bobda, shuningdek, tashqi savdo sanalari, jug‘rofik tuzilish masalalariga ham o‘rin ajratilgan.

VIII bobda milliy boylik statistikasi masalalari yoritilgan. Jahonning turli mamlakatlarida milliy boylik ko‘rsatkichlari qanday yoritilishi bayon qilingan. Ular qiyosiy statistik tahlil qilish nuqtai nazari ostida ko‘rib chiqilgan.

IX bob. Xalqaro makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi deb nomlanib, turli jahon mamlakatlarida YaIMni, yalpi daromadni hisoblash tajribalari, o‘ziga xos xususiyatlari, farqlari ko‘rib chiqilgan.

X bob. Iqtisodiy faoliyat samaradorligi statistikasi deb yuritilib, ishlab chiqarish va mahsulot rentabelligi, jonli mehnat sarfi samaradorligi ko'rsatkichlari, kapital qo'yilmalar samaradorligi ko'rsatkichlari turli mamlakatlar misolida ko'rib chiqilgan.

XI bob. Aholi turmush darajasi xalqaro statistikasi, deb nomlanib, aholining turmush darajasiga ta'sir etuvchi omillar: ish haqi, daromadlar, yashash sharoitlari, sog'liqni-saqlash muassasalari faoliyati turli mamlakatlar misolida ko'rib chiqilgan.

## **2. Петер фон Дер Липпе. Статистика предприятий. Изд. Федеральной статистико управление Германии. Висбаден. 2003.**

Ushbu qo'llanmada Germaniya federal statistika boshqarmasi tomonidan milliy statistikani tashkil etish, ayniqsa, korxonalar statistikasi masalalari, batafsil yoritib berilgan. Ushbu qo'llanma 3 ta asosiy bo'lim: 1) Milliy umumiy yondashuv, 2) Tarmoq yondashuv, 3) Integrasiyadan iborat. Qo'llanmada Evropaning rivojlangan Fransiya, Angliya, Germaniya va boshqa mamlakatlarida sanoat korxonalari statistikasi tashkil etilishi, asosiy statistik ko'rsatkichlarni hisoblash ko'rib chiqilgan. Bu erda, ayniqsa, korxona va muassasalar regislari, oylik, yillik tekshirishlar hamda sanoat va qurilishda Germaniyada olib boriladigan statistik tekshirishlar ayniqsa mutaxassislarda va talabalarda qiziqish uyg'otadi.

## **3. Григорук Н.Е. Статистика внешнеэкономических связей: Учебное пособие. – М.: Изд. «Дело и сервис», 2004.**

Ushbu o'quv qo'llanma 7 ta bobdan iborat bo'lib, quyidagi masalalar yoritilgan:

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasi predmeti, metodi va vazifalari.
2. TIA statistikasida aholi harakati (tabiiy va mexanik) ko'rsatkichlari.
3. Jahon mehnat bozori statistikasi va uning iqtisodiy talqini.
4. TIA statistikasida milliy boylik ko'rsatkichlarini ko'rib chiqish masalalari.
5. TIA statistikasida YaIM va yalpi daromadni turli mamlakatlar misolida talqin etilishi masalalari.
6. Xalqaro darajada aholi turmush darajasini qiyosiy taqqoslash masalalari ko'plab jadvallar, grafiklar yordamida batafsil yoritilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma tashqi iqtisodiy aloqalar, ayniqsa uning statistik yondashuvi bilan qiziqqan professor-o'qituvchilar, aspirantlar, magistrler va talabalar uchun katta qiziqish uyg'otadi.

## GLOSSARIY

**Statistika** – lotincha “Status” - ahvol, holat so‘zi bilan italyancha “State” -davlat so‘zidan kelib chiqib, davlat ahvoli haqidagi fan.

**Statistika** – bu fan tarmog‘i, amaliy faoliyat sohasi, bilim yo‘nalishi, bilish quroli.

**Tasviriy statistika** – ma’lumotlar to‘plash, tasniflash, umumlashtirish va talqin etish yo‘llaridir.

**Statistika o‘rganish ob’ekti** – ommaviy hodisa va jarayonlardir.

**Ommaviy hodisa** – biror ob’ektlar to‘plamida yoki murakkab ob’ekt elementlari majmuasida yuzaga chiqqan voqeа.

**Ommaviy jarayon** – ob’ektlar to‘plamida yoki murakkab ob’ektda sodir bo‘lgan voqealar oqimi, ularning rivojlanishi.

**Ommaviy hodisa** – har qanday hodisalar yig‘indisi bo‘lmasdan, ularning shunday to‘plamiki, unda statistik qonuniyatlar namoyon bo‘ladi, ammo yakka hodisada ular yuzaga chiqmaydi.

**Statistika uslubiyati** – ommaviy hodisa va jarayonlarni o‘rganishda, unda namoyon bo‘ladigan qonuniyatlarni oydinlashtirishda ishlatiladigan o‘ziga xos uslub, ya’ni statistika fani va amaliyotida qo‘llaniladigan yo‘llar, usullar, vositalar majmuasi.

**Stoxastik yoki statistik qonunlar** – bir turli hodisalarni ommaviy takrorlanishida namoyon bo‘ladigan qonunlar.

**Iqtisodiy statistika predmeti** – iqtisodiy qonunlarning miqdoriy ifodalanishi, ommaviy iqtisodiy jarayonlarning miqdor - sifat aniqligini o‘rganish.

**Statistik kuzatish** – o‘rganilayotgan ommaviy hodisalar haqida boshlang‘ich ma’lumotlarni to‘plash jarayonidir.

**Milliy standart** – muayyan mamlakat miqyosida, xalqaro standart esa-butun jahon eki mamlakatlar birlashmasi miqyosida hodisalarni tasniflab, ko‘rsatkichlarni tuzish va hisoblash, ma’lumotlarni qayd qilishda qo‘llanadigan umumiyl talab, tartib va umumiy kontsepsiylar majmuasidir.

**Kuzatish sub’ekti** – o‘rganilayotgan hodisalar haqidagi ma’lumotlarni qayd qiluvchi va to‘plovchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

**Kuzatish birligi** – kuzatish ob’ektining mustaqil bo‘linmas tarkibiy qismi (birligi), uning muhim belgilari haqida ma’lumotlar olinadi.

**Kuzatish dasturi** – kuzatish jarayonida ma’lumotlar to‘planishi lozim bo‘lgan kuzatish va hisob birligining asosiy belgilaridir.

**Statistik formulyar** – kuzatish ma’lumotlari qayd qilinadigan hujjat.

**Kuzatish joyi** – kuzatish birligi joylashgan makon. Statistik kuzatish vaqt - bu kuzatish tenglashtirilgan fursat (payt) va o‘tkaziladigan muddat.

**Uzluksiz kuzatish** – voqeа ro‘y berishi bilanoq uni qayd qilish (hisobga olish)dir.

**Fursatli davrin kuzatish** – voqeа sodir bo‘lgandan so‘ng ma’lum muddat o‘tganda uni qayd qilib tekshirishlarni teng vaqt oralig‘ida takrorlab turish

**Bir yo‘la kuzatish** – hodisani har zamonda, ehtiyoj tug‘ilishiga qarab kuzatish.

**Yoppasiga kuzatish** – to‘plamning hamma birliklari haqida ma’lumot to‘plash.

**Hisobot** – korxona va tashkilotlar faoliyati haqidagi ma'lumotlarni muntazam ravishda belgilangan tartibda va vaqtda olishni ta'minlovchi kuzatish turidir

**Biznes tekshirishlar** – savolnomalar yordamida iqtisodiy holatni tahlil qilish va qisqa muddatli iqtisodiy istiqbolni belgilash uchun savol-javob yo'li bilan tadbirkorlardan ma'lumotlar to'plash.

**Kuzatish xatolari** – ma'lumotlarni to'plash jarayoniga xos xatolar.

**Reprezentativlik xatosi** – bosh va tanlama to'plam umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari orasidagi farq.

**Statistik guruhlash** – o'rganilayotgan hodisalarni muhim belgilariga qarab bir xil (turdosh) guruhlarni birlashtirishdir.

**Tipologik guruhlash** – to'plamni sotsial-iqtisodiy tiplarga ajratish.

**Tuzilmaviy guruhlash** – bir belgi asosida to'plam tizilishini tasvirlovchi taqsimot qatori.

**Analitik guruhlash** – belgilar orasidagi o'zaro bog'lanishlarni tasvirlovchi guruhlash.

**Statistik ko'rsatkich** – ommaviy hodisa va jarayon me'yori, ya'ni uning sifat va miqdor birligini ifodalash shakli (tasvirovmasi).

**Statistik ko'rsatkichlar tizimi** – o'zaro bog'langan ko'rsatkichlar majmuasidir.

**Dinamika nisbiy ko'rsatkichlari** – turli vaqt davrlariga tegishli ko'rsatkichlar nisbati hosilasidir.

**Intensivlik nisbiy ko'rsatkichlari** – hodisaning turli belgilarini taqqoslash natijasi bo'lib, bir belgi qiymatining bir birligiga ikkinchisining qancha birligi to'g'ri kelishini ifodalaydi.

**Arifmetik o'rtacha** deb, shunday ilmiy qoidaga asoslangan o'rtachaga aytildiği, u bilan belgining ayrim qiymatlarni almashtirilsa, ularning umumiyligi yig'indisi o'zgarmasligi va to'plam birliklari soniga nisbatan proportsional taqsimlanishi zarur.

**Tortilgan arifmetik o'rtacha** – o'rtalashtirilayotgan miqdorlarni ularning to'plamda uchrashish soni bilan tortib olib hisoblangan o'rtachadir.

**Geometrik o'rtacha** deb shunday ilmiy qoidaga asoslangan o'rtachaga aytildiği, u bilan o'rtalashtirilayotgan miqdorlarni almashtirish natijasida bu miqdorlarning o'zaro ko'paytmalari natijasi o'zgarmasligi va to'plam birliklari bo'yicha geometrik professiya bo'yicha taqsimlanishi zarur.

**Garmonik o'rtacha** deb shunday o'rtacha miqdorga aytildiği, u bilan o'zgaruvchilarni almashtirayotganda ularning teskari qiymatlari yig'indisi o'zgarmas miqdor deb qaraladi.

**Tuzulmaviy o'rta ko'rsatkichlar** – taqsimot qatorida ma'lum o'rinda joylashgan varianta qiymati tushuniladi.

**Mediana** – to'plamni teng ikki qismga bo'luvchi belgi qiymatidir.

**Variasiya** – qator hadlarining tebranuvchanligi, varianta qiymatlarining o'zgaruvchanligidir.

**Variatsnon kenglik** – taqsimot qatorining eng katta va eng kichik variantalari orasidagi farq.

**Dispersiya** – qator variantalari qiymatlari bilan ularning arifmetik o'rtachasi orasidagi tafovutlar kvadratlaridan olingan arifmetik o'rtachadir.

**Oddiy moment** – koordinat boshlang‘ich nuqtasiga tegishli momentdir.

**Markaziy moment** – k tartibli momentni arifmetik o‘rtachaga nisbatan qarashdir.

**Tanlanma** – o‘rganilayotgan to‘plamdan saylab olingan birliklar majmuasidir, ularning har biri ushbu to‘plamning tarkibiy unsuri. Tanlanma tekshirish - tajriba va hayotimizga asoslangan ishonchga, imon komillikka tayanadi.

**Tanlanma kuzatish** – o‘rganiladigan to‘plamdan etarli miqdorda birliklar maxsus yo‘llar bilan tanlanib, ularni kuzatish ma’lumotlari asosida boshlang‘ich to‘plam haqida qoniqarli axborot olish imkonini beruvchi statistik tekshirish usulidir.

**Bosh to‘plam** – o‘rganiladigan ko‘p hajmli birliklar majmuasidir.

**Tanlanma to‘plam yoki qisqacha tanlanma** – bosh to‘plamdan kuzatish uchun tanlab olingan birliklar yig‘indisi.

**Reprezentativlik xatosi** – tanlanma umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlari bilan bosh to‘plamning xuddi shunday parametrlari orasidagi farq (tafovut).

**Mexanik tanlash** deb bosh to‘plam birliklarini ma’lum tartibda yozib chiqib, so‘ngra belgilangan oraliqlarda bittadan birliklarni tanlab olishga aytildi.

**Tipologik tanlash** – bosh to‘plamni muhim guruhlarga bo‘lib, ularning har biri ichidan ma’lum birliklarni tasodify yoki mexanik usulda tanlab olishdir.

**Tanlanma ko‘rsatkichning o‘rtacha xatosi** – bosh to‘plamdan u yoki bu usulda ko‘p tanlamalar tashkil etib, ularning xatolaridan hisoblangan o‘rtacha xatodir.

**Funksional bog‘lanish** – shunday to‘liq bog‘lanishki, unda bir belgi yoki belgilar o‘zgarish qiymatiga har doim natijaning ma’lum me’yorda o‘zgarishi mos keladi.

**Korrelyasion bog‘lanish** – shunday to‘liqsiz bog‘lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaning har xil qiymatlari mos keladi. Bu xolda omillar to‘liq soni noma’lumdir.

**Korrrelyasion tahlil** deb hodisalar orasidagi bog‘lanish zichlik darajasini baholashga aytildi.

**Momentli dinamika qatori** – ma’lum oraliqli momentlarga hisoblangan ko‘rsatkichlar qatoridir.

**Davriy dinamika qatori** – iqtisodiy oqimlar qatori, ma’lum davrlar ichida kechgan jarayon natijalarini ta’riflovchi ko‘rsatkichlar qatoridir.

**Sirg‘anchiq o‘rtacha** – qator darajalarini birin ketin ma’lum tartibda surish yo‘li bilan hisoblangan o‘rtacha darajadir.

**Markazlangan sirg‘anchiq o‘rtacha** – xronologik o‘rtacha bo‘yicha hisoblangan sirg‘anchiq o‘rtachadir.

**Sikl** – uzoq vaqt ichida takrorlanib turadigan hodisa va jarayonlarning har bir davrasidir.

**Mavsumlik** – ayrim fasl va oylarda ko‘p Yillik qatorlarda muntazam ravishda kuzatiladigan barqaror tebranishlardir.

**Avtokorrelyasiya** – keyingi darajalar bilan oldingilari o‘rtasidagi yoki haqiqiy darajalari bilan tegishli tekislangan qiymatlari o‘rtasidagi farqlar orasidagi korrelyasiyadir.

**Statistikada indeks** — maxsus iqtisodiy ko‘rsatkich, u iqtisodiy hodisalarning ikki yoki undan ortiq holatlarda rivojlanish darjasini ta’riflaydi.

**Indeks** – murakkab iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, iqtisodiy hodisalarining ikki yoki undan ortiq holatiga tegishli ko‘rsatkichlarni taqqoslama holga keltirib, ular orasidagi nisbatlar orqali hodisalarining o‘zgarishini o‘lchaydi

**Vaznli agregat indekslar** — bu murakkab hodisalar o‘zgarishini ayrim elementlarning ahamiyati va vazmindorligini hisobga olib ta’riflaydi.

**Agregat indekslar** — bu turli xil ko‘rsatkichlarni umumiyligi o‘lchovga keltirib, olingan yig‘ma natijalarni taqqoslash hosilasidir.

## **TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR**

### **1. Ўзбекистон Республикаси Қонунлари**

1.Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2003, - 40 б.

2.“Давлат статистикаси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг қонуни. – Т., №441-II, 2002 йил, 12 декабр.

### **2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари ва қарорлари**

3.“Ўзбекистон Республикаси тижорат банкларини ислоҳ қилиш ва янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Халқ сўзи, 2005 йил 1 апрел.

4.“Бозор ислоҳотларини чуқурлаштириш ва иқтисодиётни янада эркинлаштириш соҳасидаги устувор йўналишлар амалга оширилишини жадаллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. 2005 йил, 14 июн.

5. “Тадбиркорлик субъектлари томонидан тақдим этилаётган ҳисбот тизимини такомиллаштириш ва унинг ноқонуний талаб этилиши устидан назоратни кучайтириш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. 2005 йил, 15 июн.

### **3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорлари**

6. “Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси фаолиятини ташкил этиш ҳақида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 8 – сонли Қарори. 2003 йил, 8 январ.

7. Давлат статистикаси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш ҳақида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Қарори. №442 – II, 2002 йил, 12 декабр

### **4. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари**

10. Каримов И.А. Мамлакатимиз тараққиётининг қонуний асосларини мустаҳкамлаш фаолиятимиз мезони бўлиши даркор. Халқ сўзи, 2006 йил, 25 феврал.

11.Каримов И.А. Эришилган ютуқларни мустаҳкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим. Халқ сўзи, 2006 йил, 11 феврал.

12.Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. - Т.: Ўзбекистон, 2005, - 92 б.

### **5.Ўзбекистон Республикаси вазирликлари меъёрий-хуқуқий хужжатлари**

11.Фуқароларнинг жамғарив бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни. . №230, 2004 йил, 6 ноябр.

12.Фуқароларнинг банклардаги омонатларини ҳимоялаш кафолатлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Қонуни. №7, 2002 йил, 2 январ.

### **6. Дарсликлар**

13.Курс социально – экономической статистики. Под ред. М.Г.Назарова. – М.: Финстатинформ, 2005, - 423 с.

14.Теория статистики. Учебник. Под ред. Р.А.Шмойловой. – М.: Финансы и статистика, 2004, - 656 с.

15.Салин В.Н., Шпаковская Е.В. Социально – экономическая статистика. –

М.: ЮРИСТ, 2004, - 192 с.

16. Микроэкономическая статистика. Учебник. Под ред. С.Д. Ильенковой. – М., 2004, - 544 с.

17. Соатов Н. Статистика. Дарслик. – Т.: Абу Али ибн Сино, 2003, - 744 б.

18. Сиденко А.В., Башкатов Б.И. Международная статистика. Учебник. – М.: Дело и сервис, 2003, - 211 с.

19. Адамов В.Е. и др. Экономика и статистика фирм. Учебник. 2003, - 450 с.

20. Социальная статистика. Учебник. Под ред. И.И. Елисеевой. – М., 2003, - 560 с.

21. Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 2002, - 465 б.

## **7. Ўқув қўлланмалар**

22. Муаллифлар грухи. Ўзбекистонда бизнес кейслар: Ўзбекистон Республикасидаги бизнес таълимотида “Кейс-стади” услубининг қўлланниши. Ўқув қўлланма. – Т.: Академия, 2006, - 645 б.

23. Социально-экономическая статистика. Практикум, под ред. В.Н. Салина, Е.П. Шпаковской. – М.: Финансы и статистика, 2006, - 192 с.

24. Набиҳўжаев А.А., Махмудов Б.М., Насретдинова Ш.С. Молиявий дастурлаш. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия, 2005, - 268 б.

25. Аюбжонов А.Ҳ. Таъки иқтисодий фаолият статистикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004, - 145 б.

26. Ефимова М.Р., С.Г. Бычкова. Социальная статистика. Учеб. пособие. – М., 2003, - 560 с.

## **8. Илмий монографиялар, мақолалар**

27. Исмоилов F. Ўртacha арифметик ва дисперсияни ҳисоблашни соддалаштирилган яна бир усули тўғрисида. // Иқтисодиёт ва таълим, 2003, №4, 32-36 б.

28. Доклад о развитии человеческого потенциала в странах Европа и СНГ – М., ПРООН, 2002 г.

29. Доклад о мировом развитии 2000/2001. Борьба с бедностью. Всемирный банк. Вашингтон, округ Колумбия. 2000.

## **9. Илмий —амалий анжуманлар маъruzalari тўпламлари**

30. Набиев X.Н. Инвестиция муҳитини статистик баҳолаш усуллари. “Ўзбекистон иқтисодиётида иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш” – Т., 1 ноябр ТДИУ, 2005, 45-48 б.

31. Аюбжонов А.Ҳ. Ўзбекистон Республикасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ривожланишини статистик ўрганиш тамойиллари. «Миллий иқтисодиёт соҳаларида халқаро тажрибани ўрганиш ва уни кичик бизнес, хусусий тадбиркорликни ривожлантиришда татбиқ этиш” мавзуидаги илмий-амалий анжуман. – Т.: ТДИУ, 2004 йил, 2 ноябр, – 60-63 б.

## **10. Газета ва журналлар**

33. Соатов Н.М. Статистика: вчера сегодня и завтра. // Экономическое обозрение №8 2005, 32-38 с.

34. Фойибназаров Б.К. Ялпи ички маҳсулотни ўзгармас баҳода ҳисоблаш йўллари. // «Иқтисодиёт ва таълим» журнали, 2004 йил 4-сони 61-64 б.

## **11. Статистик маълумотлар тўпламлари**

35.Статистический ежегодник регионов Узбекистана 2004.

Статистический сборник – Т., 2005. 215 с.

36.Промышленность Республики Узбекистан 2004: Статистический сборник. — Т.: Гос комитет РУ по статистике, 2005. 115 с.

37.Узбекистан в цифрах 2004. Статистический сборник. – Т.: 2005. 196 с.

## **12. Интернет сайтлари**

38.verstud.navod.ru/kurs.htm

39.<http://www.rbcnet.ru>

40.<http://www.college.ru>

41.[www.yonsei.ac.kr](http://www.yonsei.ac.kr)

42. [www.mesi.ru](http://www.mesi.ru)

43. [Society.askold.net/s/cogf.html](http://Society.askold.net/s/cogf.html)

44. [www.scafler.ru/story/stat.phtml](http://www.scafler.ru/story/stat.phtml)

## **1-ilova**

### **“Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi” faninig predmeti, metodi va vazifalari”**

O‘quv qo‘llanma (yangi pedagogik texnologiyalar asosida)

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturida ko‘zda tutilganidek, bugungi kunning dolzarb vazifasi nafaqat uning uzuksizligini ta’minlash, balki, ta’lim jarayonlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishdan ham iborat. Shu bois, bu jarayonni ilg‘or pedagogik va infarmatsion texnologiyalar asosida olib borish lozim. Binobarin, o‘quv mashg‘ulotlarida bunday texnologiyalarga tayanish talabalarni mustaqil fikrlash, erkin qaror qabul qila olish, provart natijada, raqobatdosh va xalqaro andozalar darajasidagi mutaxassis bo‘lib etishishiga zamin hozirlaydi.

“TIF statistikasi”ni “Iqtisodiyot va statistika” fakul’tetining uchinchi kurs talabalariga o‘qitiladigan fan bo‘lib, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishi, talabalarda statistik ta’lim – tarbiyani shakillantirish, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlar o‘rtasidagi doimiy aloqadorlikni statistik ko‘rsatgichlar yordamida o‘rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois quyida “TIF statistikasi” fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyani qo‘llash bo‘yicha ayrim tavsiyalar berilgan.

#### **1 – mavzu. “TIF” statistikasi faninig predmeti metodi va vazifalari.**

1. TIF statistikasi fanining predmeti
2. TIF statistikasi fanining ilmiy nazariy asoslari
3. TIF statistikasi metodologiyasi
4. TIF statistikasining vazifalari.

Ushbu mavzuni olib borishga yangi pedagogik texnologiyani qo‘llash ta’lim sifati va samarasini oshiradi.

**1.** Bu darsda “Aqliy hujum”, yani “Breynstorming” usulidan foydalanamiz buning uchun doskani ikki qisimga bo‘lib qo‘yiladi:

Iqtisodiy tushunchalar	Statistik tushunchalar

Shu tarzda guruh azolarini ham ikki guruhga bo‘lamiz. Birinchi guruhga birinchi ustunni to‘ldirishni, ikkinchi guruhga ikkinchi ustunni to‘ldirish vazifasi beriladi. Chunki bakalavr iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirishi bilan statistik tushunchalarni ham ajrata olishi lozim. Navbatda o‘rganishga taklif etilayotgan fan ayni ikki fanining bog‘liqligida bo‘lganligi bois ularning o‘zлари ham iqtisod, ham statistika uchun umumiyl bo‘lgan kategoriya tushunchalarini topishlari kerak.

**2.** Darsning birinchi qismida o‘z – o‘zidan iqtisodiy jarayonlar, ularni ta’riflovchi ko‘rsatgichlar haqidagi fikrlar yuzaga chiqadi. Avvalgi guruhlarni saqlagan holda bakalavrlarga statistika fanida muhim hisoblangan yuqorida tushunchalarning mohiyatini tushunib olishga oid dars va vazifa taklif etiladi:

Iqtisodiy jarayonlar	Iqtisodiy statistik ko'rsatgichlar.

**3.** Vazifada ta'lif oluvchilar o'zlarini iqtisodiy faoliyatda uchraydigan jarayonlarni statistik raqamlarda ifodalangan fikrlari orqali bayon etadilar. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan qanday qilib talabalar yuqoridagi statistik ko'rsatgichlarni qanday o'rghanishi mumkinligini so'raydi va o'z – o'zidan dars mavzusida rejaga kiritilgan metodlarga o'tiladi.

Iqtisodiy statistik jarayonlarni o'rghanuvchi usullar va ularni qo'llash	Iqtisodiy – statistik jarayon qirralarini o'rghanuvchi usullar va ularni qo'llash.

**4.** Ijtimoiy – iqtisodiy munosabat va jarayonlarga oid nazariyalarni statistik tomonlarini o'rghanish iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda muhim bo'lganligi bois darsda 3 ta nazariya tahlili olib boriladi.

Adam Smit	U. Pettii	D. Rikardo

Har bir nazariyani tahlil etib, undagi ham statistik, ham iqtisodiy mexanizim aniqlanadi. Bu esa iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishda statistika omilining ta'siri muqarrarligini aniqlash bilan birga, Respublikamiz miqyosida olib borilayotgan iqtisodiy islohatlarda “Inson omili” bejiz qo'yilmayotganligini to'liq anglab olishga imkon beradi.

Shuning uchun dars yakunida quyidagi jadvalni to'ldirish taklif qilinadi.

Nimani bilar edik	Nimani bilishni xohlaymiz	Nimani bilib oldik

Bu jadvalni to'ldirib kelish uyga mustaqil vazifa sifatida beriladi.

Kutiladigan natija: darsda hammani faollashtirish, yangi fannga astalik bilan olib kirish, har bir talabadan mustaqil fikrni ifoda eta olishiga erishish. Bu texnologiyani qo'llash orqali dars maqsadi va mazmuniga bakalavrlarning o'zlarida fanni tezroq o'zlashtirishlari va kelgusi faoliyatlarida nimalarga e'tibor berish lozimligini shaxsan anglash imkonini yaratadi.

**AYUBJONOV A.H.**

**TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASI**

**(O‘quv qo‘llanma)**

**Kompyuterda teruvchi S.N.Sayfullaev.**